Suyunov Sherzodbek Jamolovich
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna

# Umumiy Pedagogika va Psixologiya

O'quv qo'llanma

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

Suyunov Sherzodbek Jamolovich
Donayeva Nozima Norbo‘tayevna

# UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

(Seminar mashg‘ulotlari)

*O‘quv qo‘llanma*

Termiz - 2023

UO‘K: 158.9(076)
KBK: 75.00 ya 8
S 84

**Suyunov, Sherzodbek Jamolovich, Donayeva, Nozima Norbo‘tayevna.** Umumiy pedagogika va psixologiya [Matn] / Sh.J.Suyunov, N.N.Donayeva. – Termiz: “IRFON-PRINT”, 2023. -138 b.

Mazkur “Umumiy pedagogika va psixologiya” (seminar mashg‘ulotlari) fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma bakalavr ta’lim yo‘nalishidagi talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarga O‘zbekistondagi ta’lim tizimini rivojlantirishda ta’lim-tarbiya tizimining o‘ziga xos tomonlarini yetarlicha yoritishga harakat qilingan. Unda Umumiy pedagogika va psixologiya fani yuzasidan seminar mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha darslarning texnologik model va xaritalari keltirilib o‘tilgan. Har bir seminar mashg‘ulot mavzusi alohida-alohida kontekstda yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli buyrug‘ining 8-ilovasida belgilangan talablar asosida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan “Umumiy pedagogika va psixologiya” fani sillabusi asosida tayyorlangan.

**Mas’ul muharrir:**

**M.Bozorova** – Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

**Taqrizchilar:**

**M.A.Norbosheva** - Termiz davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

**D.Boboqulova** - DTPI “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.b.f.d. PhD

**R.Shukurov** - DTPI “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d. (PhD)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9954-8-4

© Suyunov Sh., Donayeva N.
© “IRFON-PRINT” nashriyoti, 2023.

# KIRISH

***“Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi”***

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ta’limning ustuvor deb e’lon qilinishi «Umumiy pedagogika va psixologiya» fani zimmasiga juda katta mas’uliyatli, ulug‘vor vazifalarni yukladi. O‘z shiddati bilan ajralib turuvchi zamon o‘zgarishlari, kishilar ongini egallashga bo‘lgan kurash tobora murakkab tus olishi o‘sib kelayotgan yosh avlodga chuqur bilim, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish zaruratini tug‘dirmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha ko‘zlangan strategiya vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko‘paytirishga asoslanadi. Bu mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Yuqorida tilga olingan shunday jarayonlarni, yangiliklarni tahlil qilishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy, ma’naviy, madaniy, diniy merosimizni avaylab, bilim va ko‘nikmalarini yosh avlodga taqdim etishda, yangicha mantiqiy fikrlash malakasini shakllantirishda psixologiyaning ahamiyati salmoqlidir. Ijtimoiy voqea-hodisalarni, hayotda sodir bo‘layotgan yangiliklarni tushunib olish va uni himoya qilish uchun esa zamonaviy fan bilan tanishish zarur. Ma’lumki, har bir mustaqil fan o‘zining predmeti va metodologik asoslariga ega. Pedagogika va psixologiya ham boshqa fanlar kabi, avvalo, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida vujudga keldi. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim, chunki ta’limiy va tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Hozirgi kunda pedagogika va psixologiya fani ta’lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, usullari, davlat ta’lim standartlarini tashkil etish shakllari, umuman, uning qonuniyatlari haqida bilim, ma’lumot beradigan fanga aylandi. «Umumiy pedagogika va psixologiya» fani asosan oliy ta’lim muassasalarining nopedagogik (aniq va tabiiy fanlar) yo‘nalishlari mo‘ljallangan bo‘lib, 120 soatdan iborat shaklda o‘tiladi. Ularning 60 soati pedagogika va qolgan 60 soati psixologiya fani asoslari hisoblanadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma yangi andoza talablari bo‘yicha tuzildi. Unda psixologiyaga oid mavzularning seminar mashg‘ulotlari qismi qamrab olingan. Har bir mavzu yuzasidan noodatiy topshiriqlar, takrorlash va munozara uchun savollar berilib, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, mavzuga oid muammoli vaziyatlar, ularning yechimlari, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar, tavsiyalar, psixologik testlar, mashqlar keltirilgan. Pedagogik, psixologik vaziyatli masalalar talabalarning ma’ruzalarda egallagan nazariy bilimlarini to‘la-to‘kis idrok qilishi, jamlangan malaka va ko‘nikmalarni hayotda qo‘llay olish imkoniyatiga ega bo‘lishiga qaratilgan.



DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 31206

## 1-SEMINAR MASHG'ULOTI.

### MAVZU: UMUMIY PSIXOLOGIYA FANI PREDMETI, ILMIY TADQIQOT METODLARI.

**"Umumiy psixologiya fani predmeti, ilmiy tadqiqot metodlari" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik modeli**

| **Seminarga ajratilgan vaqt – 2 s.** | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
|---|---|
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | O'rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Psixologiya fanining predmeti maqsad va vazifalari.<br>2. Psixologiya fanining shakllanish tarixi.<br>3. Ong haqida tushuncha.<br>4. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va sohalari.<br>5. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari. |
| **Mashg'ulotning maqsadi** | Talabalarning psixologiya fani predmeti, obyekti hamda ilmiy tadqiqot metodlari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Psixologiya maktablari va fanining vujudga kelish jarayoni haqida o'rganish;<br>2) Psixolog olimlar tomonidan yaratilgan darsliklar va ularning mazmunini tahlil etish;<br>3) Psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlarini o'rganish va tahlil etish;<br>4) Onglilik va ongsizlik jarayonlarini o'rganish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1) Psixologiya maktablari va fanning vujudga kelish jarayoniga doir bilimlarni o'zlashtiradilar;<br>2) Psixolog olimlar tomonidan yaratilgan darsliklar va ularning mazmunini va bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qiladilar;<br>3) Psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlarini o'rganilib tahlil etiladi;<br>4) Onglilik va ongsizlik jarayonlarini o'zlashtiradilar. |
| **Ta'lim metod va usullari** | Blits-so'rov, "A4 format" metodi, test, krossvord, anagramma, juftlash, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM № 



**"Umumiy psixologiya fani predmeti, ilmiy tadqiqot metodlari" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg'uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O'qituvchi mavzu bo'yicha blits-so'rov o'tkazib, talabalarni mashg'ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo'linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg'ulotning asosiy bosqichiga o'tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berishlari uchun "A4 format" metodi qo'llaniladi (5-ilova). | A4 oq qog'ozlarni tushunchalar bilan to'ldirib, mazmunini izohlashadi. |
| | 2.2. Mavzuga oid topshiriqlarni bajarishda jadvallar bilan ishlanadi, bunda topshiriqni bajarish tartibi tanishtiriladi (6-ilova). | Mavzuga oid jadvallar asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. Psixologiya tarixidagi ayrim eng muhim hodisalarni talabalar rasmlar asosida to'g'ri javoblarni topib birlashtirish e'lon qilinadi (7-ilova). | Rasmlar asosida guruhlar tezkorlik bilan juftlashni amalga oshirishadi. |
| | 2.4. Mavzuga oid anagramma, krossvord, test topshirig'i beriladi (8-9-ilova). | Anagramma, krossvord va testlarni bajarishadi. |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (10-ilova). | Psixologik trening o'tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg'ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg'ulotdagi ishtiroki bo'yicha natijalarini e'lon qiladi. | O'z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun Muhamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. muallifligidagi "Umumiy psixologiya" darsligidan 6-39-betlarni o'qib kelish. | Talabalar mustaqil ta'lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |

*1-ilova*

**Mavzu: Umumiy psixologiya fani predmeti, ilmiy tadqiqot metodlari.**

**Reja:**

1. Psixologiya fanining predmeti maqsad va vazifalari.
2. Psixologiya fanining shakllanish tarixi.
3. Ong haqida tushuncha.
4. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va sohalari.
5. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari.

**Adabiyotlar:**


1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
2. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. - СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. - T.: O'zFMJ., 2008.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. - T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. - T.: 2009.
6. www.ziyocom.uz - ta'lim portali.


*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**Umumiy psixologiya fani predmeti, ilmiy tadqiqot metodlari mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini ko'rsatib o'ting.
2. Psixologiyaning moddiy asosi nimalar bilan belgilanadi?
3. Insonlarda ongsizlik holati qachon ro'y beradi?
4. Inson va hayvon psixikasi o'rtasidagi farqlar nimalarda ko'rinadi?
5. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlarini ko'rsating.
6. Ong tushunchasining mohiyatini izohlang.
7. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rnini qanday izohlaysiz?
8. Kuzatish metodlari haqida ma'lumot bering.
9. Eksperiment metodi haqida ma'lumot bering.
10. Yordamchi metodlarga izoh bering.

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – "Ma'rifat" guruhi.
2-guruh – "Ziyo" guruhi.
3-guruh – "Taraqqiy" guruhi.



**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari:**

1. Sheringingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*5-ilova*

***"A4 format" metodi yordamida psixologiya fani bo'yicha olingan dastlabki bilimlarni tizimlashtirish, guruh ichida va guruhlararo talabalarning tezkorligini va xotirasini muqobilashtirish***

*6-ilova*

**Psixologiya tarmoqlarini tasnif qilish uchun quyidagi psixologik jihatlar asos qilib olingan bo'lib, bu tarmoqlarni o'z navbatida tegishli turlarini tasniflab, jadvalni to'ldiring**

| Aniq faoliyat | Rivojlanish | Odamning jamiyatga, o'zi yashayotgan muhitga munosabatlari |
|---|---|---|
| | | |

*7-ilova*

**Psixologiya tarixidagi ayrim muhim hodisalarni rasmlar asosida birlashtiring**

| T/r | Fotosuratlar | | Ular bilan bog'liq bo'lgan muhim hodisalar |
|---|---|---|---|
| 1 |  | A | Milodiy 11-asrda u dastlabki psixologik mazmundagi tajribalarni o'tkazdi |
| 2 |  | B | 1590-yilda nemis faylasufi va ruhoniysi ilk bor ruhiy hodisalarni o'rganuvchi fanga nisbatan "Psixologiya" atamasini qo'lladi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 |  | C | Miloddan avvalgi 4-asrda u "Jon haqida" asarini yozdi |
| 4 |  | D | 1736-yil nemis tabiatshunos olimi fanga "Empirik psixologiya" tuchunchasini kiritdi |
| 5 |  | E | 1879-yil nemis olimi Germaniyaning Leypsig universitetida dunyodagi birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini tashkil etdi |

Javoblar: 1- 2- 3- 4- 5-

*8-ilova*

**Mavzu yuzasidan anagramma**

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| R | E | T | E | D | N | E | Y | R | O | M | E | T | A |
| M | I | N | I | Z | M | X | I | S | P | O | D | O | Y |
| A | Y | I | G | O | L | O | I | O | L | L | O | G | I |
| P | S | I | X | O | F | I | Z | G | O | A | K | M | E |
| E | T | N | O | P | S | A | Y | I | I | G | O | L | O |
| G | O | L | O | X | I | E | T | I | Y | A | E | M | P |
| I | Y | A | M | A | R | K | G | N | L | K | I | R | E |
| G | E | N | E | T | I | K | D | O | O | N | G | I | T |
| S | P | E | R | I | M | E | N | N | A | L | D | U | Y |
| K | P | E | R | S | E | P | T | A | K | A | Z | O | O |
| E | R | T | E | M | O | T | O | E | M | SH | A | S | P |
| O | N | G | P | I | T | E | L | O | G | I | Y | I | X |
| P | R | I | N | S | T | S | A | Y | I | G | O | L | O |



1. Determinizm
2. Metodologiya
3. Neyropsixologiya
4. Psixofiziologiya
5. Etnopsixologiya
6. Marketing
7. Emperik
8. Longityud
9. Genetik
10. Donalash
11. Perseptometr
12. Eksperiment
13. Ong
14. Prinsip
15. Zoopsixologiya
16. Test
17. Akmeologiya

*9-ilova*

**Mavzusi yuzasidan krossvord topshirig'i**




**Savollar:**

**Eniga**

4. … - tizimchasimon murakkab tuzilma nerv talablari tutami, ular miyani va nerv tushunchalarini tananing boshqa a'zolari bilan bog'laydi.

6… - inson ruhiyati – shunday holatidirki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz anglashimizni ta'minlaydi (V.M.Karimova)

7. Abu Ali ibn Sino dunyoda birinchi bo'lib tibbiyot sohasida qanday usullarni qo'llab ko'rgan olimlardan biri hisoblanadi?

8."Ideyalar tug'ma bo'ladi" degan yunonistonlik faylasuf kim?

9. Platon psixologiyada qanday oqimning asoschisi hisoblanadi?

**Bo'yiga**

1. Determinizm oqimning asoschisi kim?

2. Rene Dekart qanday tushunchani fanga kiritgan?

3. Jon o'z ruhiyatiga ko'ra olovsimon uchqundan iborat ekanligini ilgari surgan olim.

5… so'zi jon degan ma'noni bildiradi.

## Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. Psixologiya qaysi so'zdan olingan bo'lib nima degan ma'noni anglatadi?**
a) Yunoncha - ruh jon
c) Lotincha - ruh jon
d) Yunoncha - ong, ruh
d) Grekcha - ruh, olam

**2. "Jon haqida" asarining muallifi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.**
a) Gerodot
c) Demokrit
b) Aristotel
d) Gippokrat

**3. Psixikaning namoyon bo'lish shakllari qanday?**
a) Jarayonlar, holatlar, xususiyatlar
b) Jarayonlar, aql-idrok, ruh
c) Holatlar, xususiyatlar, tafakkur
d) Qobiliyatlar, layoqatlar, xususiyatlar

**4. Bilish jarayonlariga nimalar kiradi?**
a) His-tuyg'u, iroda, emotsiya
b) Temperament, xarakter, qobiliyat
c) Sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur
d) Xotira, iroda, hissiyot, diqqat

**5. Psixik holatlarga nimalar kiradi?**
a) His-tuyg'u, iroda, emotsiya
b) Sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur
c) Temperament, xatakter, qobiliyat
d) Emotsiya, xayol, xarakter, qobiliyat

**6. Shaxsning individual xususiyatlariga nimalar kiradi?**
a) His-tuyg'u, iroda, emotsiya
b) Sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur
c) Qobiliyat, iroda, emotsiya, xarakter
d) Temperament, xarakter, qobiliyat

**7. Maxsus psixologiya sohalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.**
a) Psixoterapiya, psixofiziologiya, farmopsixika
b) Surdopsixologiya, tiflopsixologiya, oligofrenopsixologiya
c) Parapsixologiya, astrologiya, tanatologiya
d) Logopediya, psixoterapiya, qiyosiy psixologiya

**8. Tibbiyot psixologiyasi sohalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.**
a) Psixoterapiya, psixofiziologiya, farmopsixika
b) Surdopsixologiya, tiflopsixologiya, oligofrenopsixologiya
c) Parapsixologiya, astrologiya, tanatologiya
d) Tiflopsixologiya, farmopsixika, astrologiya

**9. Yosh davrlar psixologiyasi nimani o'rganadi?**
a) Inson ontogenez (rivojlanish) davrini o'rganadi
b) Muhit o'zgargan shart-sharoitlarni o'rganadi
c) Tajribalar yordamida psixik sohani tadqiq qiladi
d) Ekspremental metodi orqali taqlid qiladi

**10. Psixologiya so'zi qadimda nima deb yuritilgan?**
a) Jon, ruh
b) Qalb, yurak
c) Tana, ong
d) Ruh, tana



**11. Psixologiya fani qachon mustaqil fan bo'lib chiqqan?**
a) 1897-yil
b) 1879-yil
c) 1979-yil
d) 1984-yil

**12. Psixologiya fani mustaqil fan bo'lib chiqishiga hissa qo'shgan olim?**
a) Torn Dayk
c) Zigmund Freyd
b) Aristotel
d) Vilgelm Vund

**13. Bola faoliyatiga aralashmasdan tabiiy sharoitda o'rganadigan metod?**
a) So'rov
b) Test
c) Anketa
d) Kuzatish

**14. Tekshiruvchilarni maxsus savollarga javobni yig'ib o'rganish metodi?**
a) Faoliyat natijalarini o'rganish
c) Eksperiment
b) Anketa
d) Biografiya

**15. Shaxsning rivojlanish darajasi hamda shaxsiy individual xususiyatlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan standartlashtirilgan qisqa psixologik sinov bu - ...?**
a) Test
b) Kuzatish
c) Suhbat
d) Anketa

*10-ilova*

### "ISM VA SIFAT" treningi

Ushbu o'yinni darsning birinchi kuni talabalar bilan tanishib ulgurmagan vaqtda amalga oshirish lozim. Ishtirokchilar doira shaklida turib olishadi. Har bir talaba o'z ismining bosh harfiga bironta sifat o'ylab topishi kerak (misol Mehrnoz - mehribon). Boshlovchi o'z ismini va o'zi tanlagan sifatni aytib o'tadi, shundan so'ng navbatdagi ishtirokchi avval o'zidan oldingi va o'zining ismini va unga mos sifatni aytadi. O'yin shu zaylda oxirgi ishtirokchigacha davom etadi. U barcha ishtirokchilar va o'zining ism va sifatlarini yoddan aytib, o'yinni tugatadi.

### Mustaqil ta'lim topshirig'i

Muhamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. - T.: Mumtoz so'z, 2018. 287-b.

"Piper" nomli qisqa metrajli videorolik.

Psixologdan bir hikoya (Talabalar bilan birga tahlil qilish uchun)

## 2-SEMINAR MASHG‘ULOTI.
## MAVZU: INSON PSIXIKASINI ONTOGENEZDA RIVOJLANISHI.

### “Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi” mavzusidagi seminar mashg‘ulotining texnologik modeli

| | |
|---|---|
| **Seminarga ajratilgan vaqt** – 2 s. | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
| **O‘quv mashg‘ulotining shakli** | O‘rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg‘ulot rejasi** | 1. Shaxs haqida tushuncha.<br>2. Shaxsning rivojlanishi.<br>3. Shaxsning himoyalanish mexanizmlari, ta’sir etuvchi omillar.<br>4. Shaxs psixologik strukturasi.<br>5.Shaxs nazariyalari (G.Ayzenk Z.Freyd, K.Rodjers, A Maslou). |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | Talabalarni inson psixikasini ontogenizda rivojlanishi va shaxs nazariyalari yuzasidan bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Shaxsni o‘rganishga turlicha yondashuvlar va uning rivojlanish haqida bilimlarini shakllantirish;<br>2) Shaxsga ta’sir etuvchi omillar, shaxs psixologiyasi, ko‘p-qirraliligini o‘rganib tahlil etish;<br>3) Shaxsning psixologik strukturasini o‘rganish;<br>4) Shaxs nazariyalarini o‘rganish. | **O‘quv faoliyati natijalari:**<br>1) Shaxsni o‘rganishga turlicha yondashuvlar va uning rivojlanish haqida bilimlarini o‘zlashtiradilar;<br>2) Shaxsga ta’sir etuvchi omillar, shaxs psixologiyasi, ko‘pqirraliligini o‘rganib tahlil qiladilar;<br>3) Shaxsning psixologik strukturasini bilan tanishiladi;<br>4) Shaxs nazariyalarini o‘zlashtiradilar. |
| **Ta’lim metod va usullari** | Blits-so‘rov, “Kayfiyat haqida axborot”, aqliy hujum, tushunchalar tahlili metodlari, test, anagramma, jadval, energizerlar, guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta’limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O‘quv qo‘llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og‘zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |



### “Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi” mavzusidagi seminar mashg‘ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O‘qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg‘uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O‘quv mashg‘ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. Mavzu bo‘yicha blits-so‘rov o‘tkazib, talabalarni mashg‘ulotga chorlaydi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo‘linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| | 1.4. Mashg‘ulotning asosiy bosqichiga o‘tishdan oldin “Kayfiyat haqida axborot” metodini o‘tkazib talabalarning umumiy ruhiy holati haqida ma’lumot olinadi (5-ilova). | Ayni vaqtda o‘zlarining kayfiyati haqidagi ma’lumotlarni obrazlarda ifoda etishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg‘ulotning asosiy bosqichiga o‘tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berishlari uchun “Aqliy hujum” metodi qo‘llaniladi (6-ilova). | Mavzuga oid tezkor savollarga talabalar guruhlari bilan ishlab og‘zaki javob beradilar. |
| | 2.2. Shaxs nazriyalariga oid topshiriqlarni bajarishda jadvallar bilan ishlanadi, bunda topshiriqni bajarish tartibi tanishtiradi (7-ilova). | Mavzuga oid jadvallar asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. Mavzuga oid anagramma bilan ishlash topshirig‘ini beradi (8-ilova). | Anagramma, krossvord va testlarni bajarishadi |
| | 2.4. Guruhlar taqdimotini tashkil etadi va “Tushunchalar tahlili” orqali savollar bilan murojat etadi hamda ularning javoblari baholaydi (9-ilova). | Taqdim etilgan tushunchalarga oid o‘z fikirlarini bildirishadi |
| | 2.5. Mavzuga oid test va moslikni topish topshirig‘i beriladi (10-ilova). | Test va mosliklarni topish topshirig‘ini bajarishadi |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etib, mavzu mohiyati mustahkamlab oladi (11-ilova). | Psixologik trening o‘tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg‘ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg‘ulotdagi ishtiroki bo‘yicha natijalarini e’lon qiladi. | O‘z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ishlash uchun uyga vazifa A.R.Luriyaning (Лекции по общей психологии. - СПб.: Питер, 2016) darsligidan 39-60-betlarni o‘qib tarjima qilib kelish topshirig‘ini beradi. | Talabalar mustaqil ta’lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |

*1-ilova*

**Mavzu: Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi.**

**Reja:**

1. Shaxs haqida tushuncha.
2. Shaxsning rivojlanishi.
3. Shaxsning himoyalanish mexanizmlari, ta'sir etuvchi omillar.
4. Shaxs psixologik strukturasi.
5. Shaxs nazariyalari (G.Ayzenk Z.Freyd, K.Rodjers, A Maslou).

**Adabiyotlar:**


1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
2. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. - СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. - T.: O'zFMJ., 2008.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. - T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. - T.: 2009.
6. www.ziyocom.uz - ta'lim portali.


*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Shaxsga ta'rif bering?
2. "Individ" deb nimaga aytiladi?
3. Individuallik tushunchasi mazmuni?
4. Psixolog olimlar talqinida shaxs tuzilishi talqini?
5. J.Piaje bo'yicha intellekt nazariyasi mazmuni?
6. Shaxsni o'rganishning qanday nazariyalari mavjud?
7. Biogenetiklar talqinida shaxs tushunchasi?
8. Psixogenetik nazariyaning qanday yo'nalishlari bor?

*4-ilova*

**Mavzuni tahlil etish va o'rganishga doir kichik gurihlarda ishlash topshiriqlari:**

Talabalarning kichik guruhlardagi ishlashi quyidagicha tashkil etiladi:

Talabalardan uchta guruh tashkil etiladi va ularni kichik guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiriladi.



**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari:**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*5-ilova*

***"Kayfiyat haqida axborot" metodida** ob-havo, hayvonlar, qushlar yoki o'simliklar kabi mavzularaga murojaat qilib o'zingizni qanday his qilayotganingizni bildiring: masalan, "O'tgan kuni juda bulutli edi, ammo endi quyosh yorisha boshladi", "Men o'zimni-toshbaqa kabi his qilyapman, chunki sekin-asta harakatlanyapman"*

*6-ilova*

**Aqliy hujum metodi uchun savollar**

1. Individ va shaxsga ta'rif bering. Ularning birligi, tafovutlarini ajrating.
2. Nima uchun barcha odamlarni shaxs deya olmaymiz, uning individdan asosiy farq qiluvchi belgisi nimada? Fikrlaringizni misollar bilan izohlang.
3. Odamning o'zini shaxs sifatida tanishi, o'zining jismoniy hamda aqliy qobiliyatlarini, xatti-harakatlari va ularning motivlarini, atrofdagi borliqqa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini tushunish nima? Ajrating. Vujudga kelish sabablarini asoslang.
4. Psixik rivojlanishni harakatga keltiruvchi asosiy kuchni ko'rsating va asoslang (baholash).
5. Shaxsning har tomonlama (barkamol) rivojlanganligini birinchi navbatda nima belgilaydi? Ajratib ko'rsating. Fikrlar to'g'riligini isbotlang.
6. Amalga oshirilishi shaxsning kundalik ehtiyojiga aylangan intilishlar, xatti-harakatlar va dunyoqarash tizimini ko'rsating hamda inson hayotidagi ahamiyatini tushuntiring.
7. Inson shaxsining tarkib topishi qanday omillarga bog'liq va nima uchun? Asoslang.
8. Shaxs tuzilishini (struktura) sxematik ravishda ifodalang va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsating, analiz, sintez qiling, umumlashtiring.
9. Shaxs faolligi, umuman, faollik deganda nimani tushunasiz? Faollikka psixologik ta'rif bering va faollikka undovchi motivlarni ko'rsating. Mohiyatini ochib bering. (tushunish)
10. Shaxs faolligini Z.Freyd konsepsiyasi bo'yicha sharhlang. O'z fikrlaringizni bildiring.

11. Shaxsning yo'naltirilganligiga ta'rif bering va mohiyatini ochib bering. Anglangan va anglanilmagan motivlarga misollar keltiring. Frustratsiya nima ekanligini izohlang.

12. E'tiqod nima? Shaxsning yo'l-yo'riqlari-chi? Bu tushunchalarga psixologik xarakteristika bering, mazmun-mohiyatini ochib bering. Yo'l-yo'riqlar tuzilishning uch tarkibiy qismini bayon yeting.

13. Shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun voqe'likni o'zgartirishga qaratilgan muhim qobiliyati nima va uning inson hayotidagi rolini ko'rsating.

14. Shaxsning faoliyatini yo'naltirib turadigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan bog'liq bo'lmagan barqaror motivlar majmuini ko'rsating.

15. O'z-o'ziga baho berish nima va u qanday paydo bo'ladi?

*7-ilova*

**Shaxsni o'rganish borasidagi nazariyalar jadvalini to'ldiring**

| Sotsiogenetik | Biogenetik | Psixogenetik |
|---|---|---|
| | | |

*8-ilova*

**Mavzusi yuzasidan anagramma**

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| D | N | I | I | X | I | K | A | O | Z | K | E |
| I | O | P | S | R | E | K | A | P | S | I | X |
| V | D | A | L | U | T | I | P | Sh | A | K | I |
| I | N | T | S | I | Y | A | S | O | T | S | I |
| D | E | T | I | K | Sh | A | X | S | K | O | O |
| B | N | E | E | R | V | I | T | I | N | G | G |
| I | E | K | T | Q | I | Z | I | Q | I | Sh | E |
| O | G | A | M | O | T | I | V | E | T | I | N |
| H | A | R | M | A | L | A | K | A | A | Q | E |
| I | N | T | E | R | F | E | R | E | N | O | T |
| O | S | N | I | A | Y | I | S | N | T | D | I |
| N | Q | T | U | N | A | X | M | Z | I | S | K |



**Harflar orasiga yashiringan so'zlarni toping!**

1. Individ
2. Endopsixika
3. Ekzopsixika
4. Biogenetik
5. Rekapitulatsiya
6. Sotsiogenetik
7. Shaxs
8. Qiziqish
9. Motiv
10. Harakter
11. Interferensiya
12. Malaka
13. E'tiqod
14. Inson
15. Nutq

*9-ilova*

**Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi mavzusi yuzasidan "Tushunchalar tahlili" metodini qo'llash topshirig'i**

| № | Tushunchalar | Sizningcha, bu tushunchalar nima ma'noni anglatadi? |
|---|---|---|
| 1 | Ontogenez | |
| 2 | Individ | |
| 3 | Individuallik | |
| 4 | Endopsixika | |
| 5 | Ekzopsixika | |
| 6 | Shaxs | |

*10-ilova*

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

**1. Shaxs ta'rifining qaysi biri to'g'ri?**

a) Muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.
b) Har qanday biologik zot shaxs deb ataladi.
c) Har bir odam yoshidan qatiy nazar – individdir, demakki, shaxsdir.
d) Har bir individ, telba, jamiyatga hissa qo'sha oladigan mavjudot.

**2. Ongning ta'rifi ... - ?**

a) Insonga xos xususiyat
b) Obyektiv olamni subyektiv tarzda aks etishi
c) Obyektiv olamning aks etishi
d) Shaxsga xos xususiyat

**3. Shaxsning psixologik tuzilishini nima tashkil etadi?**

a) Ruhiy taraqqiyotlar tuzilishi, jarayon va xususiyatlar namunasi
b) Shaxsning aktivligi
c) Barqaror shaxsiy sifatlar
d) Insonning faol va aktivligi



DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 31206.

**4. Ongsizlik ko'rinishlari nechta sinfga ajratiladi?**

a) 5 b) 3
c) 4 d)2

**5. Ongsizlik bu – ...?**

a) U yoki bu biologik turga xos, tug'ma biologik shartlangan xulq-atvor.

b) Bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi.

c) Ongsizlik inson tomonidan voqelikni aks ettirishning yuksak darajasi.

d) Bu organizmning shunday reaksiyalaridirki, ular tug'ma bo'lmasdan, hayotiy sharoitlarda orttiriladi.

**6. Insonning shaxsiy psixologik xususiyatlari betakror birikmasi bu - ...?**

a) Individuallik c) Ko'nikma
b) Motiv d) Individ

**7. Endopsixika o'z navbatida qaysi fazilatlarni aks ettiradi?**

a) Shaxsning ta'sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xusuyatlarini, irodaviy zo'r berish xislatlarini, ixtiyorsiz harakatlarni

b) Shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlarini, moyilligi, ideallari, mosligi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarni egallagan bilimlarni, tajribalarni

c) Shaxsning ta'sirlanishi, uning qiziqishlarini, xotira, ideallari, hukmron hissiyotlarini

d) Irodaviy zo'r berishni, idealarni, hukmron hissiyotlarni

**8. Egzopisixika o'z tarkibida qanday jarayonlarni qamrab oladi?**

a) Shaxsning ta'sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol, idoraviy zo'r berish harakatlarini

b) Shaxs munosabatlarining tizimi va uning qiziqishlarini, mayllari, ideallari, maslagi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilim va tajribalarini

c) Shaxsning ta'sirlanishi, uning qiziqishlari, xotira idealari, hukumron hissiyotlari

d) Iroda, zo'r berish, idealar, hukmron hissiyotlarni

**9. "Faoliyat, ong, shaxs" kitobi muallifi kim?**

a) K.K.Platonov c) L.I.Bojovich
b) A.N.Leontev d) A.V.Petrovskiy

**10. Kimning fikricha, "Shaxs bu - ijtimoiy munosabatlarning ham obyekti ham subyekti"?**

a) A.G.Kovalyov c) L.I.Bojovich
b) K.K.Platonov d) S.L.Rubinshteyn



**Shaxs psixologik strukturasi yuzasidan moslikni topish topshirig'i**
*(barcha guruhlar uchun)*

| | |
|---|---|
| "Bu oliy olam birligi hayotida doimiyligini saqlaydi, har qanday sharoitda shaxsligicha boshqalar ko'z o'ngida qoladi" | K.K.Platonov |
| "Odam o'zini anglash jarayonida yaxlitligini idrok qiladi, unda "men" degan tushuncha paydo bo'ladi" | L.I.Bojovich |
| Shaxs "konkret odam yoki dunyoni yaratuvchi subyektdir", | A.N.Leontev |

*11-ilova*

**"ORQADAGI YOZULAR" treningi**

Ishtirokchilarning yelkalariga qog'oz yopishtirib qo'yiladi. Barcha ishtirokchilar xonada xohlagan odamining nimasi o'ziga yoqishini yozishi kerak. Vazifani mukkamallashtirish ham mumkin. Masalan, o'sha odamda nimani o'zgartirishni xohlashini yozishi mumkin.

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. - СПб.: Питер, 2016. 322 с.

"Make joy happen" nomli qisqa metrajli videorolik

## 3-SEMINAR MASHG'ULOTI.
## MAVZU: SEZGI VA IDROKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI, FIZIOLOGIYASI.

**"Sezgi va idrokning psixologik mohiyati, fiziologiyasi" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik modeli**

| **Seminarga ajratilgan vaqt – 2 s.** | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
|---|---|
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | O'rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Sezgilar haqida umumiy tushuncha.<br>2. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari.<br>3. Idrok haqida tushuncha.<br>4. Idrokning nerv-fiziologik asoslari, xususiyatlari va qonuniyatlari.<br>5. Idrokda illyuziya va gallyutsinatsiya.<br>6. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilish. |
| **Mashg'ulotning maqsadi** | Sezgi va idrok hosil bo'lish jarayonlarini tahlil etish va bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Sezgi haqida umumiy tushuncha va sezgi obrazlarining paydo bo'lish fazalarini o'rganish;<br>2) Sezgilarning nerv-fiziologik asoslarini tahlil etish;<br>3) Idrokning qonuniyatlari, xususiyatlari, turlarini o'rganish va tahlil etish;<br>4) Sezgi va idrok jarayonlarining bir-biriga aloqador xususiyatlarini tahlil etish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1) Sezgi va uning obrazlarini paydo bo'lish fazalariga oid bilimlarni o'zlashtiradilar;<br>2) Sezgilarning nerv-fiziologik asoslarini tahlil etib, ma'lumotlar bilan tanishadilar;<br>3) Idrokning qonuniyatlari, xususiyatlari, turlari o'rganib, tahlil etiladi;<br>4) Sezgi va idrok jarayonlarining bir-biriga aloqador xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; |
| **Ta'lim metod va usullari** | Blits-so'rov, "Pazl", klaster, baliq skeleti metodi, jadval, test, juftlash, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |



**"Sezgi va idrokning psixologik mohiyati, fiziologiyasi" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg'uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O'qituvchi mavzu bo'yicha blits-so'rov o'tkazib, talabalarni mashg'ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni ikkita kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo'linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg'ulotning asosiy bosqichiga o'tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berishlari uchun "Pazl" metodi qo'llaniladi (5-ilova). | Pazl metodi yordamida mavzuga oid tushunchalar bilan yaqindan tanishib, izohlashadi |
| | 2.2. Mavzuga oid topshiriqlarni bajarishda klaster bilan ishlanadi, bunda topshiriqni bajarish tartibi tanishtiriladi (6-7ilova). | Mavzuga oid klaster asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. Sezgining qonuniyatlari hamda turlarini o'rganishda talabalar "Venn diagramasi" va jadvallarni to'ldirishlari e'lon qilinadi. (8-9-10-11-ilovalar). | Jadvallar hamda "Venn diagrammasi"da topshiriqlarni amalga oshirishadi. |
| | 2.4. Idrok va uning fizologik ahamiyati, turlari hamda shakllari bo'yicha "Baliq skeleti" metodi, rasmlarni izohlash, testlarni bajarish topshirig'i beriladi (12-13-ilovalar). | "Baliq skelet" metodi, rasmlarni izohlash va testlarni bajarishadi. |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (13-ilova). | Psixologik trening o'tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg'ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg'ulotdagi ishtiroki bo'yicha natijalarini e'lon qiladi. | O'z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun Muhamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. muallifligidagi "Umumiy psixologiya" darsligidan 40-60-betlarni o'qib kelish. | Talabalar mustaqil ta'lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |

1-ilova

**Mavzu: Sezgi va idrokning psixologik mohiyati, fiziologiyasi.**

**Reja:**

1. Sezgilar haqida umumiy tushuncha.
2. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari.
3. Idrok haqida tushuncha.
4. Idrokning nerv-fiziologik asoslari, xususiyatlari va qonuniyatlari.
5. Idrokda illyuziya va gallyutsinatsiya.
6. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilish.

**Adabiyotlar:**

1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
2. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. - СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. - T.: O'zFMJ., 2008.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. - T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. - T.: 2009.
6. www.ziyocom.uz - ta'lim portali.

*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**Sezgi va idrokning psixologik mohiyati, fiziologiyasi mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Sezgi deb nimaga aytiladi?
2. Sezgilarning nerv-fiziologik asosi haqida gapirib bering.
3. Sezgilarning tasnifi deganda nima tushuniladi?
4. Sezgilarning turlarini sanab va ularga ta'rif bering?
5. Sezgi sohasidagi qonuniyatlarni tushuntirib bering?
6. Idrok qanday xususiyatlari mavjud?
7. Illyuziya nima?
8. Galyutsinatsiya deganda nimani tushunasiz?
9. Idrok turlari?
10. Perseptiv faoliyat nazariyasida nima bayon etilgan?

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – "Sezgi" guruhi.
2-guruh – "Idrok" guruhi.



**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari:**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*5-ilova*



***"Pazl" metodi mavzuga oid atama, jumla, ta'rif, asosiy ma'lumotlar qog'ozga yozilib, bir nechta bo'laklarga bo'lib, aralashtirilib yuboriladi va bu qog'ozlar konvertga solinib guruhlarga beriladi. O'qituvchi tomonidan vaqt belgilangandan so'ng talabalar bu bo'laklar ichidan faqat bitta ma'lumotga moslarini topib, uni tiklaydilar.***

*6-ilova*

**"Klaster" metodi asosida sezgi mavzusiga doir bilimlarini tizimlashtirish topshirig'i**




*7-ilova*

**"Klaster" metodi asosida analizator apparatiga nimalar kirishini ketma-ketlik asosida yozish topshirig'i**



8-ilova

**"Venn diagrammasi" metodini qo'lash asosida adaptatsiya va sensibilizatsiyadagi o'xshashlik va farqli jihatlarini yozish topshirig'i.**




9-ilova

**Quyidagi ta'riflarga mos sezgi turlarini aniqlang**

| № | Ta'riflar | Sezgi turlari |
|---|---|---|
| 1 | Tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishgamoslashgan hamda retseptorlari tananing sirtqi qismida joylashgan sezgilar | |
| 2 | Ichki tana a'zolari holatlarini aks ettiruvchi hamda retseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarda joylashgan sezgilar | |
| 3 | Tanamiz va gavdamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar | |

10-ilova

**Statik sezgilar hamda organik sezgilarni ajratib yozing**

| № | Statik sezgilar | Organik sezgilar |
|---|---|---|
| 1 | | |
| 2 | | |
| 3 | | |

Og'irlik
Chanqoq
Organlar harakati

Og'riq
Qarshilik
Noxush tuyg'ular

11-ilova

**Sezgi qonuniyatlarini unga mos ta'rif bilan birlashtiring**

| № | Sezgi qonuniyatlari | | Mazmuni |
|---|---|---|---|
| 1 | Salbiy moslashish | A | Boshqa analizator faoliyati ta'sirida analizator sezuvchanligining o'zgarishi |
| 2 | Sezgilarning o'zaro ta'siri | B | Qo'zg'alish ta'sirida boshqa analizatorlarga xos bo'lgan bir xil sezgi analizatorining hosil bo'lishi |
| 3 | Ijobiy moslashish | C | Seskantiruvchining davomli ta'sirida sezgining to'liq g'oyib bo'lishi |
| 4 | Sensibilizatsiya | D | kuchsiz seskantiruvchi ta'sirida sezuvchanlikning oshishi |
| 5 | Sinesteziya | E | Analizatorlarning o'zaro ta'sirlashishi, hamda, muntazam mashqlar natijasida sezuvchanlikning oshishi |

| Javoblar: | 1- | 2- | 3- | 4- | 5- |
|---|---|---|---|---|---|



12-ilova

**"Baliq skeleti" metodi asosida idrok va uning fiziologik asoslarini tushuntirib bering?**

Savoliga javob beriladi. Ushbu texnologiya kata muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Yuqori qismida muammolar turi yozilsa, pastki qismida esa muammolarni tasdiqlovchi dalillar yoziladi.




13-ilova

**Tasvirlarga izoh bering.**



## KROSSVORD



### Krossvord savollari:

**Eniga**

2. Idrokning psixopotologik hodisasi
4. Biror narsaga qaraganda ikkala ko'z soqqasining bab-barovar burilishi
6. Sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarni kishi ongida bir butun holda aks ettirilishi
7. Narsani yoki fazoni ko'rish kinestetik, paypaslash, assotsiyatsiyalar orqali va boshqa sezgilarni assotsiatsiyasi orqali idrok etilishi izohlab bergan olim
8. Ko'z gavharining va umuman ko'zning narsalarni eng yaxshi ko'rish uchun moslashuvini

**Bo'yiga**

1. Odam ko'p sonli qo'zg'ovchilardan faqat ayrimlarini aniq holda ajratib oladi. Shu ajratib olingan narsa hodisalarni nima deyiladi?
3. Idrok jarayoni shaxsning oldingi bilimlari shaxsiy va ijtimoiy tajribalar qiziqishlar mativatsiyasi ehtiyojlari va odatlari umuman ruhiy hayotning barcha mazmuni bilan belgilanishi
5. Bizga ta'sir qilayotgan narsalarni yangilish idrok qilishjarayoni

### Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. Sezgi deb nimaga aytiladi?**

a) Narsa va xodisalarning ayrim xossalari sezgi a'zolarimizga ta'sir etib, miyamizda aks ettirilishiga aytiladi.

b) Narsa va xodisalarning ayrim xossalari sezgi a'zolarimizga ta'sir etib miyamizda yaxlit obraz hosil qilishiga aytiladi.

c) Ongimizni bir nuqtaga to'plab, torayishiga aytiladi.

d) Narsa va hodisalarning ayrim xossalarini sezgi a'zolarimizga ta'sir etib, ularni yaxlitligicha ongimizda aks etishilishiga aytiladi.



**2. Idrok deb nimaga aytiladi?**

a) Narsa va xodisalarning ayrim xossalari sezgi a'zolarimizga ta'sir etib, miyamizda aks ettirilishiga aytiladi.

b) Ongimizni bir nuqtaga to'plab, torayishiga aytiladi.

c) Narsa va xodisalarning ayrim xossalari sezgi a'zolarimizga ta'sir etib, miyamizda yaxlit obraz hosil qilishiga aytiladi.

d) Ongimizni bir nuqtaga to'plab, tasavvurimizda aks ettirilishiga aytiladi.

**3. Analizator nechta qismidan iborat?**

a) 6 ta b) 3 ta c) 2 ta d) 4 ta

**4. ________ idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman ruhiy hayotining barcha mazmuni bilan belgilanishidir. Quyidagi ta'rifga mos javobni toping?**

a) Appertseptsiya
b) Illyuziy
c) Konstantligi
d) Gallyutsinatsiya

**5. Hamma odamlar uchun umumiy xarakterga ega bo'lib, uni geometrik illyuziya deb ham yuritiladi. Qaysi illyuziya turi haqida gap ketmoqda?**

a) subyektiv illyuziya
b) verbal illyuziya
c) obyektiv illyuziya
d) affektiz illyuziya

**6. Psixologiya fanida mazkur sezgilar to'la o'rganilmaganligi sababli uni "noma'lum hislar" deb atalgan. Qaysi sezgi turi haqida gap ketmoqda?**

a) Ekstroretseptiv
b) Proprioretseptiv
c) Interoretseptiv
d) eshitish sezgisi

**7. Bizga ta'sir qilayotgan narsalarni yanglish idrok qilish hodisasi bu - ?**

a) Parishonxotirlik
b) Adaptatsiya
c) Gallyutsinatsiya
d) Illyuziya

**8. Ko'z gavharlarining va umuman ko'zning narsalarni eng yaxshi ko'rish uchun moslashuvini nima deb ataymiz?**

a) gallyutsinatsiya
d) Akkomadatsiya
c) Konvergentsiya
d) to'g'ri javob berilmagan

**9. Tanamiz va gavdamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilarni qanday sezgilar deb ataymiz?**

a) Ekstroretseptiv
b) Proprioretseptiv
c) Interoretseptiv
d) bunday sezgilar mavjud emas.

**10. Analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilishi natijasida sezgirlikning kuchayishi nima deb ataladi?**

a) Sensibilizatsiya
b) Kontrasti
c) Sinesteziya
d) Adaptatsiya

### "Sezgini rivojlantirish" treningi

1. Bunda talabalar guruhlarga bo'linib ishlashadi va ikki gurudan ikki kishidan ishtirokchi chiqib, birinchi ichtirokchi ikkinchi ichtirokchining yelka qismiga oq qog'ozni qo'yib, biron bir predmetning rasmini chizishadi yoki yozadi, ikkinchi ishtirokchi esa tuyish sezgisi orqali sezgan predmatni doskaga yozadi. Yozib bo'lgandan so'ng, qog'ozga yozilgan predmet nomi bilan doskaga yozilgan predmet nomini tekshirib, guruhlar o'rtasida g'oliblarni shu tariqa aniqlab olishadilar.

2. Bunda ham guruhlar o'rtasida olib boriladi. Har bir guruhdan bittadan ishtirokchi chiqib, o'qituvchi tomondan ko'zlari bog'lanadi. Shundan so'ng, ular stol ustida turgan stakanlardan ko'zlari yumilgan holda piramida yasashlari kerak bo'ladi. Qaysi ishtirokchi birinchi tugatsa, o'yin toxtatilib, g'olib guruhlar shu tariqa aniqlab boriladi.

### Mustaqil ta'lim topshirig'i

Muhamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. - T.: Mumtoz so'z, 2018. 287-b.

"One Small Step" nomli qisqa metrajli videorolik



## 4-SEMINAR MASHG'ULOTI.
## MAVZU: DIQQAT VA XOTIRA – PSIXIK JARAYON SIFATIDA.

**"Diqqat va xotira – psixik jarayon sifatida" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik modeli**

| **Seminarga ajratilgan vaqt** – 2 s. | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
|---|---|
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | O'rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari.<br>2. Diqqat turlari.<br>3. Diqqatning xususiyatlari, diqqat kuchi va bo'linishi, diqqat ko'lami, diqqat taqsimlanishi, shaxsda diqqat rivojlanishi.<br>4. Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi.<br>5. Xotira nazariyalari. |
| **Mashg'ulotning maqsadi** | Talabalarning diqqat va xotira mavzusi bo'yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Diqqat, diqqatning nerv-fiziologik asoslarini o'rganish;<br>2) Diqqat turlari va ularning mazmunini tahlil etish;<br>3) Diqqatning xususiyatlari, diqqat kuchi va bo'linishi, diqqat ko'lami, diqqat taqsimlanishi, shaxsda diqqat rivojlanishi;<br>4) Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyalari. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1) Diqqat, diqqatning nerv-fiziologik asoslarini o'rganish jarayoniga doir bilimlarni o'zlashtiradilar;<br>2) Diqqat turlari va ularning mazmunini, bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qiladilar;<br>3) Diqqatning xususiyatlari, diqqat kuchi va bo'linishi, diqqat ko'lami, diqqat taqsimlanishi, shaxsda diqqat rivojlanishi o'rganilib tahlil etiladi;<br>4) Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyalari jarayonlarini o'zlashtiradilar. |
| **Ta'lim metod va usullari** | Blits-so'rov, ""Klaster" metodi, test, krossvord, anagramma, psixologik mazmundagi rasmlar bilan ishlash, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |

**"Diqqat va xotira – psixik jarayon sifatida" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | Talabalar |
| Tayyorlov bosqichi | Seminar mashg'uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| 1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa) | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O'qituvchi mavzu bo'yicha blits-so'rov o'tkazib, talabalarni mashg'ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-5-ilova). | Guruhlarga bo'linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| 2. Asosiy bosqich (50 daqiqa) | 2.1. Mashg'ulotning asosiy bosqichiga o'tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berishlari uchun "Konseptual jadval" metodi, diqqat mavzusi yuzasidan anogrammani talabalar to'g'ri javoblarni topib birlashtirish qo'llaniladi (6-7-ilova). | Mavzuga oid jadvallar, anogramma asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.2. "Diqqat turlari" xususida "Klaster" metodi asosida diqqat mavzusi yuzasidan bilimlarni tizimlashtirish, diqqat mavzusi-ga doir krossvord ishlanadi. (8-9-ilova). | Mavzuga oid krossvord, klaster asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. Xotira tiplarini joylashtirish sxemasi, rasmlar bilan ishlash orqali diqqatni jamlab olish va uni xotirada saqlash mashqlari (10-11-ilova). | Jadval asosida xotira tiplarini sxemalashtirib, xotirada saqlash mashqlarini amalga oshirishadi. |
| | 2.4. Mavzuga oid diqqat va sezgirlikni oshiruvchi rasmli metodikalar (12-13-ilova). | Rasmli metodikalarni bajarishib, o'z diqqat va xotiralarini mustahkamlashadi. |
| | 2.5. Xotira mavzusiga oid krossvord va test topshiriqlari ishlanadi. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (14-15-ilova). | Psixologik trening o'tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| 3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa) | 3.1. Mashg'ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg'ulotdagi ishtiroki bo'yicha natijalarini e'lon qiladi. | O'z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun 4-darajali Mnemonika mashqlari. Superxotiraga ega bo'lish vaqti keldi! "Mind Games" nomli qisqa metrajli videorolikni tomosha qilib fikr mulohaza bildirish. | Talabalar mustaqil ta'lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |



*1-ilova*

**Mavzu: Diqqat va xotira – psixik jarayon sifatida**

**Reja:**

1. Diqqat haqida tushuncha Diqqatning nerv-fiziologik asoslari.
2. Diqqat turlari, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriydan so'nggi diqqat.
3. Diqqatning xususiyatlari, diqqat kuchi va bo'linishi, diqqat ko'lami, diqqat taqsimlanishi, shaxsda diqqat rivojlanishi.
4. Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi.
5. Xotira nazariyalari.

*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**Diqqat va xotira – psixik jarayon sifatida mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Diqqat deb nimaga aytiladi?
2. Diqqatning qanday turlari mavjud?
3. Irodaviy diqqatga ta'rif bering?
4. Ichki va tashqi diqqat tavsifi?
5. Ixtiyoriydan songgi diqqat mazmuni?
6. Diqqat xususiyatlarini sanab bering?
7. Diqqatning kuchi va bo'linish xususiyati mazmuni?
8. Diqqatning nerv-fiziologik asosi?
9. Diqqat ko'lami qanday asbob yordamida o'lchanadi?
10. Xotira deb nimaga aytiladi?
11. Xotiraning nerv-fiziologik asosi nimna?
12. Assotsiatsiya turlari?
13. Yondashlik assotsiatsiyasi mazmuni?
14. Xotiraning qanday nazariyalari mavjud?

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – "Ma'rifat" guruhi.
2-guruh – "Ziyo" guruhi.
3-guruh – "Taraqqiy" guruhi.

*5-ilova*

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

## Quyidagi berilgan diqqat turlari va diqqat xususiyatlarini ajratib, "Konseptual jadval" metodi asosida joylashtiring:

*1)ixtiyoriy diqqat; 2) diqqatning barqaror bo'lishi; 3) ixtiyoriydan keyingi diqqat; 4) diqqatning bo'linishi; 5)ko'chuvchan diqqat; 6) ixtiyoriydan keyingi diqqat; 7) diqqatning ko'lami; 8) diqqatning kuchi; 9) ixtiyorsiz diqqat.*

| Diqqat | Javob raqamlar |
|---|---|
| Diqqat turlari | |
| Diqqat xususiyatlari | |



## Diqqat mavzusi yuzasidan anagramma

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| D | I | Q | Q | A | T | D | R | E | F | L | O |
| I | X | T | I | Y | O | R | I | S | K | E | R |
| D | N | I | I | Q | Z | I | Y | I | X | T | I |
| I | V | I | D | U | A | S | R | O | Y | I | E |
| X | U | S | U | S | L | Q | B | A | R | Q | N |
| T | T | A | Y | I | S | K | R | O | R | A | T |
| A | X | I | S | T | O | O | P | A | K | B | A |
| K | O' | CH | U | V | CH | A | U | L | I | O' | T |
| S | E | N | S | O | R | SH | I | N | I | L | S |
| T | M | O | T | O | R | X | O | T | I | R | I |
| P | A | R | I | SH | O | N | A | K | I | L | Y |
| D | O | M | I | N | A | N | T | T | U | SH | A |

1. Diqqat
2. Refleks
3. Ixtiyoriy
4. Ixtiyorsiz
5. Individual
6. Xususiyat
7. Barqaror
8. Taxistoskop
9. Ko'chuvchanlik
10. Bo'linish
11. Sensor
12. Motor
13. Orientirovka
14. Dominanta
15. Tush
16. Parishonxotirlik





## "Klaster" metodi asosida diqqat mavzusi bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish






## Diqqat mavzusiga oid krossvord




### Krossvord savollari

*Eniga*

2. Odamning diqqati har doim bir yoki ikkinchi bir narsaga bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga ko'chirilib turilishi diqqaning qaysi xususiyati hisoblanadi?
4. Ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektiv qaratish.
5. Oldindan belgilangan qonuniy biror maqsad asosida va ongli ravishda diqqatmizni ma'lumbir narsa va hodisaga qaratish bu - ________ diqqat.
6. Diqqatning ko'lamini o'lchovchi maxsus asbob nomi.
7. Diqqatning salbiy jihatlaridan biri

*Bo'yiga*

1. Odam o'zining diqqatini biron narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida mutassil qaratib turishi.
3. To'satdan ta'sir qilgan biror sabab tufayli bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigandiqqat turi.

*10-ilova*

## Esda olib qolish va unutish tiplariga ko'ra xotiraning quyidagi tiplarini ketma-ketligini ifodalagan holda tegishli raqamlarni kataklarga yozing.

1) Sekin esda qoldirib tez unutish;
2) Tez esda qoldirib tez unutish;
3) Sekin esda qoldirib sekin unutish;
4) Tez esda qoldirib sekin unitish;



*11-ilova*

## G'AROYIB HAYVONOT BOG'I

Oldingizda ba'zilari yoqimtoy, ba'zilar esa buning aksi bo'lgan bir nechta tirik jonzotlar turibdi. Sizda ularni eslab qolish uchun bir daqiqa bor. Daqiqa o'tgach bu rasmni olib qo'yamiz va barcha jonivorlarning nomini alfavit tartibida yozib chiqing. Qani vaqt ketdi...



*12-ilova*

## YASHIL YUBKA, TASMALI SOCH O'RIMI




Yashil yubka, tasmali soch o'rimi. Tanishing, bu Mariya, Bibiana, Mersedes va Xuana. To'g'ri, biz uchun bir oz noodatiy ismlar, ammo zarari yo'q. Bu to'rt qizchaning kiyimlari, buyumlari va ismlarini 90 soniya davomida eslab qoling. So'ngra eski sxema bo'yicha ish tuting: suratni yuqoriga varaqlab, pastdagi savollarga javob bering.



1. Kimning sochida yashil tasma bor: Mariyadami yoki Bibianada?
2. Yashil etik kiygan qizning ismi nima?
3. Qizlarning qaysi birida zulf va xolli kostyum bor?
4. Qizlarning qaysi birida mushukcha bor: Xuanadami yoki Bibianada?

*13-ilova*

## DEYARLI SHO'RO GILAMI

Quyida keltirilgan suratga qarang. Kvadratlarga qancha kerak bo'lsa, shuncha vaqt qarang. Barchasini eslab qolganingizga ishonch hosil qilganingizdan so'ng, suratni yoping va pastdagi savollarga javob bering.

- Suratda uchta yaproqli nechta gul tasvirlangan?
- Suratda nechta qora gul tasvirlangan?
- Suratda faqat beshta yaproqqa ega, ammo boshqa hech qanday qo'shimcha - elementi bo'lmagan gullar nechta?



*14-ilova*

## Xotira mavzusiga oid krossvord



## Krossvord savollari:

### *Eniga*

**3.** Tasavvurlar va turmush manzaralarni, shuning bilan birga tovushlar ta'mlar, ranglar, shakllar, bilan bog'liq bo'lgan xotira turi.

**5.** Inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol tezkor harakatlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi mnemik holat ____________ xotira deb ataladi.

**6.** Bu xotira his tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganidan xabar berib turish qobiliyatiga ega.

**7.** Ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun muayyan davrlarda aqliy harakatlarga suyangan holatda amalga oshirishdan iborat xotira jarayoni.

### *Bo'yiga*

**1.** Biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayoni.

**2.** Turli harakatlar va ularning bajarilishi tartibi, tezligi, sur'ati izchiligi va boshqalarni esda qoldirish mustahkamlash esga tushirishdan iborat xotira turi.

**4.** Mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etuvchi xotira turi.

*15-ilova*

## Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. Sankt-Peterburg yaqinidagi Pavlova shahridagi Fiziologiya instituti oldi tomoniga "Kuzatuvchanlik, kuzatuvchanlik va yana kuzatuvchanlik" deb yozdirib qo'ygan olim kim?**

a) A.I.Oparin	c) A.A.Uxtomskiy
d) I.M.Sechenov	d) I.P.Pavlov

**2. Diqqatning aktivligiga qarab nechi turga bo'lib o'rganamiz?**

a) 3 ta	b) 4 ta	c) 6 ta	d) 7 ta

**3. Operativ xotira deb?**

a) Qisqa mudatli xotira	c) Ixtiyoriy xotira
b) Tezkor xotira	d) Ixtiyorsiz xotira

**4. Bola dastavval bog'chaga kelgan paytida bog'cha direktorining, tashqi ko'rinishi, ovozi va munosabatlarini onasiga o'xshatishi mumkun. Bu qaysi assotsiatsiyaga misol bo'ladi?**

a) Yondoshlik	c) Qarama-qarshilik
b) O'xshashlik	d) Qiyoslash



**5. Qaysi qatorda xotira tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?**

a) Kundalik bilimlarni esda olib qolishga
b) Miyadagi muvafaqqiyatli bog'lanishlar
c) Miyada iz qolishi
d) Ilgari idrok qilingan boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni esga tushurishdan iborat jarayon

**6. Yoz-qish, issiq-sovuq kabi narsalar o'rtasida qaysi assotsiatsiya turi hosil bo'ladi?**

a) Yondoshlik	c) Qarama-qarshilik
b) O'xshashlik	d) Qiyoslash

**7. Qaysi qatorda xotira jarayonlari ko'rsatilgan?**

a) Esda saqlash	c) Esga tushurish
b) Unutish	d) Barcha javoblar to'g'ri

**8. Faoliyat maqsadiga ko'ra xotira qanday turlarga bo'linadi?**

a) Harakat va obrazli	b) Ixtiyoriy va so'z-mantiq
c) Qisqa va uzoq mudatli	d) Ixtiyoriy va ixtiyorsiz

**9. Assotsiatsiyalar necha turga ajratiladi?**

a) 2 ta: ketma-ketlik va o'xshashlik
b) 3 ta: ixtiyoriy, ixtiyorsiz va tasodifiy
c) 3 ta: yondoshlik, o'xshashlik va qarama-qarshilik
c) 2 ta: fazoviy va vaqt

**10. Diqqat ko'lami to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?**

a) Ixtiyoriy, ixtiyorsiz va ixtiyoriydan so'ngi diqqat
b) Barqaror va beqaror
c) Muvofiqlashgan va ixtiyoriydan so'ngi diqqat
d) Keng va tor

**11. Xotira jarayoniga berilgan to'g'ri ta'rif?**

a) O'tmishda bo'lib o'tgan barcha narsa va xodisalarni esga olib qolish, esga saqlash va esga tushirishdan iborat bo'lgan psixik jarayonga xotira deyiladi.
b) Unutilgan barcha xodisalar xotira deyiladi.
c) Esga olib qolgan narsa va xodisalarni esga olib qolish xotira deyiladi.
d) Esga olish va qayta esga tushirish tasavvuriga xotira deyiladi.

**12. Xotiraning yo'qolishi bu - ...?**

a) Abulya	c) Abstraktsiya
b) Amneziya	d) Anomaliya

## "Avtobusda" treningi

Treningdan maqsad talabalarda muomala madaniyatini shakllantirish, shaxslararo munosabatlarni ijobiy rivojlantirish.

Ishtirokchilardan biri avtobusdagi bezori rolini o'ynaydi, qolganlar esa yo'lovchilar. Bezori avtobusdagi ikkita o'rindiqni egallab olib, biriga o'zi o'tirib, biriga magnitofonini qo'ygan. U hech kimga joy bermoqchi emas. Yo'lovchilardan biri bezori bilan til topishib, uning yoniga o'tirishga harakat qilib ko'rish kerak. Shart shuki – maqsadga janjalsiz erishish lozim.

### Mustaqil ta'lim topshirig'i

**4-darajali Mnemonika mashqlari. Superxotiraga ega bo'lish vaqti keldi!**

**"Mind Games" nomli qisqa metrajli videorolik**



## 5-SEMINAR MASHG'ULOTI.
## MAVZU: TAFAKKUR VA NUTQNING PSIXOLOGIK TAVSIFI.

**"Tafakkur va nutqning psixologik tavsifi" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik modeli**

| **Seminarga ajratilgan vaqt – 2 s.** | **Talabalar soni – 25-30 nafar** |
|---|---|
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | O'rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Tafakkur haqida tushuncha.<br>2. Tafakkur va hissiy bilish, tafakkur shakl-<br>3. Tafakkur operatsiyalari,<br>lari, turlari.<br>4. Muloqot haqida tushuncha<br>5. Muloqotning kommunikativ tomoni<br>6. Muloqot – kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir etish |
| **Mashg'ulotning maqsadi** | Talabalarning tafakkur va nutqning psixologik tavsifi bo'yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Tafakkur jarayonini o'rganish;<br>2) Tafakkur va hissiy bilish mazmunini tahlil etish;<br>3) Muloqotning kommunikativ tomoni o'rganish va tahlil etish;<br>4) Muloqot kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir etish jarayonlarini o'rganish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1 Tafakkur jarayoniga doir bilimlar o'zlashtiriladi;<br>2) Tafakkur va hissiy bilish mazmuni tahlil qilinadi;<br>3) Muloqotning kommunikativ tomoni o'rganilib, tahlil etiladi;<br>4) Muloqot va kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir etish jarayonlari o'zlashtiriladi. |
| **Ta'lim metod va usullari** | Blits-so'rov, "Muqobillini tanlash" metodi, test, krossvord, anagramma, juftlash, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |

**"Tafakkur va nutqning psixologik tavsifi" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg'uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O'qituvchi mavzu bo'yicha blits-so'rov o'tkazib, talabalarni mashg'ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo'linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg'ulotning asosiy bosqichiga o'tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berishlari uchun "Muqobilini tanlash" metodi qo'llaniladi (5-ilova). | A4 oq qog'ozlarni tushunchalar bilan to'ldirib, mazmunini izohlashadi. |
| | 2.2. Mavzuga oid topshiriqlarni bajarishda krossvord, jadvallar bilan ishlanadi, bunda topshiriqni bajarish tartibi tanishtiriladi (6-7-ilova). | Mavzuga oid jadvallar asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. Muqobilini tanlash, jadvallardan foydalanib, mavzuga oid ma'lumotlarni mazmuniga oid topshiriqlarni tushuntiradi (8-9-ilova). | Guruhlar tezkorlik bilan juftlashni amalga oshirishadi. |
| | 2.4. Mavzuga oid anagramma, test, rasmli topshiriq beriladi (10-11-12-ilova). | Anagramma, va testlarni bajarishadi. |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (13-ilova). | Psixologik trening o'tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg'ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg'ulotdagi ishtiroki bo'yicha natijalar e'lon qilinadi. | O'z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun Muhamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. muallifligidagi "Umumiy psixologiya" darsligidan 50-75-betlarni o'qib kelish. "Mind and brain" nomli qisqa metrajli videorolikni tomosha qilib, mulohaza yuritish. | Talabalar mustaqil ta'lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |



*1-ilova*

**Mavzu: Tafakkur va nutqning psixologik tavsifi**

**Reja:**

1. Tafakkur haqida tushuncha.
2. Tafakkur va hissiy bilish.
3. Tafakkur operatsiyalari, tafakkur shakllari, turlari.
4. Muloqot haqida tushuncha
5. Muloqotning kommunikativ tomoni
6. Muloqot kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir etish

**Adabiyotlar:**

1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so'z, 2018.
2. Luriya A.R. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. – T.: O'z.FMJ., 2008.
4. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. – T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F.I., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – T.: 2009.
6. ziyo.uz – ta'lim portali.

*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**Tafakkur va nutqning psixologik tavsifiga doir blits-so'rov savollari**

1. Tafakkur deb nimaga aytiladi?
2. Tafakkurning qanday turlari mavjud?
3. Tafakkur sifatlari va ularning mazmuni.
4. Tafakkur jarayonlariga ta'rif bering.
5. Tafakkur nazariyalarini bilasizmi?
6. E.G'.G'oziyev bo'yicha tafakkur ta'rifini ayting.

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – "Bilimdonlar" guruhi.
2-guruh – "Ziyo" guruhi.
3-guruh – "Ilm sarchashmasi" guruhi.

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari**

1. Sheringingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*5-ilova*

**Tafakkur mavzusiga oid asosiy terminlarni aniqlashda "Muqobilini tanlash testi"**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | **Analiz** | A | narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishi |
| 2 | **Tafakkur** | B | shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan xususiyatlarini tahlil qilamiz |
| 3 | **Klassifikatsiyalash** | G | tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning, o'xshash muhim belgilarning shu narsalar to'g'risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirilishi |
| 4 | **Sintez** | D | hodisalarni ichki bog'lanish va munosabatlardan qat'iy nazar bir tomonlama ta'kidlashdan iborat fikr yuritish operatsiyasi |
| 5 | **Konkretlashtirish** | E | bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab narsalarni turkumlarga ajratish tizimi |
| 6 | **Kommunikatsiya** | F | shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya vositasi bilan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi |
| 7 | **Umumlashtirish** | J | shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, narsa va hodisalarning analizda bo'lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran va amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltirish |

| **Javobi** | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | |

*6-ilova*

**Tafakkur sifatlarini ko'rsating**

| № | Variantlar | Belgi uchun joy |
|---|---|---|
| 1 | Ko'rgazmali-harakat tafakkur | |
| 2 | Tafakkur mazmundorligi | |
| 3 | Tafakkurning chuqurligi | |
| 4 | Ko'rgazmali-obrazli tafakkur | |
| 5 | Tafakkurning kengligi | |
| 6 | Konkret tafakkur | |
| 7 | Obrazli tafakkur | |
| 8 | Hukm | |
| 9 | Tafakkurni mustaqilligi | |
| 10 | yaqqol-predmetli tafakkur | |
| 11 | Xulosa chiqarish | |
| 12 | Sermahsul tafakkur | |
| 13 | Tafakkur ixchamligi | |
| 14 | Tushuncha | |
| 15 | Abstrakt tafakkur | |
| 16 | Tafakkurning tezligi | |
| 17 | Nazariy tafakkur | |

*7-ilova*

**Taffakur mavzusi buyicha krossvord**



## Krossvord savollari

**Bo‘yiga:**

**1.** Bir turkum ichidagi narsalarning bir biriga o‘xshashligiga va boshqa turkumidagi narsalardan farq qilishga qarab narsalarni turkumlashtirilgan tizimi.

**Eniga:**

**2.** Shunday bir tafakur operatsiyasidirki, uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan xususiyatlarini tahlil qilamiz.

**3.** Shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, biz narsa va hodisalarning analizda bo‘lgan ajratilgan ayrim qisimlarni, bo‘laklarini u yordamida fikran va amaliy ravishda birlashtirib butun holiga keltiramiz.

**4.** Narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishi.

**5.** Shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo‘lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlaymiz.

**6.** Taffakurning nimasi qo‘yilgan savolga va muomoga to‘liq javob olingan vaqti bilan belgilanadi?

**7.** Barcha metallar elektr tokini o‘tkazadi, temir elektr tokini o‘tkazadi. Bu qaysi xulosa chiqarish turiga kiradi?

**8.** Biz ikki predmetning ba’zi bir belgilarni o‘xshashligiga qarab bu predmetning boshqa belgilarning o‘xshashligi to‘g‘risida xulosa chiqaramiz. Bu qaysi xulosa chiqarish turiga kiradi?

**9.** Shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya vositasi bilan obektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir biriga o‘xshashligi va bir biridan farq aniqlanadi.

**10.** Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr.

*8-ilova*

**Berilgan izohlarga mos raqamlarni jadvalning “raqamlar” qismiga yozing**

| № | Tushunchalar | № | Tushunchalar | Tafakkur | Raqamlar |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | sintez | 6 | abstraksiyalash | Tafakkur operatsiyalari | |
| 2 | Induktiv | 7 | umumlashtirish | | |
| 3 | taqqoslash | 8 | Analiz | Tafakkurning mantiqiy shakllari | |
| 4 | hukm | 9 | Xulosa | | |
| 5 | tushuncha | 10 | Deduktiv | | |



*9-ilova*

**Muloqot mavzusiga oid asosiy terminlarni aniqlashda “Muqobilini tanlash testi”**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | **Jestlar** | A | insonning qo‘l harakatlari bo‘lib, u orqali insonning ichki holati, biror bir obyektga munosabati va tashqi olamga yo‘nalganligi ifodalanadi. |
| 2 | **Mimika** | B | inson yuz harakatlarining bir qismi bo‘lib, u orqali insonning o‘ylari, xatti-harakatlari, tasavvurlari, xotirlashi, taajjubi va hokazolarda namoyon bo‘ladi. |
| 3 | **Pantomimika** | G | inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir. |
| 4 | **Dialog** | D | ikki yoki undan ortiq odamlarning o‘zaro bir-biriga ta’sir etishi. |
| 5 | **Monolog** | E | tirik va o‘lik tabiatdagi tizimlar o‘rtasida axborot almashinuvi. |
| 6 | **Kommunikatsiya** | F | bir kishining o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi. |
| 7 | **Muloqot** | J | Ikki yoki undan ortiq kishilar o‘rtasidagi nutq. |

| **Javobi** | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | |

*10-ilova*

**Quyida berilgan geometrik shakllarni uchta guruhning har biriga bittadan berilib, guruh ishtirokchilari qo‘l uzmasdan, ikkinchi chiziqni ustidan yurmasdan shu tasvirlarni hosil qilishlari kerak bo‘ladi.**







*11-ilova*

## Mavzusi yuzasidan anagramma



| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| V | S | E | Q | S | D | G | P | W | G | I | J | Y | S | O | X | F | J | Z | A | R | D | T | S | V |
| Y | B | D | T | R | V | I | A | J | N | W | V | G | H | I | S | R | M | B | Z | H | G | R | J | X |
| Z | G | P | H | K | U | X | N | M | W | Y | M | H | S | W | K | R | T | Z | Y | U | N | L | L | Q |
| Z | M | X | R | O | W | M | T | U | R | B | U | U | X | J | V | N | X | Y | G | S | T | B | G | N |
| J | Y | C | V | M | W | O | O | L | I | Q | J | C | Y | R | N | H | N | I | F | Z | T | U | U | Y |
| E | Z | N | A | M | U | N | M | O | V | A | A | A | D | K | U | N | G | R | J | M | E | X | B | F |
| S | W | U | O | U | Z | O | I | O | P | V | O | K | C | I | T | Y | B | C | B | V | O | W | B | D |
| T | Y | N | A | N | P | L | M | O | Y | W | B | A | V | Y | O | O | V | D | D | M | U | P | A | U |
| V | G | U | H | I | T | O | K | T | N | L | C | K | H | E | H | L | N | M | U | Q | E | B | T | N |
| R | S | Z | D | K | V | G | A | Z | Y | V | Y | P | I | A | H | T | O | U | A | W | D | T | X | U |
| A | I | R | F | A | S | E | V | F | J | A | Q | H | W | R | R | T | E | G | X | A | V | P | K | T |
| N | Q | Z | R | T | I | R | R | B | B | C | T | K | G | M | H | Z | O | W | M | R | A | E | L | Q |
| L | N | M | D | S | P | R | T | B | T | T | D | U | C | J | Y | J | S | T | O | O | D | J | Y | C |
| C | N | I | V | I | E | W | C | U | A | F | F | U | H | W | M | I | A | Z | Q | A | W | M | D | I |
| R | Y | M | C | Y | H | U | X | H | J | L | A | N | O | V | E | R | B | A | L | D | D | A | N | Z |
| E | A | J | R | A | Y | P | U | W | E | L | C | L | Y | O | S | Z | M | I | M | I | K | A | G | I |
| E | D | U | A | D | I | G | Y | N | M | Y | R | N | O | A | O | M | L | O | R | S | E | H | T | X |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| mimika | pantomimka | jest | nutq | muloqot |
| kommunikatsiya | diolog | monolog | verbal | noverbal |

*12-ilova*

Muloqot mavzusiga doir keltirilgan olimlarning fikrlarini rasmlar asosida birlashtiring.

| T/r | Fotosuratlar | | Olimlar bildirilgan fikrlari |
|---|---|---|---|
| 1 |  *Antuan Sent Ekzyuperi* | A | *«Boshqa odamni bila turib, o'rganayotgan individning o'zi ham shakllanadi»* |
| 2 |  *Sa'diy Sheroziy* | B | *«Biz insonni tashqi xulq-atvoriga qarab uni o'qiymiz»* |
| 3 |  *Publitsiy* | C | *«Muloqot – shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi»* |
| 4 |  *L.S.Vigotskiy* | D | *«Ovoz bilan gapiramiz, tana bilan suhbatlashamiz»* |
| 5 |  *S.L.Rubinshteyn* | E | *«Aqllimisan yoki ahmoq, kattamisan yoki kichik, buni bir so'z aytmaguncha bila olmaymiz»* |



| **Javoblar:** | 1- | 2- | 3- | 4- | 5- |
|---|---|---|---|---|---|

### Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. Professor E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligidagi klassifikatsiyasi bo'yicha shakliga ko'ra tafakkur qanday turlarga ajratiladi?**

A) Ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli
B) Amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz
C) Konkret, abstrakt, realistik, autistik, intutiv, dikrusiv
D) Ko'rgazmali obrazli, ko'rgazmali harakat, so'z-mantiq

**2. Tafakkurning ______________ moddiy dunyodagi narsa hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, sharoitlari, ularning o'zaro bog'lanishlari munosabatlarini tafakkurimizda to'liq aks etishimiz.**

A) Mazmunndorligi
B) Mustahkamligi
C) Chuqurligi
D) Kengligi

**3. Fikrning orginalik darajasiga ko'ra, taffakur turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?**

A) Ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli
B) Amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz
C) Konkret, abstrakt, realistik, autistik, intutiv, dikrusiv
D) Reproduktiv, produktiv, viziual, fazoviy

**4. Fikr yoyiqligiga ko‘ra, tafakkur turlari qaysi qatorda ko‘rsatilgan?**
A) Ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli
B) Amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz
C) Konkret, abstrakt, realistik, autistik, intutiv, dikrusiv
D) Reproduktiv, produktiv, viziual, fazoviy

**5. ........shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy va xususiyatlarini tahlil qilamiz.**
A) Analiz
B) Sintez
C) Taqqoslash
D) Klassifikatsiya

**6. ... shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, biz narsa va hodisalarning analizda bo‘lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo‘laklarini sintez yordami bilan fikran va amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltiramiz.**
A) Analiz
B) Sintez
C) Taqqoslash
D) Klassifikatsiya

**7. ........ shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya vositasi bilan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o‘xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi.**
A) Analiz
B) Sintez
C) Taqqoslash
D) Klassifikatsiya

**8. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr nima deb ataladi?**
A) Hukm
B) Xulosa
C) Tushunchalar
D) Tafakkur turlari

**9. Qaysi qatorda hukm turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**
A) Ju’ziy, taxminiy, shartli, tasdiqlovchi
B) Yakka, konkret, umimiy, abstrakt, xususiy, to‘planma
C) Induktiv, deduktiv, analogik
D) Induktiv, yakka, xususiy

**10. Qaysi qatorda xulosa chiqarish turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**
A) Ju’ziy, taxminiy, shartli, tasdiqlovchi
B) Yakka, konkret, umimiy, abstrakt, xususiy, to‘planma
C) Induktiv, deduktiv, analogik
D) Induktiv, yakka, xususiy





**“Buzuq telefon” treningi.**

**Maqsad:** ***Ma’lumot uzatishdagi buzilishlarni anglash. Ma’lumotni anglangan holda idrok qilish va faol tinglash uslubini o‘zlashtirish.***

**Yo‘riqnoma:** Ushbu mashqimizda 6 kishi ishtirok etishi kerak. Bunda 5 kishi xonadan tashqarida poylab turishadi, 1 kishi eas xonada qoladi. Men xonada qolgan odamga og‘zaki topshiriq aytaman. Bu odam iloji boricha hamma topshiriqni eslab qoladi va ikkinchi (xonadan tashqarida turganlardan biriga) odamga aytadi. Ikkinchi odam uchinchisiga, uchunchisi to‘rtinchisiga va h.k. Biz esa ma’lumotlar qanday uzatilishini kuzatib turamiz. Keyin esa xuddi shu jarayonni muhokama qilamiz.

5 ta ishtirokchi xonadan chiqqanidan keyin boshlovchi qolgan 1 ta kishiga quyidagicha topshiriq aytadi: “Siz maktab direktorining muovinisiz. Direktorimiz Sobir Komilovich Sizni ancha poyladilar. Lekin kelmaganingizdan so‘ng sizga men orqali topshiriq aytib ketdilar. Aytdilarki, u kishi hozir bizga Yaponiya aparaturasini olish uchun xujjatlarni rasmiylashtirishga ketdilar, u yerdan chiqib rayon kengaytilrilgan yig‘ilishga borar ekanlar. Agar ular soat 12 ga kelmasalar o‘qituvchilar majlisini o‘zingiz o‘tkazar ekansiz, bu majlisda 8 “B” sinfning davomatini ko‘rib chiqish kerak. Keyin soat 15.00 da maktabimizga Polshadan kelayotgan mehmonlarni kutib olish uchun aeroportga 1 ta “Neksiya” bilan 1 ta “Damas” avtomashinasini chiqarish kerak ekan. Hamma o‘qituvchilarga 2 kilodan go‘sht tarqatib direktorning ulushini xolodilnikka solib qo‘ysangiz o‘zlari kelib olib ketar ekanlar”. Shundan so‘ng ma’lumotlar birin-ketin kirib kelayotgan ishtirokchilarga uzatila boshlaydi. Shundan so‘ng ma’lumotning buzilishi kuzatiladi. Mashqda ishtirok etgan

Mashq so‘ngida odatda ma’lumotning mazmunini bila oladilar. Shundan so‘ng ishtirokchilar video yordamida ma’lumot birinchi manbadan olish zaruriyati aytib o‘tiladi. Ishtirokchilarga har qanday ma’lumotni birinchi kishidan ikkinchi kishiga o‘tishi natijasida u qanchalik o‘zgarib ketishi Ma’lumotlarning bir kishidan mish-mish gaplarga asos bo‘lishi aytib o‘tiladi. Ma’lumot uzatishdagi paydo bo‘ladigan mish-mish maqsadida faol tinglashni o‘rganish mashqi taklif etiladi. Bu mashq holatlarni bartaraf etish hamma ishtirokchilar 3 kishilik guruhlarga bo‘linadilar. Bu guruhdagi yo‘riqnomasiga ko‘ra holda ishtirok etadi: gapiruvchi, tinglovchi va nazoratchi. uch ishtirokchi uch xil

Gapiruvchi hayotdagi biron-bir voqeani aytib beradi va tinglovchi bu voqeani iloji boricha esiga olib qolib, qaytadan takrorlab aytib berishi kerak. Nazoratchining vazifasi yo‘l qo‘yilgan xatolarni aytishdan iborat. Guruhdagi har bir ishtirokchi uchchala roldan birortasiga ishtirok etishi shart. Ushbu mashqni bajarish orqali ishtirokchilar verbalizasiya ya’ni faol tinglash metodini o‘zlashtiradilar.

Muhamedova D.G‘., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so‘z, 2018. 287-bet

“Mind and brain” nomli qisqa metrajli videorolik

## 6-SEMINAR MASHG‘ULOTI.
### MAVZU: MOTIV VA MOTIVATSIYA. HISSIYOTNING NAMOYON BO‘LISHI.

**“Motiv va motivatsiya. Hissiyotning namoyon bo‘lishi” mavzusidagi seminar mashg‘ulotining texnologik modeli**

| **Seminarga ajratilgan vaqt** – 2 s. | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
|---|---|
| **O‘quv mashg‘ulotining shakli** | O‘rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg‘ulot rejasi** | 1. Hissiyot haqida tushuncha.<br>2. Hissiyotning nerv-fiziologik asoslari.<br>3. Inson va hayvonlardagi emotsiyalar.<br>4. Hislarni kechirish shakllari.<br>5. Motiv va motivatsiya. Motivlar turlari.<br>6. Motivatsiya nazariyalari.<br>7. Motivatsion sohani tekshirish metodlari. |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | Talabalarning hissiyot, hissiy kechinmalar emotsiyalar motiv va motivatsiya buyicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Hissiyotning mazmun-mohiyati, uning nerv-fiziologik asoslarini o‘rganish;<br>2) Inson va hayvonlardagi emotsiyalar, hislarni kechirish shakllari mazmunini tahlil etish;<br>3) Motiv, motivatsiya, motivlar turlarini o‘rganish va tahlil etish;<br>4) Motivatsiya nazariyalari, motivatsion sohani tekshirish metodlarini o‘rganish. | **O‘quv faoliyati natijalari:**<br>1) Hissiyotning mazmun-mohiyati, uning nerv-fiziologik asoslariga doir bilimlarni o‘zlashtiradilar;<br>2) Inson va hayvonlardagi emotsiyalar, hislarni kechirish shakllari mazmunini tahlil etishning mazmuni va bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qiladilar;<br>3) Motiv, motivatsiya va motivlarning turlari o‘rganilib tahlil etiladi;<br>4) Motivatsiya nazariyalari va motivatsion sohani tekshirish metodlarini o‘rganib, o‘zlashtiradilar. |
| **Ta’lim metod va usullari** | Blits-so‘rov, “Tushunchalar tahlili” metodi, test, anagramma, juftlash, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta’limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O‘quv qo‘llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og‘zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |



**“Motiv va motivatsiya. Hissiyotning namoyon bo‘lishi” mavzusidagi seminar mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O‘qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg‘uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O‘quv mashg‘ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha blits-so‘rov o‘tkazib, talabalarni mashg‘ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo‘linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mavzu doirasida tuzilgan anagramma ishlanadi (5-ilova). | Tushunchalarni to‘ldirib, mazmunini izohlashadi. |
| | 2.2. “Tushunchalar tahlili” metodi asosida hissiyotga oid atamalar ma’nosini topish vazifasi beriladi (6-ilova). | Mavzuga oid jadval asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. Hissiyot klassifikatsiyalarining tarjimasini va insondagi hissiyotlar ro‘yxatini aniqlash talab etiladi (7-ilova). | Rasmlar asosida guruhlar tezkorlik bilan juftlashni amalga oshirishadi. |
| | 2.4. Mavzuga oid test topshirig‘i beriladi (8-ilova). | Testlarni bajarishadi. |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida “Hissiyotlar” psixologik trening tashkil etilib, mavzu mustahkamlab olinadi (9-10-ilova). | Psixologik trening o‘tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg‘ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg‘ulotdagi ishtiroki bo‘yicha natijalarini e’lon qiladi. | O‘z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun Muhammedova D.G‘., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I.-larning “Umumiy psixologiya” darsligini 115-120-betlarini o‘qib kelish.<br>“Never Give Up, Traditional Cheese Shop” nomli qisqa metrajli videorolikni tomosha qilib, mulohazalarni yuritish. | Talabalar mustaqil ta’lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |

*1-ilova*

**Mavzu: Motiv va motivatsiya. Hissiyotning namoyon bo'lishi.**

**Reja:**

1. Hissiyot haqida tushuncha.
2. Hissiyotning nerv-fiziologik asoslari.
3. Inson va hayvonlardagi emotsiyalar.
5. Hislarni kechirish shakllari.
6. Motiv va motivatsiya. Motivlarning turlari.
7. Motivatsiya nazariyalari.
8. Motivatsion sohani tekshirish metodlari.

**Adabiyotlar:**


1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so'z, 2018.
2. Luriya A.R. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. – T.: O'zFMJ., 2008.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 jild. – T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F.I., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – T.: 2009.
6. www.ziyo.uz – ta'lim portali.


*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**Umumiy psixologiya fani predmeti, ilmiy tadqiqot metodlari mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Hissiyotga ta'rif bering.
2. Emotsiya deb nimaga aytiladi?
3. Hissiyotning qanday shakllari bor?
4. Hissiy ton mazmunini yoriting.
5. Stenik va astenik hislar qanday ifodalanadi?
6. Stress nima va uning turlari?
7. Affekt so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.
8. Motivlarning turlarini sanab bering?
9. Motivatsion sohani tekshirish metodlari?

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – "Empatiya" guruhi.
2-guruh – "Stress" guruhi.
3-guruh – "Apatiya" guruhi.



**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari**

1. Sheringingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*5-ilova*




Ehtiyojlar
Ierarxiyalashtirilganlik

Anglangan
Maqsad

Qiziqish
Ehtiyojlar

*6-ilova*

**"Tushunchalar tahlili" metodi asosida hissiyotga oid atamalarning ma'nosini toping!**

| № | Atamalar | Izoh |
|---|---|---|
| 1 | AFFEKT | tushkunlik kayfiyati bo'lib, bu kishida intilishlarning susayishi, harakatlarning tormozlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan ruhiy holatdir |
| 2 | DEPRESSIYA | kuchli qo'zg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan jiddiylik holati |
| 3 | EHTIROS | odam yoki hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga javob reaksiyasi |

| | | |
|---|---|---|
| 4 | AMBIVALENTLIK | boshqa kishilarning emotsional holatlariga hamdardlik qilish jarayoni va boshqalarning qayg'u-hasratini tushuna bilish qobiliyati |
| 5 | STRESS | kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik xolat |
| 6 | KAYFIYAT | Biror bir emotsiyaning barqaror kechinishi |
| 7 | EMOTSIYA | kishining o'z yuksak ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik natijasida uning tevarak-atrofdagi olamga bo'lgan munosabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayoni |
| 8 | HISSIYOT | kishida irodaviy yo'nalishlar bilan xarakterlanadigan emotsiyalarning namoyon bo'lishi |
| 9 | EMPATIYA | kishining og'ir kechinmalar, yoki kasalliklardan toliqishi natijasida kelib chiqadigan, hamda uning tevarak-atrofdagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishlarsiz befarq qarashlarda ifodalanadigan psixik holat |
| 10 | APATIYA | kishining bir vaqtning o'zida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan emotsiya va tuyg'ularni (jumladan, quvonch - musibat, kulgi va qayg'u-hasrat) kechirishidan iborat psixik holati |

*7-ilova*

**Quyida keltirilgan hissiyot klassifikatsiyalarining tarjimasini aniqlang va sizda bu hissiyotlar qaysi holatlarda kuzatiladi?**


excited


angry




happy


proud


shy


grumpy


sad


surprised




*8-ilova*

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

**1. ..........bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi.**

a) Hissiyot b) Ehtiros
c) Kayfiyat d) Stress

**2. Shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir.**

a) Hissiyot b) Emotsiya
c) Kayfiyat d) Stress

**3. Lotincha "har tomonlama kuchga ega" ma'nosini anglatib, kishining bir obyektning o'ziga nisbatan bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan bir-biriga qarama-qarshi emotsional irodaviy holatdir.**

a) Ambivalentlik b) Impressiv
c) Ekspressiv d) Emotsiya



**4. Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining sustligi, motorli, kuchsizligi bilan tavsiflanadi. Bunday hissiy holat nima deb ataladi?**

a) Astenik b) Stenik
c) Ekspressiv d) Emotsiya

**5. ..... - inson organizmini haddan tashqari zo'riqish natijasida paydo bo'ladigan tanglik jarayonidir.**

a) Hissiyot b) Emotsiya
c) Kayfiyat d) Stress

**6. ...... to'satdan tez paydo bo'lib, tez orada o'tib ketadigan nihoyatda kuchli hissiy holat sifatida e'tirof etiladi.**

a) Hissiyot b) Affekt
c) Kayfiyat d) Stress

**7. ........ shaxsning ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holatdir.**

a) Kayfiyat b) Affekt
c) Hissiyot d) Stress

**8. ...... stress - odamning ruhiy holatiga voqealarni ta'siri tufayli paydo bo'ladigan stress.**

a) Fiziologik b) Psixologik
c) Konstruktiv d) Destruktiv

**9. Yuzlab va minglab kechirilayotgan emotsiyalar, affektlar, kayfiyatlar-da aniq yashaydigan umumlashtirilgan hislar qanday hislar deyiladi?**

a) Axloqiy hislar b) Praksik hislar
c) Estetik hislar d) Yuksak hislar

**10. "Stress har doim ham zararli emas, ba'zan inson organizmiga yordam, ko'mak foyda berishi mumkin", - deb ta'kidlagan olim kim?**

a) Aleksandr Naumovich Luk
b) Uilyam Djeyms va Karl Lange
c) Uolter Bredford Kennon va Filipp Bard
d) Gans Xugo Bruno Selye

*9-ilova*

**"Hissiyotlar ro'yxati" treningi.**

**Mashg'ulot tavsiya etiladigan holatlar:** guruhiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lib, emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarda (agressivlik, bezovtalik), xarakter aksentuatsiyasini psixokorreksiya qilishda.

Mashg'ulot ishtirokchilariga quyidagi emotsiya va hissiyotlar ro'yxati beriladi. Bunda har bir emotsiya yoki hissiyotning insonga salbiy va ijobiy ta'sir natijasi

muhokama qilinib ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng umumiy xulosaga asosan salbiy deb topilgan emotsiya va hissiyotlar ro'yxati to'ziladi. Bu ro'yxat ishtirokchilarga tarqatma material tarzida berilishi ham mumkin, bunda ular shunchaki har bir so'z to'g'risiga + yoki - belgisini qo'yish orqali uning ijobiy yoki salbiy ekanligini ajratishlari mumkin.

| Norozilik | Qo'rquv | E'tiborsizlik-loqaydlik | Qoniqish | Istak |
|---|---|---|---|---|
| **Qoniqmaslik** | Ko'rolmaslik-ichi qoralik | Taajublanish-hayron qolish | Rozilik | G'azab |
| **Kinoya-kesatiq** | Nafrat | Ikkilanish | Mamnuniyat | Shijoat |
| **Hafsalasizlik** | Tashvish | Quvonch | Hasad | Dangasalik |
| **Jirkanish** | G'am | Qiziqish | G'ayrat | Umidsizlik |
| **Havotir** | Achinish | Faxr | Ishq | Qahr |
| **Jahl** | Istirob | Charchoq | Afsuslanish | Rashk |
| **Alam** | Hafalik | Bezovtalik | Hamdardlik | Aybdorlik |
| **Hayajon** | Zo'riqish | Hijolat bo'lish | Tushkunlik | Tashvishlanish |

E'tiborga olish kerak bo'lgan jihatlar trener tomonidan o'smirlarga tushuntiriladi: Mazkur emosiya va hissiyotlar ro'yxatini davom ettirish mumkin, bularning har biri ham ijobiy ham salbiy yoki neytral xarakterga ega bo'lishi mumkin. Lekin mutlaq salbiy emosiya va hissiyotlarni ajratib olish kerak, chunki ularning sizga va atrofingizdagilarga salbiy ta'siri mavjud. Ishtirokchilar salbiy emosiya va hissiyotlarning ro'yxatini tuzib chiqqach, umumiy muhokama qilinadi, shundan so'ng trener salbiy emosiya va hissiyotlarning oqibatlarini o'smirlarga tushuntirib o'tadi. Bunda quyidagilarni trener sabab-oqibatlari bilan tushuntirib va ta'riflab aytib o'tishi mumkin. Bosh og'rig'i, ko'z quvvatining pasayishi, muntazam tushkunlik kayfiyati, tajovuzkorlik, salbiy insonga aylanib qolish, yurak va qon tomir hastaliklari, stress va qandli diabet, ijtimoiy munosabatlarning buzilishi oila, ish, o'qishdagi ziddiyatlar, yolg'izlanish ruhan yoki ijtimoiy jihatdan, kerakli vaziyatni boy berish, baxtsizlik hissi, muvaffaqiyatsizliklar…!

Shu o'rinda mashhur faylasuf Senekaning "vaziyatni qo'ldan chiqarishni istamasang, hissiyotlarni bo'ysundir va aqlni ishlat" deb aytgan ibratli hikmatini aytib o'tish ham mumkin. Ushbu oqibatlar trener tomonidan ishtirokchilarga yetkaziladi hamda ularning fikrlari ham tinglanadi. Va trener ishtirokchilardan salbiy emosiya va hissiyotlarning oqibatlari bo'yicha shaxsiy fikr va mulohazalarini eshitishi kerak hamda ularni ratsional va konstruktiv muhokama qilishi lozim.



**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Muhamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so'z, 2018. 287-bet

"Never Give Up, Traditional Cheese Shop" nomli qisqa metrajli videorolik.



## 7-SEMINAR MASHG'ULOTI.
## MAVZU: TEMPERAMENT – SHAXS TUZILMASI SIFATIDA.

### "Temperament – shaxs tuzilmasi sifatida" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik modeli

| **Seminarga ajratilgan vaqt** – 2 s. | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
|---|---|
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | O'rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Temperament haqida tushuncha. Temperament tiplari, klassik nazariyalari, xususiyatlari, temperamentni tarbiyalash haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish.<br>2. Individuallik xususiyatlari differensial psixologiyaning predmeti sifatida.<br>3. Inson shaxsi va individuallik xususiyatlari.<br>4. Individuallik xususiyatlari klassifikatsiyasi va ularning xulq-atvor regulyatsiyasidagi o'rni.<br>5. Temperamentning evolyutsion jarayonga moslashish imkoniyatlari. |
| **Mashg'ulotning maqsadi** | Talabalarning temperament tiplari, shaxsning individual xusuyatlari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Temperament mazmun-mohiyati, uning nerv-fiziologik asoslari, temperamentning klassik nazariyalari haqida o'rganish;<br>2) Inson shaxsi va individuallik xususiyatlari mazmunini tahlil etish;<br>3) Individuallik xususiyatlari klassifikatsiyasi va ularning shaxs xulq-atvori regulyatsiyasidagi o'rni o'rganish va tahlil etish;<br>4) Temperamentning evolyutsion jarayonga moslashish imkoniyatlarini o'rganish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1) Temperamentning mazmun-mohiyati, uning nerv-fiziologik asoslariga doir bilimlarni o'zlashtiradilar;<br>2) Inson shaxsi va individuallik xususiyatlari mazmunini tahlil qiladilar;<br>3) Individuallik xususiyatlari klassifikatsiyasi va ularning shaxs xulq-atvori regulyatsiyasi-dagi o'rni o'rganilib tahlil etiladi;<br>4) Temperamentning evolyutsion jarayonga moslashish imkoniyatlarini o'zlashtiradilar. |
| **Ta'lim metod va usullari** | Blits-so'rov, test, anagramma, rasmlar bilan ishlash, psixologik test metodi, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |



### "Temperament – shaxs tuzilmasi sifatida" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg'uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi, kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O'qituvchi mavzu bo'yicha blits-so'rov o'tkazib, talabalarni mashg'ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo'lini-shadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg'ulotning asosiy bosqichiga o'tish, Mavzu doirasida tuzilgan anagramma qo'llaniladi (5-ilova). | Belgilangan tushun-chalarni to'ldirib, mazmunini izohlashadi |
| | 2.2. Mavzuga oid topshiriqlarni bajarishda temperament tiplariga oid rasmlar bilan ishlanadi, bunda topshiriqni bajarish tartibi tanishtiriladi (6-ilova). | Mavzuga oid jadvallar asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. talbalar mavzuni yana ham mustahkamlash uchun psixologik test o'tkaziladi (7-ilova). | Savollarga javoblarini belgilab, o'zlarining tiplari haqida ma'lumot-ga ega bo'lishadi. |
| | 2.4. Test topshirig'i beriladi (8-ilova). | Testlarni bajarishadi. |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (10-ilova). | Psixologik trening o'tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg'ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg'ulotdagi ishtiroki bo'yicha natijalarini e'lon qiladi. | O'z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun Muhamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. mualliflgidagi "Umumiy psixologiya" darsligidan 238-245-betlarni o'qib kelish. "Snack Attack nomli qisqa metrajli videorolikni tomosha qilib, mulohazalarni yurutish. | Talabalar mustaqil ta'lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |

*1-ilova*

**Mavzu: Temperament – shaxs tuzilmasi sifatida.**

**Reja:**

1. Temperament haqida tushuncha. Temperament tiplari, klassik nazariyalari, xususiyatlari, temperamentni tarbiyalash haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish.
2. Individuallik xususiyatlari differensial psixologiyaning predmeti sifatida.
3. Inson shaxsi va individuallik xususiyatlari.
4. Individuallik xususiyatlari klassifikatsiyasi va ularning shaxs xulq-atvori regulyatsiyasidagi o'rni.
5. Temperamentning evolyutsion jarayonga moslashish imkoniyatlari.

**Adabiyotlar:**


1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so'z, 2018.
2. Luriya A.R. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. – T.: O'zFMJ., 2008.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 jild. – T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F.I., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – T.: 2009.
6. www.ziyo.uz – ta'lim portali.


*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

*(poliz ekinlarining nomi bilan guruhlar nomlanishi taklif etiladi)*

1-guruh – "Karam" guruhi.
2-guruh – "Qovoq" guruhi.
3-guruh – "Pamidor" guruhi.

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*4-ilova*

**Temperament – shaxs tuzulmasi sifatida mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Temperament haqida ma'lumot bering.
2. Temperament tiplari necha xil?
3. Temperamentning klassik nazariyalarini bilasizmi?
4. Temperament (oliy nevr faoliyati) tiplari xususida gapiring.
5. I.P.Pavlov nazariyasini yoriting.
6. Temperament haqida hozirgi zamon nazariyalarini izohlang.



*5-ilova*

**Diqqat mavzusi yuzasidan anagramma**



| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| C | U | Y | B | M | M | X | H | L | J | N | M | M | H | Y | Y | G | C | E | E | B | N | V | Z | Y |
| B | V | Z | Q | R | Y | H | F | B | L | Y | E | Q | D | B | E | V | I | K | M | B | V | F | S | T |
| X | A | I | O | L | C | T | W | A | N | H | B | E | F | Z | U | Z | P | S | F | G | A | E | M | P |
| A | U | T | T | W | O | W | H | X | N | L | F | M | L | G | Z | A | R | T | H | D | U | H | U | Q |
| Q | X | O | V | D | I | A | X | R | E | O | R | D | E | T | J | G | I | R | M | P | S | P | V | A |
| B | X | Z | Z | X | F | Y | R | W | O | P | O | U | G | G | A | [illegible] | Z | A | U | G | Z | W | O | R |
| S | G | N | B | V | M | O | M | X | P | U | A | F | M | A | R | E | Y | V | V | N | E | G | Z | L |
| A | M | I | X | J | D | U | Q | L | V | C | K | U | A | E | R | G | C | E | B | R | T | J | A | K |
| U | I | J | M | P | Y | W | N | Q | T | Y | E | X | T | [illegible] | T | N | F | R | Z | D | O | D | N | U |
| J | V | A | W | R | X | P | O | B | X | D | X | K | I | Q | V | L | H | T | M | A | X | Q | A | C |
| P | J | H | M | E | L | A | N | X | O | L | I | K | K | S | R | N | X | F | W | E | H | J | T | H |
| R | L | H | A | J | G | Z | O | R | V | X | C | I | Y | K | S | Y | H | L | L | J | U | O | L | L |
| K | Z | Z | P | T | X | O | L | E | R | I | K | P | T | I | N | T | R | O | V | E | R | T | I | I |
| O | N | N | W | B | M | F | S | U | J | E | Q | A | B | B | I | O | Y | N | W | Z | K | V | A | E |
| D | L | R | I | G | I | D | U | K | D | B | B | X | H | S | W | F | K | X | N | S | Z | S | T | Q |
| S | T | R | A | V | M | Z | O | T | C | S | H | A | Y | W | G | C | O | I | Y | D | U | T | H | U |
| S | A | N | G | V | I | N | I | K | V | C | H | G | T | E | M | P | E | R | A | M | E | N | T | F |

temperament
xolerik
sangvenik
flegmatik
melonxolik

kuchli
muvozanatli
rigid
introvert
ekstravert

*6-ilova*

**Quyida keltirilgan rasmlarni qaysi temperament turiga mos kelishini topib, ularga ta'rif bering.**











*7-ilova*

## TEMPERAMENTNI ANIQLASH TESTI

Har bir inson tarbiya mahsuli bo‘lish bilan birgalikda, tabiat tomonidan ato etilgan tug‘ma biologik xususiyatlarga ham ega. Mazkur biologik xususiyatlar fan tilida temperament deb ataladi. Temperamentga xos sifatlar keyinchalik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo‘ladi. Ya’ni temperament – shaxs faoliyati va xulqining o‘zgaruvchan hamda emotsional-hissiy tomonlarini aks ettiruvchi individual xususiyatlar majmuidir. Dunyodagi insonlar temperamentiga ko‘ra 4 xil turga bo‘linadi.






Siz ulardan qay biriga mansubligingizni bilasizmi? Fe’l-atvoringizning eng nozik qirralarini-chi? U holda psixologiya sizga yordam beradi.

Berilgan to‘rt fikrdan birini tanlab, jadvaldagi o‘sha harfga (+), qolganlariga (-) qo‘yiladi. Hamma (10 ta) fikrlardan o‘zingizga taalluqlisini belgilaganingizdan so‘ng qaysi qatorda ko‘p (+) bo‘lsa, o‘sha sizning temperamentingiz hisoblanadi.

Savollar varaqasini o‘qishdan oldin o‘zingizga javoblar varaqasini chizib oling.

| T/r | A | B | V | G |
|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |
| 4 | | | | |
| 5 | | | | |
| 6 | | | | |
| 7 | | | | |
| 8 | | | | |
| 9 | | | | |
| 10 | | | | |
| **Jami (+)** | | | | |

### Savollar varaqasi:

| | |
|---|---|
| 1 | A – kayfiyatingiz tez-tez o‘zgarib turadi, xursandchilik tezda xafagarchilikka ham aylanishi mumkin, achchig‘ingizni chiqarish oson.<br>B – doimo xushchaqchaqsiz va shu kayfiyatingiz odamlarga o‘tib turadi.<br>V – hamisha kayfiyatingiz bir xil, achchig‘ingizni chiqarish qiyin.<br>G – mudom kayfiyatingiz yomon, sizni kuldirish qiyin. |
| 2 | A – chaqqon va harakatchansiz.<br>B – sekin va past ovozda gapirish yoqadi.<br>V – tez va shoshilib fikringizni bildirishni xohlaysiz.<br>G – sekin va baland ovozda kam harakat bilan gapirasiz. |
| 3 | A – agar ishingiz yurishmasa ham boshlagan yo‘lingizdan qaytmaysiz va boshqa yo‘lni izlaysiz.<br>B – ishingiz yurishmasa, tashlaysiz va boshqa yo‘lni izlaysiz.<br>V – ishingiz yurishmasa, xafa bo‘lasiz va tashlab yuborasiz.<br>G – ishingiz yurishmasa, u yodingizdan chiqadi va davom ettirasiz. |
| 4 | A – tez charchaysiz.<br>B – ko‘p va oxirigacha yetkazib ishlaysiz.<br>V – yutuq bo‘ladigan ishni yaxshi ko‘rasiz.<br>G – har qanday ishni bajarasiz, ko‘pincha faollik qilasiz. |

| | |
|---|---|
| 5 | A – tanbehni yoqtirmaysiz, bahslashasiz.<br>B – tanbehni jim tinglaysiz, lekin yana xato qilasiz.<br>V – tanbehni diqqat bilan tinglab, tuzatasiz.<br>G – tanbehni eshitib xafa bo‘lasiz, lekin bahslashmaysiz. |
| 6 | A – ishlashdan oldin reja tuzib, keyin ishni boshlaysiz.<br>B – agar ishda qiyinchilik bo‘lsa, tezda moslashasiz (shu ishga).<br>V – ishga tez kirishasiz, lekin keyin qiyin bo‘lsa, tuzatasiz.<br>G – ishni boshlashdan oldin o‘ylaysiz, yoqmasa, ishlamaysiz. |
| 7 | A – bir qarorga kelishdan oldin o‘ylaysiz, hayajonlanasiz.<br>B – bir qarorga kelishdan oldin o‘ylamaysiz.<br>V – bir qarorga kelishingiz qiyin.<br>G – bir qarorga tez kelasiz. |
| 8 | A – muloqotda muloyim, taktikali, hozirjavobsiz.<br>B – muloqotda boshlovchi, chaqqonlikni yaxshi ko‘rasiz.<br>V – muloqotni unchalik xush ko‘rmaysiz, bir o‘zingiz bo‘lsangiz yaxshi.<br>G – yolg‘izlikni yomon ko‘rasiz, muloqot uchun doimo kishi izlaysiz. |
| 9 | A – xafachilikdan qattiq ranjiysiz, lekin tezda unutasiz.<br>B – xafachilikdan qattiq ranjiysiz, tez unuta olmaysiz, boshqalarga bildirishni yomon ko‘rasiz.<br>V – xafachilikni tez unuta olasiz.<br>G – xafachilikni optimistik ravishda qabul qilasiz, tez unutasiz. |
| 10 | A – hazilni, hazil qilishni yaxshi ko‘rasiz.<br>B – hazilni yaxshi ko‘rasiz, faqat eng yaqin kishingiz bilan.<br>V – bo‘lar-bo‘lmas hazil qilasiz, lekin odamlar buni tushunmaydi.<br>G – hazil qilishni ham, hazilni ham unchalik yoqtirmaysiz. |

**Xolerik** – temperament tez paydo bo‘luvchi va kuchli tuyg‘ular, zo‘r ta’sirlanish, tajanglik, tuganmas g‘ayrat, ko‘proq harakatchanlik, aniq imo-ishoralar va boy mimika bilan xarakterlanadi.

Xolerik



**Kuchli barqaror, harakatchan tip.**

Qo‘nimsiz va shoshqaloq.
O‘zini bosishi qiyin.
Chidamsiz.
Muammolarda keskin va to‘g‘ri so‘z.
Tashabbuskor va tezda bir qarorga keladi.
O‘jar.
Tortishuvda topqir.
Ishga goh berilib ketadi, goh tashlab qo‘yadi.
Tavakkalchi.
Kishilarga kek saqlamaydi, xafa bo‘lmaydi.
So‘zlaganda nutqi tez, ehtirosli.
Tabiati beqaror, qizishishga moyil.
Tajavuzkor, janjalchi.
Kamchilik va nuqsonlarga beshafqat.





Yuz ko‘rinishi ochilib-sochilib turgan.
Masalaga ta’sir qilish va hal qilishga qobiliyatli.
Doim yangilikka intiladi.
Harakatlari keskin va shiddatli.
Maqsadga erishishga chidamli.
Kayfiyati tez o‘zgaruvchan.

**Sangvinik** – tez paydo bo‘luvchi va oson almashinadigan tuyg‘ular bilan farq qiladi. Sangvinik kishi uchun xatti-harakatning barqarorligi xosdir. **Kuchli barqaror, harakatchan tip.**

Sangvinik







Xushchaqchaq va quvnoq.
Ishchan, g‘ayratli.
Ko‘pchilik hollarda boshlagan ishini oxiriga yetkazmaydi.
O‘ziga ortiqcha baho berishga moyil.
Yangilikni tez egallashga layoqatli.
Qiziqishi va mayli turg‘un emas.
Muvaffaqiyatsizlik va ko‘ngilsizlikni yengil o‘tkazadi.
Har xil sharoitga oson moslashadi.
Har qanday ishga zo‘r qiziqish bilan kirishadi.
O‘zini qiziqtirmagan ishdan tezda soviydi.
Bir ishdan ikkinchi ishga oson va tez kirisha oladi.
Bir xil, mashaqqatli ishdan qiynaladi.
Jamoatchi, dilkash va ko‘ngilchan.
Chidamli va ishchan.
So‘zlagan nutqi qattiq, tez, aniq, imo-ishoralari jonli hamda keskin.
Murakkab sharoitda ham o‘zini tuta biladi.
Hamma vaqt kayfiyati yaxshi, tetik.
Tez uhlaydi va tez uyg‘onadi.
Ko‘pchilik hollarda masalani hal qilishda xayolparast va shoshqaloq.
Asosiy masaladan chetga chiqishga moyil.

**Flegmatik** – temperament tuyg‘ularning sust paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi, flegmatik kishini tinch holatdan olib chiqish oson emas, u harakat va gapirishda ham shoshilmaydi, mimikasi kam ifodali, harakatlari sust. **Kuchli barqaror, kam harakat tip.**

Flegmatik



Sovuqqon va xotirjam.
Ishda batartib va sharoitni hisobga oladi.
Ehtiyotkor va andishali.
Kutishga, chidamga layoqatli.
Kamgap, behuda so‘zlashni yoqtirmaydi.
Gapirganda nutqi bir xil, tekis imo-ishorasiz va hayajonsiz.



Chidamli va o‘zini tuta biladi.
Boshlagan ishni oxiriga yetkazadi.
Ishga behuda kuch sarf qilmaydi.
Ish tartibi va rejimiga qat’iy amal qiladi.
O‘zini tuta biladi.
Maqtovlarga befarq.
Kek saqlamaydi, kechirimli.
O‘z qiziqish va muammolarida hamma vaqt bir xil.



Bir ishdan ikkinchi ishga qiyin moslashadi.
Muomalasi hammaga bir xil.
Tartib va intizomni yaxshi ko‘radi.
Yangi sharoitga qiyin moslashadi.
Chidamli, sabr-toqatli.
Ko‘pchilik hollarda, atrofidagi voqea-hodisalarni sezmay qoladi.

Melanxolik



**Melanxolik** – temperament tuyg‘ularning nisbatan kam xilma-xil bo‘lgani holda ularning sekin paydo bo‘lishi bilan ajralib turadi, tashqi tomondan tuyg‘ulari deyarli ko‘zga tashlanmaydi, melanxolik kishini ko‘p narsa bezovta qilmaydi, lekin his-tuyg‘ular paydo bo‘lganda u odatda, chuqur, davomli va ancha kuchli bo‘ladi. Melanxolik kishi ko‘pincha g‘amgin kayfiyatda yuradi. **Bo‘shang va xayolparast tip.**

Tortinchoq va uyatchan.
Yangi sharoitda o‘zini yo‘qotib qo‘yadi.
Notanish kishi bilan tez til topisha olmaydi.
O‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonmaydi.



Yolg‘izlikni yaxshi ko‘radi.
Muvaffaqiyatsizliklarda o‘zini yo‘qotib qo‘yadi.
O‘zi bilan o‘zi bo‘lishni yaxshi ko‘radi.
Tez charchaydi.
So‘zlaganda nutqi kuchsiz, ba’zan shivirlab qoladi.
Suhbatdoshining xarakteriga ilojsiz ko‘nikadi.
Ta’sirchan, hatto yig‘lashi ham mumkin.



O‘ziga va atrofdagilarga talabchan.
Gumonsirashga, maydakashlikka moyil.
Gapga ta’sirchan va tez o‘ziga oladi.
Haddan tashqari tez xafa bo‘ladi.
Hech kim bilan fikr olishmaydi. Ko‘pchilikni yoqtirmaydi.
Kamharakat va beso‘naqay.
Indamas, o‘ta itoatkor.
Atrofdagilardan o‘zi uchun kuyinish va yordam kutadi.





**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

**1. Temperament tushunchasining lug‘aviy ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**
a) Lotincha “aralashma” b) Yunoncha “qorishma”
c) Yunoncha “aralashma” d) Lotincha “nisbatlar aralashmasi”

**2. Temperament borasidagi datlabki ta’limot kim tomonidan yaratilgan?**
a) Gippokrat b) Galen
c) I.P.Pavlov d) I.M.Sechenov

**3. Gippokrat fikricha, inson organizmidagi suyuqliklar nechta guruhga ajratiladi?**
a) 2 ta b) 3 ta c) 4 ta d) 5 ta

**4. Qonning xususiyati issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir. Mazkur ta’rif qaysi temperament tipiga taalluqli?**
a) Xolerik b) Sangvinik
c) Flegmatik d) Melanxolik

**5. Qora o‘tning xususiyati namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir turishdir. Mazkur ta’rif qaysi temperament tipiga taalluqli?**
a) Xolerik b) Sangvinik
c) Flegmatik d) Melanxolik

**6. Balg‘amning xususiyati badanni sovutib turishdir. Mazkur ta’rif qaysi temperament tipiga taalluqli?**
a) Xolerik b) Sangvinik
c) Flegmatik d) Melanxolik

**7. O‘tning xususiyati qurug‘likdir. Uning vazifasi tana a’zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir. Mazkur ta’rif qaysi temperament tipiga taalluqli?**
a) Xolerik b) Sangivinik
c) Flegmatik d) Melanxolik

**8. Kuchli his hayajon, tez-tez o‘zgarib turuvchi kayfiyat muvozanatsiz asab tizimi va umumiy harakatchanlikka ega kishilar qaysi temperament tipiga kiradi?**
a) Xolerik b) Sangivinik
c) Flegmatik d) Melanxolik

**9. Tez ta’sirlanuvchan arzimagan hodisalar haqida chuqur qayg‘uradigan kishilar qaysi temperament tipiga kiradi?**
a) Xolerik b) Sangivinik
c) Flegmatik d) Melanxolik

**10. Hissiy holatlari kuchsiz ifodalanadigan barqaror sekin harakat qiladigan kishilar qaysi temperament tipiga kiradi?**

a) Xolerik b) Sangivinik
c) Flegmatik d) Melanxolik

*9-ilova*

**"Yashirin lider" treningi**

Guruh a'zolaridan biri xonadan chiqib turadi. Qolganidan biri "liderni" tanlashadi. Qolgan ishtirokchilarning vazifasi: lider muayyan harakatlarni bajarganda ular ham bu harkatlarni takrorlashi kerak. Xonadan chiqarib yuborilgan ishtirokchini xonaga taklif qiladilar. Uning vazifasi: "lider" kimligini aniqlashi kerak. Agar to'g'ri topsa, lider bilan o'rin almashadi. Trening shu tariqa davom etadi. Trening ishtirokchilarini kuzatuvchanligini, diqqatini taqsimlay olishlarini rivojlantiradi.

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Muhamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so'z, 2018. 287-bet

"Snack Attack" nomli qisqa metrajli videorolik.



**8-SEMINAR MASHG'ULOTI.**
**MAVZU: XARAKTER, QOBILIYAT VA HARAKAT INSON FAOLIYATINING BIRLIGI SIFATIDA.**

**"Xarakter, qobiliyat va harakat inson faoliyatining birligi sifatida" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik modeli**

| | |
|---|---|
| **Seminarga ajratilgan vaqt – 2 s.** | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | O'rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Psixologiyada xarakter muammosi.<br>2. Xarakter shakllanishi.<br>3. Xarakter aktsentuatsiyasi.<br>4. Qobiliyatlar haqida tushuncha, qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi, qobiliyatlarning tuzilishi.<br>5. Qobiliyat turlari, qobiliyat va irsiyat, qobiliyatlarning rivojlanishi haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish. |
| **Mashg'ulotning maqsadi** | Talabalarning xarakter, uning shakllanishi, qobiliyat va uning turlari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Psixologiyada xarakter muammosi haqida o'rganish;<br>2) Xarakter aktsentuatsiyasi mazmunini tahlil etish;<br>3) Qobiliyatlar haqida tushuncha, qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi, qobiliyatlarning tuzilishini o'rganish;<br>4) Qobiliyat turlari, qobiliyat va irsiyat, qobiliyatlarning rivojlanishi haqida ilmiy bilimlarni o'rganish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1) Psixologiyada xarakter muammosiga doir bilimlarni o'zlashtiradilar;<br>2) Xarakter aktsentuatsiyasi mazmunini tahlil qiladilar;<br>3) Qobiliyatlar haqida tushuncha, qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi, qobiliyatlarning tuzilishi o'rganilib tahlil etiladi;<br>4) Qobiliyat turlari, qobiliyat va irsiyat, qobiliyatlarning rivojlanishi haqida ilmiy bilimlarni o'zlashtiradilar. |
| **Ta'lim metod va usullari** | Blits-so'rov, "Venn diagramma" metodi, test, krossvord, anagramma, juftlash, jadval, psixologik treninglar, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |

**"Xarakter, qobiliyat va harakat inson faoliyatining birligi sifatida" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg'uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O'qituvchi mavzu bo'yicha blits-so'rov o'tkazib, talabalarni mashg'ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo'linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg'ulotning asosiy bosqichiga o'tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritish uchun "Venn diagrammasi" metodi qo'llaniladi (5-ilova). | Diagrammadagi savollarni solishtirib, o'xshashliklarini izohlashadi. |
| | 2.2. Mavzuga oid topshiriqlarni bajarishda krossvord, juftlash, jadvallar bilan ishlash, anagrammalar asosida guruhlar bilan ishlanadi (6-7-8-9-ilova). | Mavzuga oid bir qancha metodlar asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. Talabalar bilan birgalikda xarakterga oid psixologik testni ishlashadi (10-ilova). | Test asosida xarater xususiyatlarini aniqlab olishadi. |
| | 2.4. Mavzuga oid test topshirig'i beriladi (11-ilova). | Testlarni bajarishadi. |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (12-ilova). | Psixologik trening o'tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg'ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg'ulotdagi ishtiroki bo'yicha natijalarini e'lon qiladi. | O'z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun Muhamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. muallifligidagi "Umumiy psixologiya" darsligi 245-262-betlarni o'qib kelish. "Mr Indifferent" nomli videorolikni tomosha qilib, mulohazalarni yurutish. | Talabalar mustaqil ta'lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |



*1-ilova*

**Mavzu: Xarakter, qobiliyat va harakat inson faoliyatining birligi sifatida.**

**Reja:**

1. Psixologiyada xarakter muammosi.
2. Xarakter shakllanishi.
3. Xarakter aktsentuatsiyasi.
4. Qobiliyatlar haqida tushuncha, qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi, qobiliyatlarning tuzilishi.
5. Qobiliyat turlari, qobiliyat va irsiyat, qobiliyatlarning rivojlanishi haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish.

**Adabiyotlar:**

1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so'z, 2018.
2. Luriya A.R. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. – T.: O'zFMJ., 2008.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 jild. – T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F.I., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – T.: 2009.
6. www.ziyo.uz – ta'lim portali.

*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**Xarakter, qobiliyat va harakat inson faoliyatining birligi sifatida mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Xarakter deganda nimani tushunasiz?
2. Xarakter qanday shakllanadi?
3. E.Krechmer bo'yicha qanday xarakter tiplari mavjud?
4. Xarakter nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Pedagogik qobiliyatlarga nimalar kiradi?
6. Qobiliyatlar nechaga bo'linadi?
7. Bolalarni tarbiyalash qobiliyati mohiyati?
8. Didaktik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?
9. Gnostik qobiliyat mazmuni.

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – "Ma'rifat" guruhi.
2-guruh – "Ziyo" guruhi.
3-guruh – "Taraqqiy" guruhi.

## Kichik guruhlarda ishlash qoidalari

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o‘zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo‘lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so‘rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*5-ilova*

## “Venn diagrammasi” metodini qo‘llash asosida temperament va xarakterdagi o‘xshashlik va farqli jihatlarini yozish topshirig‘i




*6-ilova*

## Mavzusi yuzasidan krossvord topshirig‘i




**Krossvord savollari:**

**Eniga**

3. Xarakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marraga yetib va normaning eng oxirgi chegarasiga borib qolgandagi holatini xarakterning nimasi deb ataladi?

**Bo‘yiga**

1. Bosh, ko‘krak qafasi va qorin bo‘shlig‘i yaxshi rivojlangan, semirishga moyil, tayanch-harakat a’zolari yaxshi rivojlan-magan kishilarni qaysi tipga kiritamiz?

5. Uncha katta bo‘lmagan gavda tuzilishli, o‘rtacha yoki undan balandroq bo‘yli, oriq kishilarni qaysi tipga kiritamiz?

6. Skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan, o‘rtachadan yuqori, baland bo‘yli, keng yelkali, kuchli ko‘krak qafasli, boshini tik tutib yuradigan kishilani qaysi tipga kiritamiz?

2. Mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida namoyon bo‘ladigan, shaxsning turli sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlari yig‘in-disini nima deb ataymiz?

4. Odam tanasining tuzilishi va konstitutsiyasiga ko‘ra, eng ko‘p uchraydigan uchta tipni ajratib ko‘rsatgan olimni toping?



*7-ilova*

## Quyidagi ta’riflarga mos pedagogik qobiliyat komponentlarini aniqlang.

| № | Ta’riflar | Pedagogik qobiliyatlarning komponentlari |
|---|---|---|
| 1 | Kishining o‘z his-tuyg‘ularini, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyati. | |
| 2 | O‘quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunda jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o‘zining shaxsiy ishini to‘g‘ri tashkil qila olish qobiliyati. | |
| 3 | O‘quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta’sir etib, ularda obro‘ orttira bilishdan iborat qobiliyati. | |
| 4 | Bolalar bilan muloqotda bo‘lishga, o‘quvchilarga yondashish uchun to‘g‘ri yo‘l topa bilishga ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyat. | |
| 5 | O‘quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o‘quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog‘liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyat. | |
| 6 | Matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga xos qobiliyat. | |
| 7 | Bolalarga o‘quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, bolalarga fanga qiziqish uyg‘otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg‘ota oladigan qobiliyat. | |

## Mavzu yuzasidan anagramma

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| L | Y | U | F | I | F | C | Y | Y | R | L | R | U | V | A | P | J | V | S | R | O | I | I | P | Q |
| J | Z | W | D | H | O | E | C | K | I | I | M | J | J | X | R | I | A | K | P | R | H | A | N | Z |
| D | G | Y | A | Y | N | P | J | N | Y | Z | L | F | L | B | L | A | Y | O | Q | A | T | K | J | X |
| Y | U | A | K | N | Q | M | B | V | Q | R | L | L | L | O | N | A | V | T | O | R | I | T | A | R |
| E | W | M | Q | I | R | M | R | O | D | J | J | Z | T | L | U | T | I | Q | T | I | D | O | R | A |
| H | F | S | E | E | U | B | X | U | X | C | F | A | N | T | A | Z | I | Y | A | H | Z | V | L | I |
| G | C | R | G | N | O | E | R | U | Y | H | U | P | Q | H | L | T | L | T | L | S | R | U | W | F |
| Z | E | R | V | Z | N | V | E | A | B | S | K | K | O | M | M | U | N | I | K | A | T | I | V | V |
| Z | N | R | F | W | F | Y | C | M | W | R | P | H | Y | U | J | X | J | E | J | V | H | X | E | P |
| I | A | N | L | V | D | V | I | V | V | G | S | Q | O | B | I | L | I | Y | A | T | T | P | R | V |
| L | F | G | S | U | L | G | I | O | M | Z | M | I | O | R | Y | N | F | L | H | S | R | M | L | M |
| T | A | L | A | N | T | T | O | D | X | S | F | R | A | I | S | T | E | D | O | D | D | O | R | Y |
| I | B | R | T | V | T | S | S | X | G | E | N | I | A | L | L | I | K | F | H | N | S | P | Q | F |
| U | U | F | L | T | F | P | S | C | M | N | A | R | A | A | F | F | T | C | S | P | P | D | Q | C |
| P | K | P | E | R | T | S | E | P | T | I | V | T | G | G | N | C | U | Q | A | C | X | C | T | D |
| R | B | Q | T | M | F | L | K | P | Q | I | M | K | X | D | V | V | E | K | H | T | I | O | T | Q |
| R | W | W | R | J | N | Z | W | Z | T | P | W | B | Y | J | E | V | T | X | K | W | Z | J | M | S |



- Fantaziya
- Talant
- Avtoritar
- Kommunikativ
- Pertseptiv
- Geniallik
- Iqtidor
- Istedod
- Layoqat
- Qobilyat

Psixologiya fanida qobiliyatlar quyidagi jadvalda keltirilgan kabi tavsiflanadi: quyida keltirilgan qobiliyatlarni tasniflab, jadvalni to'ldiring.

| Tabiiy qobiliyatlar | Maxsus insoniy qobiliyatlar | Umumiy qobiliyatlar |
|---|---|---|
| | | |





**Psixogeometrik test:**
**“Kimsiz: KVADRAT, AYLANA, TO'RTBURCHAK, UCHBURCHAK, ZIG-ZAG?”**



Ushbu test shaxsga aloqador bir qancha muhim xarakterologik sifatlarni aniqlashga imkon beradi.

Tavsiya etilgan geometrik figuralardan qaysi biri Sizga yaqinligini belgilang va unga “1” raqami qo'ying. Qolganlarni ham yoqishiga qarab, 5 gacha baholab chiqing. Endi Sizga xos bo'lgan psixologik xususiyatlar va fazilatlarni bilib oling.



**KVADRAT**

***Hayotiy qadriyatlari:*** *tartib, ish, an'analar, reputatsiya.*

**Asosiy psixologik sifatlari:**

**IJOBIY**

Tartiblilik, intizom, o'z vaqtida ishlarni bajaradigan, ozoda-pokiza, qonunga bo'ysunuvchi, mehnatsevar, chidamli, tirishqoq, qat'iyatli, qarorlari qatiy, so'zining ustida turadigan, halol, aqli bilan ish ko'radigan, bosiq, tejamkor;

**SALBIY**

Ko'ngliga har xil fikirlar keladigan, o'ta talanchan, mayda-chuydaga ha e'tibor beradigan, jiddiy, chidamli, qaysar, yangilikdan cho'chiydigan, fantaziyasi kambag'al, pismiqroq.



**UCHBURCHAK**

***Asosiy qadriyatlari:*** *hokimiyat, liderlik, amal, mavqe, g'alaba, manfaat.*

**Asosiy psixologik sifatlari:**

**IJOBIY**

Kirishuvchan, hammabop, mehribon, g'amxo'r, sadoqatli, kuchli ijtimoiy intuitsiyaga ega, empatiya hissi kuchli, bag'rikeng, qo'li ochiq, hissiyotlarga beriluvchan, bosiq, yuvosh, kechirimli, janjaldan yiroq yuruvchi;

**SALBIY**

O'zgalar fikriga tobelik, betartib, o'ta yumshoq, talabchan emas, qat'iyatsiz, narsalarni ayamaydigan, laqma, ko'ngli bo'sh.



## AYLANA

***Asosiy qadriyatlari:*** *insonlarga xizmat qilish, oila baxti va manfaatini ustun ko'radi, kirishimli.*

**Asosiy psixologik sifatlari:**

**IJOBIY**

Yaxshi lider, o'ziga masulyatlarni oladigan, har narsada asosiy mohiyatni ko'ruvchi, kuchini safarbar qila oladigan, g'alabaga erisha oladigan, o'ziga ishonchli, qat'iyatli, tavakkalchi, g'ayratli, tog'riso'z, hissiyotga boy, aqilli;

**SALBIY**

Egoist, nazorat qilishni yaxshi ko'radigan, o'zgacha fikrlarga toqatsiz, ishga o'ta beriluvchan, har narsadan manfaat qidiradigan, qaysar, implusiv, beshafqat, toqatsiz, qo'pol, berahm, jahli tez, zaharhanda.



## TO'RTBURCHAK

***Asosiy qadriyatlari:*** *o'zgarish, dinamika, azart.*

**Asosiy psixologik sifatlari:**

**IJOBIY**

Intiluvchan, yangilikni qidiradigan, qiziquvchan, yaxshi ta'lim oladigan, ziyrak, sezgir, ishonuvchan, samimiy, dadil;

**SALBIY**

Qatiyatsiz, qarorlari mavhum, ish va so'z birligi yo'q, ishonuvchan, emotsianal beqaror, sodda, o'ziga bahosi past, lanj, unutuvchan, kechirimli.



## ZIG-ZAG

***Asosiy qadriyatlari:*** *erkinlik, ijod, o'zgarish.*

**Asosiy psixologik sifatlari:**

**IJOBIY**

Yangilkka o'ch, ijodga intiluvchan, bilishga chanqoqlik, g'alayonchi xayolparast, optimist, kelajakka intiluvchan, ruhi tetik, tashabuskor aqlli;

**SALBIY**

Tartibsiz, qo'nimsiz, o'zgaruvchan, o'z "men"ini ustun qo'yuvchi, ishonchsiz, qonunlarni buzuvchi, subutsiz, o'zini namoyishkorona ko'rsatdigan, zahar, kesatib gapiradigan.

Ushbu test o'z-o'zini tahlil qilish malakalarini mustahkamlaydi va o'zini tarbiyalshga yoradam beradi.



*11-ilova*

### Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. Nemis psixiatri K.Leongard fikricha, necha % kishilarda ba'zi xarakter xususiyatlari shu darajada kuchliki, ba'zan bir xil tipdagi ziddiyat va hissiy portlashlarga olib kelishi mumkin.**

A) 20-30 B) 50-80%
C) 20-50% D) 60-40%

**2. Distim tipga doir ta'rifni toping?**

A) Haddan tashqari aloqaga kirishuvchan, ko'p gapiradi, imo-ishora, mimikaga boy, suhbat mavzusini burib yuborishga moyil, ko'pincha xizmatga doir va ommaviy majburiyatlarni unutib qo'yganligi sababli ziddiyatlar kelib chiqadi

B) Kamgap, muloqotga kirishishga qiynaladi, pessimist, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi

C) Kayfiyati tez o'zgarishga moyil, kayfiyati yaxshi paytda gipertim, yomon paytda distim tipga o'xshab qoladi

D) Kamgap, odamovi, o'ziga ishonmaydi, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, tinchliksevar, o'z-o'zini tanqid qiladi, topshiriqlarni vaqtida bajaradi

**3. K.Leongard tomonidan necha xil xarakter tipi aniqlangan?**

A) 18 B) 13
C) 11 D) 12

**4. Kimlar kishi xarakterini yuziga qarab aniqlashni taklif qilishgan?**

A) S.M.Merlin, Ye.A.Klimov B) Gippokrat, Gelen
C) Aristotel, Aflotun D) Gippokrat, Aristotel

**5. Inson boshi «Qalbini ko'rsatadigan oyna» bo'lib sanaladi deya ta'kidlagan olim kim edi?**

A) Iogann Kaspar Lafaterning B) Frants Gall
C) E.Krechmer D) A.E.Lichko

**6. Talabalik yoshi asosan nimalar bilan xarakterlanadi?**

A) Xotiraning kuchliligi eslab qolishi bilan;
B) Idividual sifatlarning tez o'sishi bilan;
C) Shaxsiy faolligi g'ayrati, shijoati va mustaqilligi;
D) Bilimlarni tez o'zlashtirishi, hozirjavobligi, olingan bilimni keng hajmda va uzoq muddat xotirada saqlay olishi.

**7. "Shaxsning individual sifatlari mehnat jarayonida yuzaga keladi", -deb kim ta'kidlagan?**

A) I.P.Pavlov B) Imom Buxoriy
C) K.E.Siolkovskiy D) M.Gorkiy

**8. K.E.Siolkovskiyning geniyligi nimada ma'lum bo'ladi?**
A) Planetalararo kosmik uchish
B) Shaxslarning ijtimoiy hayotini o'rganishda
C) Tabiatni o'zgartirishda
D) Fan sohasida

**9. 14 yoshida maktabni tamomlab, A.I.Mendeleyev nomli Moskva Ximiya-texnologiya institutining talabasi bo'lgan shaxs kim?**
A) Asilbek Saydanov
B) Seryoja Xalyapin
C) Mayk Grost
D) A.S.Pushkin

**10. Yirik hajmdagi amaliy va nazariy masalalarni hal yetadilar, ilg'or xarakterga yega bo'lgan yangilik va ijodiy ishlarni amalga oshiradilar. Ushbu ta'rif qaysi shaxslarga tegishli?**
A) Talantli shaxs
B) Geniy shaxs
C) Komil shaxs
D) Barkamol inson

*12-ilova*

**"Topingchi, bu kim?" treningi**

Treningda har bir ishtirokchi guruh a'zolaridan kimnidir 10 tadan kam bo'lmagan xarakter xususiyatlarini qog'ozga yozadi, lekin kim haqida yozilganligini, xatto o'g'il yoki qiz bolaligini ham hech kimga aytmaydi. Qolgan ishtirokchilar yozilgan xarakter xususiyatlariga qarab gap kim haqida ketayotganligini topishlari lozim. Agar guruh kim haqida ketayotganligini tez topsa, uni ta'riflangan ishtirokchi mohir odam sifatida rag'batlantiriladi.

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Muhamedova D.O'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so'z, 2018. 287-bet

"Mr Indifferent" nomli qisqa metrajli videorolik.



## 9-SEMINAR MASHG'ULOTI.
## MAVZU: PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA: PREDMET, TUZILMA, MUAMMOLAR.

**"Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muammolar" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik modeli**

| Seminarga ajratilgan vaqt – 2 s. | Talabalar soni – 25-30 nafar |
|---|---|
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | O'rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Pedagogik psixologiya fanining predmeti.<br>2. Ta'lim va tarbiya haqida umumiy ma'lumot.<br>3. Pedagogik psixologiyaning asosiy muammolari.<br>4. Pedagogik ortda qolish muammosi.<br>5. Ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiya muammosi. |
| **Mashg'ulotning maqsadi** | Talabalarning pedagogik psixologiya fani predmeti, pedagogik psixologiyaning asosiy muammolari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Pedagogik psixologiya fanining predmeti haqida o'rganish;<br>2) Ta'lim va tarbiya haqida umumiy ma'lumotlarni tahlil etish;<br>3) Pedagogik psixologiyani asosiy muammolarini o'rganish va tahlil etish;<br>4) Ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiya muammosini o'rganish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1) Pedagogik psixologiya fanining predmetiga doir bilimlarni o'zlashtiradilar;<br>2) Ta'lim va tarbiya haqida umumiy ma'lumotlarni tahlil qiladilar;<br>3) Pedagogik psixologiyaning asosiy muammolarini o'rganilib tahlil etiladi;<br>4) Ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiya muammolarini o'zlashtiradilar. |
| **Ta'lim metod va usullari** | Blits-so'rov, "Gurgut donalari" metodi, test, anagramma, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |

**“Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muammolar” mavzusidagi seminar mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O‘qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg‘uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O‘quv mashg‘ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha blits-so‘rov o‘tkazib, talabalarni mashg‘ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo‘linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg‘ulotning asosiy bosqichiga o‘tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berishlari uchun “Gugurt donalari” metodi qo‘llaniladi (5-ilova). | Tanlangan gurgut dananalari soniga teng mazmunini izohlashadi. |
| | 2.2. Mavzuga oid topshiriqni bajarishda anagramma ishlanadi, bunda topshiriqni bajarish tartibi tanishtiriladi (6-ilova). | Anagramma asosida topshiriq bajaradilar |
| | 2.3. Mavzuga oid test topshirig‘i beriladi (7-ilova). | Testlarni bajarishadi. |
| | 2.4. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (8-ilova). | Psixologik trening o‘tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg‘ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg‘ulotdagi ishtiroki bo‘yicha natijalarni e’lon qiladi. | O‘z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun Muhamedova D.G‘., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. mualliflgidagi “Umumiy psixologiya” darsligi 448-466-betlarni o‘qib kelish. “Christmas love” nomli videorolikni tomosha qilib, mulohazalarni yurutish. | Talabalar mustaqil ta’lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |



*1-ilova*

**Mavzu: Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muammolar.**

**Reja:**

1. Psixologiya fanining predmeti maqsad va vazifalari.
2. Psixologiya fanining shakllanish tarixi.
3. Ong haqida tushuncha.
4. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va sohalari.
5. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari.

**Adabiyotlar:**

1. Muxamedova D.G‘., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so‘z, 2018.
2. Luriya A.R. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zFMJ., 2008.
4. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. 1-2 jild. – T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F.I., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – T.: 2009.
6. www.ziyo.uz – ta’lim portali.

*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta’limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**“Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muammolar” mavzusiga doir blits-so‘rov savollari**

1. Pedagogik psixologiya fanlarning predmeti.
2. Ta’lim va tarbiya haqida umumiy ma’lumot.
3. Pedagogik psixologiyaning asosiy muammolari.
4. Pedagogik ortda qolish muammosi.
5. Ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiya muammosi.

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – “Ma’rifat” guruhi.
2-guruh – “Ziyo” guruhi.
3-guruh – “Taraqqiy” guruhi.

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari**

1. Sheringingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o‘zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo‘lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so‘rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*5-ilova*



***“Gugurt donalari” metodi o‘quv materiallarni talabalar tomonidan qay darajada egalaganligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. O‘qituvchi talabalarga gugurt donalaridan istagancha tanlab olishlarini taklif etadi, talabalar o‘z xohishlariga ko‘ra gugurt donalarini tanlaydi. Har bir talaba tanlagan gugurt donalari soniga ko‘ra mavzuga oid tayanch tushunchalarni ajratib ko‘rsatib, ularning har biriga izoh beradi yoki ta’riflarini aytadi.***

*6-ilova*

**Mavzu yuzasidan anagramma**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O | H | P | W | P | Y | E | H | A | R | I | V | O | J | L | A | N | I | S | H | Q | O | C | B | E |
| T | F | Q | O | N | R | E | F | P | E | D | A | G | O | G | I | K | A | T | A | R | B | I | Y | A |
| P | A | V | O | J | L | E | N | P | E | L | S | B | T | A | F | A | K | K | U | R | D | A | T | H |
| U | A | I | C | C | W | T | D | K | I | N | D | I | V | I | D | U | A | L | Y | T | Q | C | P | G |
| V | C | N | E | T | O | Z | O | M | S | W | P | C | W | W | Z | G | C | U | E | L | W | K | W | M |
| D | S | T | T | Q | L | S | M | T | E | P | Y | C | C | M | B | E | T | I | L | A | K | G | A | A |
| Q | O | I | A | E | X | Q | F | X | P | T | C | A | D | V | N | A | J | S | Z | J | T | C | A | F |
| K | U | L | G | Z | R | G | D | S | G | M | J | O | T | T | I | E | N | T | H | A | Q | D | J | K |
| U | K | I | J | B | U | J | I | N | T | E | L | L | E | K | T | U | A | L | F | R | E | X | B | U |
| F | E | S | E | A | B | B | I | K | A | L | Y | T | L | L | K | I | H | X | O | A | A | O | H | R |
| A | L | H | M | P | S | I | X | O | L | O | G | I | Y | A | M | Q | H | K | S | Y | W | X | Z | A |
| A | R | X | B | W | D | O | A | Z | F | X | N | V | C | G | M | L | C | M | X | O | R | E | D | L |
| L | U | H | S | B | D | D | R | Z | K | I | P | H | J | N | U | W | F | S | B | N | K | X | B | T |
| C | W | R | Y | H | D | Y | D | M | O | E | A | L | N | J | A | M | I | Y | A | T | V | F | Q | A |
| I | A | N | E | O | A | N | R | E | N | W | L | D | S | M | V | A | H | O | B | S | P | N | K | L |
| I | G | W | Y | Y | I | X | T | O | X | E | Z | P | P | M | C | M | A | Q | S | A | D | F | T | I |
| T | E | D | H | I | B | G | S | T | N | M | E | T | O | D | R | B | G | T | S | X | E | I | K | M |

1. Pedagogika
2. Psixologiya
3. Metod
4 Tarbiya
5. Ta'lim
6. Shaxs
7. Intilish
8. Maqsad
9. Tafakkur
10. Jarayon
11. Intellektual
12. Predmet
13. Rivojlanish
14. Individual
15. Jamiyat
16. Mafkura



*7-ilova*

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

**1. Pedagogik psixologiya - ...?**

a) psixologiya fanining tarmog‘i sifatida shaxsga samarali ta’sir etuvchi umumpsixologik omillar, qonuniyatlar va mexanizmlarni o‘rganuvchi fandir

b) psixologiya fanining tarmog‘i sifatida ta’lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta’sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganuvchi fandir

c) psixologiya fanining tarmog‘i sifatida turli yosh davrlaridagi shaxslarga samarali ta’sir etuvchi omillar, qonuniyatlar va mexanizmlarni o‘rganuvchi fandir

d) psixologiya fanining tarmog‘i sifatida individual psixologik qonuniyatlarni va mexanizmlarini, hayvon va inson psixikasini qiyoslab o‘rganuvchi fandir.

**2. Pedagogik psixologiya bo‘limlari - ...?**

a) psixika, ta’lim, ong psixologiyasi

b) tarbiya, ta’lim, bola psixologiyasi

c) ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi psixologiyasi

d) ta’lim, ijod, o‘qituvchi psixologiyasi

**3. Pedagogik psixologiya fan sifatida qachondan boshlab rivojlana boshlagan?**

a) XVIII asrning boshlarida  b) XVIII asrning o‘rtalarida

c) XIX asrning o‘rtalarida  d) XIX asrning boshlarida

**4. Psixologik-pedagogik eksperiment qismlari - ...?**

a) tabiiy, laboratoriya, psixologik eksperiment

b) aniqlovchi, laboratoriya, psixologik eksperiment

c) aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat eksperiment

d) shakllantiruvchi, pedagogik, nazorat eksperiment

**5. Shakllantiruvchi eksperimentda .....?**

a) sinaluvchilardagi biror psixik jarayonning rivojlanish darajasi aniqlanadi

b) aniqlangan psixik jarayon me’yordan orqada bo‘lsa, uni rivojlantirish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tkaziladi

c) shakllantiruvchi ta’sirning samaradorligini aniqlash uchun diagnostik metod yana bir marta takroran o‘tkaziladi

d) o‘qituvchi va ota-ona bilan hamkorlikda o‘tkaziladi

**6. Ta’limga psixologik tayyorgarlik deganda nima nazarda tutiladi?**

a) ta’lim beruvchi, ma’lumot usullari, o‘quv motivlari, o‘qituvchining baholashi

b) ta’limning maqsadi - nima uchun o‘qitish kerak? Ta’limning mazmuni - nimaga o‘qitish kerak? Ta’limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo‘llari, ta’lim beruvchi, o‘quvchi

c) bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi

d) bola o‘qishni, sanashni bilib olishi

**7. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati nimalarga bogliq?**

a) ta'limning maqsadi - nima uchun o'qitish kerak? Ta'limning mazmuni nimaga o'qitish kerak? Ta'limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo'llari, ta'lim beruvchi, o'quvchi

b) motivatsiya, ma'lumot usullari, ma'lumotning tushunarliligi, ma'lumotlarni qo'llash

c) ta'lim beruvchi, ma'lumot usullari, o'quv motivlari, o'qituvchining baholashi

d) o'quvchilarga, o'qituvchining qanday o'qitishiga

**8. O'quv faoliyatining elementlarini to'g'ri belgilang.**

a) motivatsiya, xotira, o'quv topshiriqlari, o'qituvchining nazorati, pedagogik muloqot yo'llari

b) ta'lim beruvchi, ma'lumot usullari, o'quv motivlari, o'qituvchining baholashi, pedagogik muloqot yo'llari

c) o'quv motivlari, o'quv topshiriqlari, o'quv harakatlari, o'qituvchining nazorati, o'qituvchining baholashi

d) ta'limning maqsadi - nima uchun o'qitish kerak? Ta'limning mazmuni - nimaga o'qitish kerak? Ta'limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yollari, ta'lim beruvchi, o'quvchi

**9. O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalari qaysilar?**

a) ichki, tashqi, shaxsiy motivlar
b) bilim, ko'nikma va malakalar
c) ustanovka, qadriyatlar, orttirilgan qobiliyatlar
d) intellektual malakalar

**10. O'qish jarayonida harflar shaklini farqlash qanday malakaga misol bola oladi?**

a) sensor malaka b) motor malaka
c) intellektual malaka d) sensomotor malaka

*8-ilova*

## "G'ARAM, TEPALIK, SO'QMOQ" TRENINGI



G'ARAM



TEPALIK



SO'QMOQ



Ishtirokchilar 6-10 kishilik guruhga bo'linadilar. Har bir guruh a'zolari bir-birlarining qo'llaridan ushlab, davra quradilar. O'yin ishtirokchilarning o'ng tomonga qarab aylanishi bilan boshlanadi. Boshlovchi (psixolog yoki tarbiyachi) tomonidan "So'qmoq" deyilganda ishtirokchilar bir qator bo'lib, o'tirib olishlari kerak. "G'aram" deyilganda, har bir guruh 2 kichik guruhga bo'linadi va bir-biriga yuzma-yuz bo'lib, qo'llarini birlashtirib yuqoriga ko'taradilar. "Tepalik" deyilganda esa, ishtirokchilar yana bir qator bo'ladilar, biroq bunda guruhdagi bir ishtirokchi tursa, ikkinchisi o'tirib oladi, natijada tepaliklar ko'rinishini aks ettiradilar. Vazifani boshqalardan oldin va yaxshi bajargan guruhga 1 ball beriladi. Shunday qilib eng ko'p ball jamg'argan jamoa g'olib deb topiladi.

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn]: darslik. – T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 600 b.

"Christmas love" nomli qisqa metrajli videorolik.

## 10-SEMINAR MASHG‘ULOTI.
## MAVZU: PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING YUZAGA KELISH TARIXI.

**“Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi” mavzusidagi seminar mashg‘ulotining texnologik modeli**

| | |
|---|---|
| **Seminarga ajratilgan vaqt** – 2 s. | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
| **O‘quv mashg‘ulotining shakli** | O‘rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg‘ulot rejasi** | 1. Psixologiya nazariyalari va uning pedagogik psixologiya rivojlanishiga ta’siri. Pedagogik psixologiya terminining kiritilishi.<br>2. Pedagogik psixologiya fanining rivojlanish bosqichlari.<br>3. Yosh va pedagogik psixologiyaning vujudga kelish tarixi. |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | Talabalarning pedagogik psixologiya fanining rivojlanish bosqichlari, yosh va pedagogik psixologiyaning vujudga kelish tarixi bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Psixologiya nazariyalari va uning pedagogik psixologiya rivojlanish jarayoni haqida o‘rganish;<br>2) Pedagogik psixologiya fanining rivojlanish bosqichlarini tahlil etish;<br>3) Yosh va pedagogik psixologiya vujudga kelish tarixini o‘rganish. | **O‘quv faoliyati natijalari:**<br>1) Psixologiya nazariyalari va uning pedagogik psixologiya rivojlanish jarayoniga doir bilimlarni o‘zlashtiradilar;<br>2) Pedagogik psixologiya fanining rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladilar;<br>3) Yosh va pedagogik psixologiyaning vujudga kelish tarixini o‘zlashtiradilar. |
| **Ta’lim metod va usullari** | Blits-so‘rov, “Aktivator 3-2-1” metodi, muqobilini tanlash testi, “Nima uchun” interfaol metodi, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta’limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O‘quv qo‘llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og‘zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |



**“Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi” mavzusidagi seminar mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O‘qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg‘uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O‘quv mashg‘ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha blits-so‘rov o‘tkazib, talabalarni mashg‘ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo‘linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg‘ulotning asosiy bosqichiga o‘tadi, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berish uchun “Aktivator 3-2-1” metodi qo‘llaniladi (5-ilova). | O‘qituvchi tomondan aytilgan ma’lumotlarni tizimlashtiradilar, |
| | 2.2. Mavzuga oid topshiriqlarni bajarishda “Muqobilini tanlash” testi bilan ishlanadi, bunda topshiriqni bajarish tartibi tanishtiriladi (6-ilova). | Mavzuga oid jadvallar asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. Sharqa mutafakkirlari fikrlarini “Nima uchun” metodi yordamida izohlash talab etiladi (7-ilova). | O‘z fikrlari asosida berilgan topshiriqni amalga oshirishadi. |
| | 2.4. Mavzuga oid test topshirig‘i beriladi (8-ilova). | Testlarni bajarishadi. |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (9-ilova). | Psixologik trening o‘tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg‘ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg‘ulotdagi ishtiroki bo‘yicha natijalarini e’lon qiladi. | O‘z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun Muhamedova D.G‘., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. mualliflligidagi “Umumiy psixologiya” darsligi 448-466-betlarni o‘qib kelish. “Scrambled” nomli videorolikni tomosha qilib, mulohazalarni yurutish. | Talabalar mustaqil ta’lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |

*1-ilova*

**Mavzu: Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi.**

**Reja:**

1. Psixologiya nazariyalari va uning pedagogik psixologiya rivojlanishiga ta'siri. Pedagogik psixologiya terminining kiritilishi.
2. Pedagogik psixologiya fanining rivojlanish bosqichlari.
3. Yosh va pedagogik psixologiyaning vujudga kelish tarixi.

**Adabiyotlar:**


1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so'z, 2018.
2. Luriya A.R. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. – T.: O'zFMJ., 2008.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 jild. – T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F.I., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – T.: 2009.
6. www.ziyo.uz – ta'lim portali.


*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**"Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi" mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Psixologiya nazariyalari.
2. Pedagogikaning psixologiya rivojlanishiga ta'siri.
3. Pedagogik psixologiya termini fanga qachon kiritilgan?
4. Pedagogik psixologiya fanining rivojlanish bosqichlari.
5. Yosh va pedagogik psixologiyaning vujudga kelish tarixi.

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – "Ma'rifat" guruhi.
2-guruh – "Ziyo" guruhi.
3-guruh – "Taraqqiy" guruhi.

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.



*5-ilova*



***"Aktivator 3-2-1" metodi orqali talabalarni bugungi seminar mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarni aniqlab olamiz. Hamda quyidagi tartibda bugungi olgan ma'lumotlarini raqamlab chiqishadi.***
***Yodimda qoldi - 3***
***Muhim bo'ldi - 2***
***Qo'llayman – 1***

*6-ilova*

**Sharq va G'arb mutafakkir olimlarning e'tirof va qarashlarini aniqlashda "Muqobilini tanlash testi"**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | **E.Meyerman** | A | Insonlarni ilmli bo'lishga chaqirib, o'quvchining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida ibratli g'oyalarni ilgari surgan. |
| 2 | **S.Xoll** | B | O'qituvchilar o'quvchining e'tiborini taqqoslash, qiyoslash kabi operatsiyalarga qaratishlari lozimligiga alohida ahamiyat beradi. |
| 3 | **E.Dyurkgeym** | G | Inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidagi turli aloqalar tizimining shakllanishi, insonning ulg'ayishini belgilaydi. |
| 4 | **Dj.Bruner** | D | Shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligini ta'kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, deb uqtiradi. |
| 5 | **P.Janening** | E | Ulg'ayish - kishilarning his-tuyg'ularni o'zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an'ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi. |
| 6 | **Abu Rayhon Beruniy** | F | Har qanday bola o'zining individual taraqqiyotida filogenezni ontogenezda takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinktlarni og'riqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur deb aytadi. |
| 7 | **Abu Nasr Forobiy** | J | Bolaning maktab davrida uning ruhi va tanasida kechayotgan o'zgarishlarni to'liq bilmay turib, unga buyruq yoki tazyiq o'tkazib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. |

| Javobi | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | |

*7-ilova*

**Quyidagi chizmaga e'tibor qarating. Muammo yuzasidan fikr yuriting**




*8-ilova*

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

**1. Pedagogik psixologiya namoyondalari kimlar?**
A) E. Meyman, V.Preyer va boshqalar
B) A.P.Nechayev, N.E.Rumyantsev va boshqalar
C) E.Meyman, N.E.Rumyantsev va boshqalar
D) N.Preyer, A.P.Nechayev va boshqalar

**2. Pedogogika so'zining ma'nosi?**
A) Yunoncha pais – go'dak va agogos – yetaklovchi
B) Grekcha pais – yetaklovchi va logiya – ta'limot
C) Lotincha pais – oila erkasi va logiya – fan
D) Fors pais – ta'limot va logiya – fan

**3. Xalq maorifi komissarligi sistemasidagi pedagogik buzg'unliklar haqidagi qaror qachon chiqdi?**
A) 1936-yil 4-iyulda B) 1935-yil 4-iyulda
C) 1938-yil 8-iyunda D) 1937-yil 18-noyabrda

**4. Bola rivojlanishining biologik, fizologik va psixologik nazariyalarini mexanik ravishda kimlar fanga qo'shgan?**
A) V.Preyer, S.Xoll, A.P.Nechayev
B) E.Meyman A.P.Nechayev
C) S.Xoll, N.E.Rumyantsev
D) S.Xoll, E.Meyman, V.Preyer



**5. Inson tashqi muhit haqidagi taassurotlarni sezgilar orqali idrok etadi. Shu yo'sinda uning tafakkuri ulg'ayib shakllanadi. Bu fikrlar kimga tegishli?**
A) V.N.Tatishchev B) S.X.Jalilova
C) A.N.Radishev D) N.I.Novikov

**6. Qaysi olimning asarlarida insoning kamoloti uchun tafakkur, xotira, axloq, his-tuyg'u va taqlidchanlikni alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi?**
A) P.E.Lestgaft B) A.P.Nechayev
C) N.I.Novikov D) K.D.Ushinskiy

**7. "Inson tarbiya predmetidir" asarining mualifi kim?**
A) P.E.Lestgaft B) A.P.Nechayev
C) N.I.Novikov D) K.D.Ushinskiy

**8. Amerikalik qaysi psixolog olim har qanday bola o'zining individual taraqqiyotida filogenezli ontegenezni takrorlaydi?**
A) S.Xoll B) S.Muxina
C) A.Vallon D) N.Landa

*9-ilova*

**"Yer-suv-osmon"**

Ishtirokchilar davraga kiradilar. Boshlovchi (*psixolog yoki tarbiyachi*) o'rtaga koptok bilan turadi. Boshlovchi "Yer", "Suv", "Osmon" so'zlaridan birini aytadi va koptokni birortasiga otadi. Koptokni ilib olgan ishtirokchi aytilgan so'zga mos biror jonivorni aytadi (*Yer – ot, suv – delfin, osmon – laylak va h.k.*). O'yin shartini buzgan ishtirokchi (*koptokni tushirib yuborsa yoki mos bo'lmagan jonivorning nomini aytsa*) jarima baho oladi.

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Muhamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. - T.: Mumtoz so'z, 2018. 287-bet

"Scrambled" nomli qisqa metrajli videorolik.

## 11-SEMINAR MASHG‘ULOTI.
## MAVZU: PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING METODLARI.

**“Pedagogik psixologiyaning metodlari” mavzusidagi seminar mashg‘ulotining texnologik modeli**

| **Seminarga ajratilgan vaqt** – 2 s. | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
|---|---|
| **O‘quv mashg‘ulotining shakli** | O‘rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg‘ulot rejasi** | 1. Metod haqida tushuncha.<br>2. Umumiy va maxsus metodlar.<br>3. Pedagogik psixologiyada eksperiment.<br>4. Testlar va boshqa psixodiagnostik metodlarni qo‘llash.<br>5. Tadqiqot, konsultatsiya va psixologik-pedagogik korreksiya metodlari. |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | Talabalarni pedagogik psixologiyaning metodlari, umumiy va maxsus metodlar bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Pedagogik psixologiyaning metodlarini o‘rganish;<br>2) Umumiy va maxsus metodlar mazmunini tahlil etish;<br>3) Testlar va boshqa psixodiagnostik metodlarni qo‘llash o‘rganish va tahlil etish;<br>4) Tadqiqot, konsultatsiya va psixologik-pedagogik korreksiya metodlari jarayonlarini o‘rganish. | **O‘quv faoliyati natijalari:**<br>1) Pedagogik psixologiyaning metodlariga doir asaosiy bilimlarni o‘zlashtiradilar;<br>2) Umumiy va maxsus metodlar mazmunini va bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qiladilar;<br>3) Testlar va boshqa psixodiagnostik metodlarni qo‘llash o‘rganilib tahlil etiladi;<br>4) Tadqiqot, konsultatsiya va psixologik-pedagogik korreksiya metodlarini o‘zlashtiradilar. |
| **Ta’lim metod va usullari** | Blits-so‘rov, “1-daqiqa”, “Charxpalak”, FSMU metodi, test, krossvord, juftlash, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta’limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O‘quv qo‘llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og‘zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |



**“Pedagogik psixologiyaning metodlari” mavzusidagi seminar mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O‘qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg‘uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O‘quv mashg‘ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha blits-so‘rov o‘tkazib, talabalarni mashg‘ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo‘linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg‘ulotning asosiy bosqichiga o‘tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berishlari uchun “1-daqiqa” metodi qo‘llaniladi (5-ilova). | A4 oq qog‘ozlarni tushunchalar bilan to‘ldirib, mazmunini izohlashadi. |
| | 2.2. Mavzuga oid krossvord bilan ishlanadi (6-ilova). | Krossvordni bajaradilar |
| | 2.3. Pedagogik psixologiya metodlariga oid ayrim eng muhim hodisalarni talabalar “Charxpalk”, juftlash metodlarida javoblarni topib birlash-tirish e’lon qilinadi (7- va 9-ilova). | Guruhlar tezkorlik bilan juftlashni amalga oshirishadi. |
| | 2.4. Mavzuga oid test topshirig‘i, FSMU metodi beriladi (8- va 10-ilova). | Testlarni bajarishadi. |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (11-ilova). | Psixologik trening o‘tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg‘ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg‘ulotdagi ishtiroki bo‘yicha natijalarini e’lon qiladi. | O‘z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun Muhamedova D.G‘., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. muallifligidagi “Umumiy psixologiya” darsligi 448-466-betlarini o‘qib kelish. “Umbrella” qisqa metrajli videoroligini tomosha qilib, mulohazalar yuritish. | Talabalar mustaqil ta’lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |

*1-ilova*

**Mavzu: Pedagogik psixologiyaning metodlari.**

**Reja:**

1. Metod haqida tushuncha.
2. Umumiy va maxsus metodlar.
3. Pedagogik psixologiyada eksperiment.
4. Testlar va boshqa psixodiagnostik metodlarni qo‘llash.
5. Tadqiqot, konsultatsiya va psixologik- pedagogik korrektsiya metodlari.

**Adabiyotlar:**


1. Muxamedova D.G‘., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so‘z, 2018.
2. Luriya A.R. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zFMJ., 2008.
4. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. 1-2 jild. – T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F.I., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – T.: 2009.
6. www.ziyo.uz – ta’lim portali.


*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta’limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**“Pedagogik psixologiyaning metodlari” mavzusiga doir blits-so‘rov savollari**

1. Metod haqida tushuncha.
2. Umumiy va maxsus metodlar.
3. Pedagogik psixologiyada eksperiment.
4. Testlar va boshqa psixodiagnostik metodlarni qo‘llash.
5. Tadqiqot, konsultatsiya va psixologik- pedagogik korreksiya metodlari.
6. Yordamchi metodlarga izoh bering.

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – “Ma’rifat” guruhi.
2-guruh – “Ziyo” guruhi.
3-guruh – “Taraqqiy” guruhi.

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o‘zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo‘lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so‘rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.



*5-ilova*




***“1-daqiqa” metodida 1 daqiqa vaqt davomida 10 ta qattiq, ko‘k rangdagi predmetning nomini yozing deb o‘qituvchi tomonidan topshiriq beriladi. Talabalar chaqonlik bilan bu topshiriqlarni bajarishlari kerak bo‘ladi. Bu metod yordamida o‘quvchilarni diqqatini bir joyga taqsimlashga, tezkorlik asosida individual ishlashiga yordam beradi.***

*6-ilova*

**Pedagogik psixologiyaning metodlari mavzusi buyicha krossvord**




**Krossvord savollari**

**Eniga**

**2.** Qaysi metodga asoslanib, pisixik o‘zgarish bilan rivojlanish bosqichlari-ning bevosita bog‘liqligi aniqlanadi?

**4.** Nuqtani to‘ldiring. Bilish metodlari voqelikni qamrab olish jihatdan3 turga bo‘linadi. Bular yalpi, bilish va ......

**6.** Inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “sinash, tekshirish” demakdir. Bu qaysi metod?

**7.** Qaysi metoda tekshiruvchi tomondan qo‘yilgan qator savollarga javob qaytarish kerak bo‘ladi?

**Bo‘yiga**

**1.** Qaysi olim pisixikani o‘rganish metodini quydagi 4 guruhga: Tashkiliy metod, emperik (amaliy) natijalarni qayta ishlash, genetik va donolash metodlariga ajratadi?

**3.** Qaysi metod yordamida tatqiqotchi mutaxassis boshqa odamning xatti-harakatlarini, xulq-atvorini, pisixika-sining tashqi ko‘rinishlarini kuzatadi va xulosa chiqaradi?

**5.** Yunoncha “bilish, tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot” ma’nosini anglatuvchi so‘zni toping?

*7-ilova*

**Pedagogik psixologiya metodlarini aniqlashda "Charxpalak" metodi**

| Tushunchalar | Psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari | Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari | Umumiy metodlar |
|---|---|---|---|
| Suhbat | | | |
| Anketa (test) | | | |
| Rivojlanish | | | |
| Pedagogik kuzatish | | | |
| Bilim | | | |
| Ma'lumot | | | |
| Qiyoslash | | | |
| Bolalar ijodini o'rganish | | | |
| Ko'nikma | | | |
| Pedagogik tahlil | | | |
| Pedagogik tajriba | | | |
| Longityud | | | |
| Intervyu | | | |
| Hujjatlarni tahlil qilish | | | |
| Matematik statistika | | | |
| Empirik metod | | | |
| Pedagogik eksperiment | | | |
| Donalash metodlari | | | |
| Tarbiya | | | |
| Test | | | |
| Psixologik temperament | | | |
| Genetik metod | | | |
| Sotsiometriya | | | |

*8-ilova*

**Pedagogik psixologik testlar, psixodiagnostik metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishdagi samaradorligini FSMU metodi orqali izohlang.**

| | | |
|---|---|---|
| F | Fikringizni bayon eting | |
| S | Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating | |
| M | Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring | |
| U | Fikringizni umumlashtiring | |



*9-ilova*

Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya sohalarida keng qo'llanadigan quyidagi metodlarning ishlab chiqilishi qaysi olimlarning ijodi va g'oyalari bilan bog'liq ekanini belgilang. Bunda quyidagi jadvalning tegishli satri va ustuni kesishgan joyga muayyan belgi qo'yish talab qilinadi.

| № | Metodlar | Olimlar | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | F.Galton | Y.A.Moreno | J.Piaje | A.F.Lazurskiy | E.Krepelin | A.Gezell | L.S.Vigotskiy |
| 1 | Egizaklar metodi | | | | | | | |
| 2 | Klinik suhbat metodi | | | | | | | |
| 3 | Sotsiometriya metodi | | | | | | | |
| 4 | Tabiiy eksperiment metodi | | | | | | | |
| 5 | Proektiv metod | | | | | | | |
| 6 | Genetik kesimlar metodi | | | | | | | |
| 7 | Eksperimental genetik metod | | | | | | | |

*10-ilova*

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

**1. Hissiy bilish nimadan boshlanadi?**
A) sezish, anglash, tushunishdan
B) o'zaro muloqotdan
C) yaqin shaxsni yo'qotish yoki topishdan
D) konfliktdan

**2. Texnik ko'rsatmalilik tarkibiga nimalar kiradi?**
A) tabiatdan olingan narsalar
B) o'simliklar, hayvonlar, minerallar, ma'lum obyektlarga sayohatlar
C) rasm, jadval, maket, chertyoj
D) kinofilm, tele va radio eshittirish, grammafon, magnitafon yozuvlari

**3. Kuzatish metodi necha turga bo'linadi?**
A) 4 B) 3 C) 2 D) 5

**4. Psixologik-pedagogik eksperiment qismlari....**
A) tabiiy, laboratoriya, psixologik eksperiment;
B) aniqlovchi, laboratoriya, psixologik eksperiment;
C) aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat eksperiment;
D) shakllantiruvchi, pedagogik, nazorat eksperiment.

**5. Eksperiment metodi necha turdan iborat?**
A) 4 B) 3 C) 2 D) 5

*11-ilova*

**"KECHIRIB YUBORISH" trening mashg'uloti.**

Mashg'ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lib emosional-hissiy sohadagi buzilishlarni, shaxslar aro (guruhiy, oilaviy, ota-ona va farzand) munosabatlaridagi buzilishlarni korreksiya qilish.

Trener so'zi: Insondagi yopishqoq va orom bermas fikrlar - alam, ranjish, nafrat, o'ch olish hislari sabablidir. Bundan qutulishning eng maqbul yo'li bu barcha-barchasini kechirib yuborib qayta eslamaslik. Kimnidir inson kechira olmasa, quyidagi mashqdan foydalanishi mumkin. Inson ko'zlarini yumadi, kechirishni maqsad qilib qo'ygan insonini katta, yorug' sahnada tasavvur qiladi, 15-20 soniya davomida hamma o'sha insonga gullar va sovg'alar berayotganini xayolan tasavvurda kuzatadi. Shundan so'ng inson o'sha sahnaga va o'sha holatga o'zini qo'yadi va o'zini ham shu tarzda 15-20 soniya xayolan tasavvurda kuzatadi. Bu mashg'ulotni har kuni 1-2 marotaba 21 yoki 40 kun davomida bajarish kerak, toki o'sha insonni chindan kechirib yubormaguncha. Bu mashg'ulotni trener amaliyotda bajarib ko'rishni ishtirokchilarga taklif etadi. "Agar nafratlansang, demak seni ustingdan g'alaba qozonishdi!" – degan edi Konfutsiy. Yuqoridagi hikmatli so'zni asosan xafagarchilik, aybdorlik hissi yuqori bo'lgan o'smirlar bilan birga muhokama qilish va ularga salbiy his-tuyg'ularning salbiy ta'sirini tushuntirish kerak. Shuningdek, agar guruhda bo'lsa, o'quvchilar bilan Konfutsiyning yuqoridagi hikmatli so'zi asosida muhokama yoki debat o'tkazish ham samara beradi.

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Muhamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: Mumtoz so'z, 2018. 287-bet

**"Umbrella"** nomli qisqa metrajli videorolik.



**12-SEMINAR MASHG'ULOTI.**
**MAVZU: TURLI YOSH DAVRLARIDA O'ZLASHTIRISH XUSUSIYATLARI.**

**"Turli yosh davrlarida o'zlashtirish xususiyatlari" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik modeli**

| | |
|---|---|
| **Seminarga ajratilgan vaqt** – 2 s. | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | O'rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Bolalik va erta davr.<br>2. Maktabgacha davr.<br>3. Kichik maktab davrida o'qitish.<br>4. O'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari.<br>5. O'spirinlik davrlarida o'qitish va o'zlashtirish. |
| **Mashg'ulotning maqsadi** | Talabalarning turli yosh davrlarida o'zlashtirish xususiyatlari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Bolalik va erta davr haqida o'rganish;<br>2) Maktabgacha davr mazmunini tahlil etish;<br>3) Kichik maktab davrida o'qitishni o'rganish va tahlil etish;<br>4) O'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish;<br>5) O'spirinlik davrlarida o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarini o'rganish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1) Bolalik va erta davrga doir bilimlarni o'zlashtiradilar;<br>2) Maktabgacha davr mazmunini va bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qiladilar;<br>3) Kichik maktab davrida o'qitishni o'rganilib tahlil etiladi;<br>4) O'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari anglab yetiladi;<br>5) O'spirinlik davrlarida o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarini o'zlashtiradilar. |
| **Ta'lim metod va usullari** | Blits-so'rov, "Mosini top", "Svetafor" metodi, test, krossvord, juftlash, kichik guruhlarda jadval, rasmlar bilan ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |

**"Turli yosh davrlarida o'zlashtirish xususiyatlari" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg'uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O'qituvchi mavzu bo'yicha blits-so'rov o'tkazib, talabalarni mashg'ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo'linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg'ulotning asosiy bosqichiga o'tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berishlari uchun "Mosini top" metodi qo'llaniladi (5-ilova). | A4 oq qog'ozlarni tushunchalar bilan to'ldirib, mazmunini izohlashadi. |
| | 2.2. Topshiriqlarni bajarishda mavzuning asosiy ma'lumotlarini juftlash, hamda asosiy o'yin faoliyat turlarini rasmlar asosida topib, bo'sh joylarni to'ldirish tartibi tanishtiriladi (6-7-ilova) | Mavzuga oid jadvallar asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. "Svetofor" metodi yordamida ontogenezdagi voqea va hodisalar asosida testni bajartiradi (8-ilova). | Rasmlar asosida testlarni bajarishadi. |
| | 2.4. Mavzuga oid krossvord, test, jadval bilan ishlash topshirig'i beriladi (9-10-11-ilova). | Krossvord va testlarni bajarishadi. |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (12-ilova). | Psixologik trening o'tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg'ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg'ulotdagi ishtiroki bo'yicha natijalarini e'lon qiladi. | O'z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun E.G'oziyev muallifligidagi "Ontogenez psixologiyasi" darsligini 6-39-betlarini o'qib kelish. "Alike" nomli qisqa metrajli videorolikni tomosha qilib, mulohazalarni yuritish. | Talabalar mustaqil ta'lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |



*1-ilova*

**Mavzu: Turli yosh davrlarida o'zlashtirish xususiyatlari.**

**Reja:**

1. Bolalik va erta davr.
2. Maktabgacha davr.
3. Kichik maktab davrida o'qitish.
4. O'smirlik davrining o'ziga xos hususiyatlari
5. O'spirinlik davrlarida o'qitish va o'zlashtirish.

**Adabiyotlar:**

1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
2. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. - СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. - T.: O'zFMJ., 2008.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. - T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. - T.: 2009.
6. www.ziyocom.uz - ta'lim portali.

*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**"Turli yosh davrlarida o'zlashtirish xususiyatlari" mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Perinatal rivojlanish bosqichi haqida nimalarni bilasiz?
2. Chaqaloqlik inqirozining mazmuni nimadan iborat?
3. Go'daklik davridagi yetakchi faoliyat.
4. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi.
5. Bir yosh inqirozi sabablarini ayting?
6. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy vaziyat o'zgarishining o'ziga xosligi nimalardan iborat?
7. Bu yosh davridagi o'yinning parametrlarini tavsiflang.
8. Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi qanday kechadi?
9. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari.
10. Maktabga ijtimoiy-psixologik moslashuv yo'llari qanday?
11. O'quv jarayoni davomida yuzaga keladigan muammolar.
12. O'smirlik davridagi yetakchi faoliyat turi.
13. O'smirlik davri krizisi, sabablari va namoyon bolishi.
14. Tarbiyasi qiyin o'smir xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlar va ularga psixologik yondashuv.

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – “Ma’rifat” guruhi.
2-guruh – “Ziyo” guruhi.
3-guruh – “Taraqqiy” guruhi.

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o‘zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo‘lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so‘rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*5-ilova*

“Mosini top” metodi yordamida Yosh psixologiyasi fanining quyida ko‘rsatilgan turli tadqiqot sohalari doirasida qanday davrlar o‘rganilishini ko‘rsating. Bunda soha nomi keltirilgan shakldagi bo‘sh maydonga quyidagi jadvalda sanab o‘tilgan davrlarni kiritib qo‘yish talab qilinadi.




*6-ilova*

**Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlarining shakllanishiga hissa qo‘shgan olimlar hamda ularning asarlarini guruhlar birlashgan holda juftlashtirish**

Vazifa: Yosh psixologiyasi hamda pedagogik psixologiya fanlarining shakllanishi va rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan quyidagi olimlarning qalamiga mansub asarlarni ko‘rsating. Bunda quyida keltirilgan jadval o‘rtasidagi ikki yonma yon bo‘sh ustunga chap tarafdan tegishli asarning tartib raqamini o‘ng tarafdan olimning tarib raqamini yozib qo‘yish talab qilinadi.



| № | Asarlar | Asar tartib raqami | Olim tartib raqami | Olimlar | № |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | “Odam tarbiya predmeti sifatida” (1868-1869) | | | Vilyam Djyems | 1 |
| 2 | “O‘qituvchilar bilan psixologiya haqida suhbatlar” (1902) | | | Aleksandr Petrovich Nechayev | 2 |
| 3 | “Bola ruhiyati” (1888) | | | Karl Byuler | 3 |
| 4 | “Tarbiyachi va o‘qituvchilar uchun psixologik ocherklar” (1901-1908) | | | Arnold Gezell | 4 |
| 5 | “Olti yoshgacha bo‘lgan davr psixologiyasi”(1915) | | | Eduard Shpranger | 5 |
| 6 | “Bolalarning oiladagi tarbiyasi va uning ahamiyati” (1912) | | | Pyotr Fransevich Lesgaft | 6 |
| 7 | “O‘spirinlik davri psixologiyasi”(1924) | | | Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy | 7 |
| 8 | “Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishi” (1925) | | | Tyerri Vilyam Preyer | 8 |
| 9 | “O‘spirinlik” (1904) | | | Granvil Stenli Xoll | 9 |
| 10 | “Bolaning ma’naviy rivojlanishi” (1918) | | | Vilyam Shtern | 10 |

*7-ilova*

**Turli yosh davrlarida yetakchi faoliyat turlarini topib, shu davrga mos keladigan rasmlarga joylashtiring.**





______________________



______________________



______________________

*8-ilova*



***"Svetafor" metodida pedagog tomonidan turli yosh davrlarga oid savollar o'qib eshittiriladi. Savollarning javoblari svetafor ranglari ketma-ketligidan belgilanganligi aytiladi va talabalarning qo'liga oldindan tarqatilgan qizil, sariq, yashil qo'g'ozlarni to'g'ri deb bilgan javobiga ko'taradilar. Oxirida guruhlar orasidagi to'g'ri javoblar hisoblanib, g'olib jamoa aniqlanadi.***

**1. Ontogenezdagi psixik rivojlanish davomida eng avval ........ paydo bo'ladi.**

| | | |
|---|---|---|
| qoidali o'yin | predmetli o'yin | rolli o'yin |

**2. Qoidali o'yinlar bolalarda ............ ning rivojlanishi uchun o'ta muhim ahamiyatga egadir.**

| | | |
|---|---|---|
| qiziqishlar | dunyoqarash | irodaviy sifatlar |

**3. Maktabgacha yosh davrida taxminan 4 yoshdan boshlab ............ .**

| | | |
|---|---|---|
| bolalar shakllarning konturini ajrata oladi | emotsiyalar ambivalentligi hodisasini tushuna oladi | chin va namoyish etilayotgan emotsiyalarni ajratoladi |

**4. Maktabgacha yoshda yaqqol namoyon bo'ladigan tafakkur egosentrizmi asosan ............ gacha deyarli butunlay yo'qolib ketadi.**

| | | |
|---|---|---|
| 8-9 yosh | 12-14 yosh | 16-18 yosh |

**5. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'ziga unchalik qiziq bo'lmagan topshiriqni uzoq vaqt bajarishga qodirligi uning maktab ta'limiga ............ jihatdan tayyorligini bildiradi**

| | | |
|---|---|---|
| intellektual | emotsional | sotsial |

**6. Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasida gender farqlar taxminan ............... yoshdan namoyon bo'la boshlaydi.**

| | | |
|---|---|---|
| 3-4 yosh | 5-6 yosh | 7-8 yosh |



**7. Rejissyorlik o'yini ............... ning bir turi bo'lib hisoblanadi.**

| | | |
|---|---|---|
| predmetli o'yin | syujetli-rolli o'yin | didaktik o'yin |

**8. Rasm chizishda maktabgacha yoshdagi bolalar ............... dan keyingina rangni narsa-buyumlarning muhim belgisi sifatida ishlata boshlaydi.**

| | | |
|---|---|---|
| 2 yosh | 4 yosh | 6 yosh |

**9. Maktabgacha yoshdagi bolalarning agressiv harakatlarida 3 yoshdan 5 yoshgacha .............. ?**

| | | |
|---|---|---|
| vokal harakatlar kamayadi va motor harakatlar kuchayadi | vokal harakatlar kuchayadi va motor harakatlar kamayadi | vokal harakatlar ham, motor harakatlar ham kamayadi |

**10. .............. dan qo'rqish maktabgacha yosh davrida paydo bo'ladi.**

| | | |
|---|---|---|
| notanish odamlar | qorong'ulik | o'lim |

*9-ilova*

O'smirlik davrida rivojlanishi xususiyatlari o'zgarishlarini jadval asosida ishlab chiqish.

| № | O'smirlik davrida rivojlanishi kuchayadigan yoki susayadigan xususiyatlar | Kuchayadi | Susayadi |
|---|---|---|---|
| 1 | Bolada xarakter aksentuatsiyasining vujudga kelish ehtimoli | | |
| 2 | Bolaning tengdoshlar referent guruhidagi komforlik darajasi | | |
| 3 | Bola mexanik xotirasining rivojlanishi | | |
| 4 | Boladagi affiliatsiya ehtiyoji | | |
| 5 | Boladagi o'quv faoliyatiga nisbatan qiziqish | | |
| 6 | Bolaning kattalar bilan muloqot ehtiyoji | | |
| 7 | Boladagi avtonomiyaga bo'lgan ehtiyoj | | |
| 8 | Bola shaxsi rivojlanishida adaptatsiya jarayonining darajasi | | |
| 9 | Bola so'z-mantiqiy tafakkurining rivojlanishi | | |
| 10 | Bola uchun o'qituvchi mavqeining irradiatsiya darajasi | | |
| 11 | Boladagi kattalik hissi | | |
| 12 | Bolaning o'quv faoliyatida yaxshi baho olishga qiziqish darajasi | | |

*10-ilova*

**Turli yosh davrlarda o'zlashtirish xususiyatlari mavzusiga oid krossvord**




**Krossvord savollari:**

**Bo'yiga:**

1. "Krizis davr", "qiyin davr" kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlar bilan xarakterlanadigan davrni toping?

7. Lesgaftning fikriga ko'ra qaysi davrda bolalarda xarakter hislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakter asoslari yuzaga keladi?

**Eniga:**

2. Qaysi davr "Kamolot bo'sag'asi" deb ta'riflanadi?

3. Qaysi psixolog olim rivojlanishining yoshga bog'liq davrlashtirish muammosini, "barcha bolalar psixologiyasi uchun markazi" va "amaliyotni barcha savollariga kalit" deb atagan?

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni 15-20 minut o'ynaladigan o'yinlari qanday o'yinlar hisoblanadi?

5. Qaysi davrda inson hayotidagi organik ehtiyojlarini kislorodga, ovqatga, issiq yoki sovuqqa qondirishga nisbatan yo'naltirilgan xatti-harakatlarning tug'ma instinktiv sog' holda kuzatadigan davr hisoblanadi?

6. Qaysi psixolog olim katta va tengdoshlariga salbiy reaksiyalar 12,5-13,5 yoshda eng ko'p uchraydi deb ta'kidlagan edi?



*11-ilova*

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

**1. "Go'daklik davri" asarida bolaning voqelikka munosabati dastlab ijtimoiy munosabatdek tuyilishi, ana shu jihatdan jonzot deyish mumkinligini uqtiradi. Bu asar kimga tegishli?**

a) D.B.Elkonin b) E.A.Arkin
c) S.Fayans d) L.S.Vigotskiy

**2. Go'dakning bir yoshgacha davrida predmetlar bilan harakat qilishni o'rganib, ularning 6 ta rivojlanish bosqichidan iborat ekanligini qaysi olim aytgan?**

a) R.Y.Abramovich-Lextman b) M.Y.Kistyakovskaya
c) D.B.Elkonin, E.A.Arkin d) V.S.Muxina

**3. Necha yoshga kelib bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan (huquqi bo'lgan), shuningdek, ular bajara oladigan harakatlarni qilishni xohlaydi?**

a) 5 yosh b) 4 yosh c) 3 yosh d) 2 yosh

**4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri?**

a) Ularning talabchanligidir
b) Ularning serharakatligi va taqlidchanligidir
c) Ularning sho'xligi va tezligidadir
d) To'g'ri javob yo'q

**5. Bolalarning individual xususiyatlarini, xususan, ularning qanday o'yinlar orqali kuzatish qulay?**

a) Jamoaviy o'yinlar orqali
b) Yakka tartibdagi o'yinlar
c) Ixtiyoriy ravishdagi o'yinlar
d) Barcha turdagi o'yinlar orqali

**6. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib, bular:**

a) Ma'naviy, intizomiy va insoniy faollikdir
b) Jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir
c) Psixik, ma'naviy va insoniy faollikdir
d) Jismoniy, ma'naviy va insoniy faollikdir

**7. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati nima?**

a) Psixik yondashuv b) Harakat qilish layoqati
c) O'qish faoliyati d) Tinglash faoliyati

**8. Pubertat davr – bu ....... ?**

a) Biologik o‘sish davri bo‘lib, jinsiy yetilish o‘z nihoyasiga yetadi, ammo jismoniy rivojlanish davom etadi.

b) Psixologik o‘sish davri bo‘lib, jinsiy yetilish o‘z nihoyasiga yetadi, ammo jismoniy rivojlanish davom etadi.

c) Anotomik o‘sish davri bo‘lib, jinsiy yetilish o‘z nihoyasiga yetadi, ammo jismoniy rivojlanish davom etadi.

d) To‘g‘ri javob berilmagan

**9. “Qaltis davr”, “Qiyin davr” deb qaysi yosh davrlari psixologik xarakterlanadi?**

a) Ilk o‘spirinlik davri — b) O‘smirlik davri
c) Yoshlik davri — d) Kichik maktab yosh davri

**10. “Kamolot bo‘sag‘asi” deb qaysi yosh davri ta’riflanadi?**

a) Ilk o‘spirinlik davri — b) O‘smirlik davri
c) Yoshlik davri — d) Kichik maktab yosh davri

**11. 16 yoshda pasport oladi; 18 yoshdan faol saylash huquqiga va oila qurish imkoniyatiga ega bo‘ladi, jinoiy ishlar uchun javobgar bo‘ladi. Qaysi davr haqida so‘z yuritilmoqda?**

a) Kichik maktab yosh davri — b) O‘smirlik davri
c) Yoshlik davri — d) Ilk o‘spirinlik davri

**12. Yoshlik davri 23-28 yoshlarda bo‘lib, bu davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri .......... ?**

a) Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishish
b) Shaxs sifatida faol ishtirok etish
c) Ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirish
d) Barcha javoblar to‘g‘ri

**13. Yoshlik davrida yigit-qizlar kamolotiga uchta muhim psixologik mexanizm ta’sir ko‘rsatadi Ularga qaysilar kiradi?**

a) jamiyat, oila mikromuhiti va norasmiy ulfatlar
b) oila jamoasi, oila mikromuhiti va norasmiy ulfatlar
c) mehnat jamoasi, oila mikromuhiti va norasmiy ulfatlar
d) A va B javob to‘g‘ri

**14. Individning paydo bo‘lishidan umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayoni. Ushbu ta’rif qaysi atamaga tegishli?**

a) Filogenez — b) Motivatsiya
c) Xotira — d) Ontogenez

**15. “Eskisini o‘zgartira olgan va yangisini tushuntirishga qodir insongina tarbiyachi bo‘la oladi”. Ushbu so‘zlar muallifi kim?**

a) Abdulla Avloniy — b) Komenskiy
c) Konfutsiy — d) Rudakiy





## “Ko‘prik” treningi

Maydonchaga 30 sm enida uzunligi 5 metr ikki chiziq chiziladi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratilib, biri chiziqlarning bir bosh tarafiga, ikkinchisi boshqa bosh tarafiga saflantiriladi. Ikki ishtirokchi ikki tarafdan bir-biriga qarama-qarshi holatda yurib boradi. O‘yin sharti bo‘yicha ular chiziq tashqarisiga chiqmasdan bir-biriga yordam berib o‘tib ketishlari kerak. Kimki chiziqdan tashqariga chiqib ketsa yoki qaytib ketsa, qoidani buzgan hisoblanadi. O‘tib ketishning turli usullari mavjud bo‘lgani uchun usullar qaytarilmasligi shart.

### Mustaqil ta’lim topshirig‘i

**E.G‘oziyev. Ontogenez psixologiyasi. Darslik. - Toshkent: NIF MSH, 2020. 288 bet**

**Masaru Ibuka. *Uchdan keyin kech.* Nurmuhammadova Nargiza Hamidulla qizi tarjimasi. - Toshkent, 2022.**

**“Alike” nomli qisqa metrajli videorolik.**

## 13-SEMINAR MASHG'ULOTI.
## MAVZU: TARBIYA PSIXOLOGIYASI: MAQSAD, VOSITALAR VA METODLAR.

**"Tarbiya psixologiyasi: maqsad, vositalar va metodlar" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik modeli**

| | |
|---|---|
| **Seminarga ajratilgan vaqt** – 2 s. | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | O'rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Tarbiyaning maqsadi.<br>2. Tarbiyaning psixologik nazariyasi.<br>3. Tarbiyaning biogen nazariyasi.<br>4. Tarbiyaning sotsiogen nazariyasi.<br>5. Muloqot va tarbiya.<br>6. Xarakter, motivlar, shaxs sifatlari va xulq-atvor ko'rinishlarini tarbiyalash masalalari.<br>7. Oila va tarbiya. |
| **Mashg'ulotning maqsadi** | Talabalarning tarbiya psixologiyasi: maqsad, vositalar va metodlari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Tarbiyaning psixologik nazariyasi haqida o'rganish;<br>2) Muloqot va tarbiya mazmunini tahlil etish;<br>3) Xarakter, motivlar, shaxs sifatlari va xulq atvor ko'rinishlarini tarbiyalash masalalarini o'rganish va tahlil etish;<br>4) Oila va tarbiya jarayonlarini o'rganish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1) Tarbiyaning psixologik nazariyasiga doir bilimlarni o'zlashtiradilar;<br>2) Muloqot va tarbiya mazmunini va bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qiladilar;<br>3) Xarakter, motivlar, shaxs sifatlari va xulq atvor ko'rinishlarini tarbiyalash masalalari o'rganilib tahlil etiladi;<br>4) Oila va tarbiya jarayonlarini o'ziga xos jihatlarini o'zlashtiradilar. |
| **Ta'lim metod va usullari** | Blits-so'rov, "A4 format" metodi, test, krossvord, anagramma, juftlash, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |



**"Tarbiya psixologiyasi: maqsad, vositalar va metodlar" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg'uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O'qituvchi mavzu bo'yicha blits-so'rov o'tkazib, talabalarni mashg'ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo'linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg'ulotning asosiy bosqichiga o'tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berishlari uchun krossvord qo'llaniladi (5-ilova). | Krossvord bajarishadi |
| | 2.2. Mavzuga oid topshiriqlarni bajarishda jadvallar bilan ishlanadi, bunda topshiriqni bajarish tartibi tanishtiriladi (6-ilova). | Mavzuga oid jadvallar asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. Mavzuga oid test topshirig'i beriladi (7-ilova). | Testlarni bajarishadi. |
| | 2.4. Mavzuga oid keys topshirig'i beriladi (8-ilova). | Berilgan keysni yechadilar. |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (9-ilova). | Psixologik trening o'tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg'ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg'ulotdagi ishtiroki bo'yicha natijalarni e'lon qiladi. | O'z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ishga Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf muallifligidagi "Baxtiyor oila" asarini o'qish va seminar daftariga mulohazalarni yozib kelish. "Mom - a mother, missing home" nomli qisqa metrajli videorolikni tomosha qilib, mulohazalarni yuritish. | Talabalar mustaqil ta'lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |

*1-ilova*

**Mavzu: Tarbiya psixologiyasi: maqsad, vositalar va metodlar.**

**Reja:**

1. Tarbiyaning maqsadi.
2. Tarbiyaning psixologik nazariyasi.
3. Tarbiyaning biogen nazariyasi.
4. Tarbiyaning sotsiogen nazariyasi.
5. Tarbiyaning ijtimoiy-psixologik jabhalari.
6. Muloqot va tarbiya.
7. Xarakter, motivlar, shaxs sifatlari va xulq-atvor ko'rinishlarini tarbiyalash masalalari.
8. Oila va tarbiya.

**Adabiyotlar:**


1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
2. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. - СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. - T.: O'zFMJ., 2008.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. - T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. - T.: 2009.
6. www.ziyocom.uz - ta'lim portali.


*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**Tarbiya psixologiyasi: maqsad, vositalar va metodlar mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Tarbiyaning maqsadi nima?
2. Tarbiyaning psixologik nazariyasi nimadan iborat?
3. Tarbiyaning biogen nazariyasini yoriting.
4. Tarbiyaning sotsiogen nazariyasini yoriting.
5. Tarbiyaning ijtimoiy-psixologik jabhalari haqida nima deya olasiz?
6. Muloqot va tarbiya tushunchalarining birgalikdagi mohiyati.
7. Xarakter bu?
8. Oila va tarbiya aloqadorligini yoriting.

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – "Ma'rifat" guruhi.
2-guruh – "Ziyo" guruhi.
3-guruh – "Taraqqiy" guruhi.



**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*5-ilova*

**Mavzu yuzasidan krossvord topshirig'i**




**Krossvord savollari:**

**Eniga**

2. "Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi este'dodga, ilmga va mashqqa" degan fikr muallifi kim?
4. O'quvchilar tomonidan ba'zi bir axloqiy tushunchalar va tasavvurlarning o'zlashtirishi va ularning bola shaxsiga bo'lgan ta'siri qaysi olim tomonidan tadqiq etilgan?
5. Qaysi tarbiya ta'siri tarbiyalanuvchida ma'lum effektiv holatni vujudga keltirishga va uni saqlab turishga mo'ljallangan bo'lib, ularning psixologik ta'sirini qabul qilishini yengillashtiradi yoki qiyinlashtiradi?
6. Qaysi psixolog olim oila a'zolari orasidagi munosabatni psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy kabi guruhlarga ajratdi?

**Bo'yiga**

1. I.F.Gerbart tarbiya ishida nimani tarbiyaning eng katta va asosiy vositasi deb bilib, usiz tarbiya bo'lmaydi deb hisoblagan?
3. Shaxsning ijtimoiy va ma'naviy ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy jismoniy kamolotiga muntazam ravishta ta'sir ko'rsatish jaroyonidir. Bu qaysi jarayon?
7. Qanday tarbiya ta'siri kishining bilim tizimlariga yo'naltirilgan bo'lib, uni o'zgartirish mukamallashtirishni maqsad qilib qo'yadi?

## Tarbiyaning psixologik asoslarini yoritib beruvchi "Juftlash metodi"ni ishlab chiqish

Ayrim o'quvchilarning xulqida kuzatiladigan salbiy xulq-atvor shakllarining sabablarini ko'rsating. Bunda quyidagi jadvalda sanab o'tilgan salbiy xulq sabablarining tartib raqamini jadvalning javoblar maydonida tegishli salbiy xulq-atvor namunasi qarshisidagi bo'sh katakchalarga kiritish talab qilinadi.

| № | Salbiy xulq-atvor sabablari | Salbiy xulq-atvor shakllari | Javoblar maydoni |
|---|---|---|---|
| 1 | Bolaning faqat og'ir, balki nisbatan yengil mehnat faoliyati ham ota-ona tomonidan chegaralanishi | Qaysarlik | |
| 2 | Bolaning ortiqcha maqtanchoqligi, gapdonligi, o'ziga e'tibor qaratish, boshqalarni hayratlantirish istagi | | |
| 3 | Bolaning to'g'ri yo'nalishda ro'yobga chiqarilmay kelayotgan ichki jo'shqinligi, tashabbuskorligi | Yolg'onchilik | |
| 4 | Bolaning jasurlik, mardlik aslida nima ekanini noto'g'ri tushunishi | | |
| 5 | Bolaning mustaqillikka intilishi, shaxsiy xohish-irodasini namoyish etishga noo'rin urinishi | Dangasalik | |
| 6 | Bola tashabbuskorligining kattalar tomonidan qo'pol va asossiz ravishda cheklanishi | | |
| 7 | Bolaning jazo hamda ta'qibdan xavotirlanishi va qo'rqishi | Qo'rslik | |
| 8 | Bolaning kattalar tomonidan nohaq ravishda ayblanishi | | |
| 9 | Bolaning ochiq samimiy munosabat bilan dangallik, cho'rtkesarlikning o'zaro farqini yaxshi tushunmasligi | Intizomsizlik | |
| 10 | Bolaning harakatlariga o'qituvchi tomonidan yetarli e'tibor va rag'bat ko'rsatilmasligi | | |





## Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. Shaxsning shaxslararo munosabatdagi holatini va uni guruh a`zolariga psixologik ta`sirini belgilovchi me`yorni ifodalovchi tushunchag-......... deyiladi?**

A) Status B) Avtoritet
C) Rahbarlik D) Liderlik

**2. O'quvchilar tomonidan ba'zi bir axloqiy tushunchalar va tasavvurlarning o'zlashtirilishi va ularning bola shaxsiga bo'lgan ta'siri kim tomonidan tadqiq etilgan?**

A) V.A.Krutetskiy B) P.I.Razmislov
C) A.L.Shnirman D) A.S.Alyakrinskaya

**3. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni belgilang.**
**1) tashqi ijtimoiy muhit; 2) ta'lim-tarbiya; 3) irsiyat; 4) shaxsiy faollik.**

A) 1, 2 B) 1, 2, 3, 4
C) 3, 4 D) 1, 2, 3

**4. "Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa". Ushbu fikr muallifini aniqlang.**

A) Arastu B) Aflotun
C) Geraklit D) Demokrit

**5. Quyidagi javoblardan qay birida tarbiya uslubi turlari to'g'ri tasniflangan?**

A) to'g'ri va aylanma B) ongli va anglab bo'lmaydigan
C) ta'sirchan va bo'ysundiruvchi D) barcha javoblar to'g'ri

8-ilova

## Keys metodi

***Guruhlarga keys beriladi va guruhlar keys mavzusini o'qib bo'lishgandan so'ng, savollarga javoblarini aytishadi. Javoblar eshitilgandan keyin 3 ta guruhlar o'zaro javoblarini muhokama qilib maqbul javob to'xtamiga kelishadi.***

5-sinfda o'qiydigan Sobir o'zi juda yaxshi bola. U darsni yaxshi o'zlashtiradi, o'qituvchi bergan vazifalarni o'z vaqtida bajarib kelishga intiladi. Ko'p gapirmaydi, shovqin ko'tarmaydi, tabiatan yuvosh bola. Bir kuni u darsga kechikibroq keldi. Qo'lida esa atirgul. Sobir gulni o'qituvchiga uzatdi. O'qituvchi gulni olib, guldonga soldi va Sobirni joyiga o'tirishi mumkinligini aytdi. Dars davom eta boshladi. Birdan eshik ochilib, maktab bog'boni o'qituvchini chaqirdi. Bog'bon o'qituvchiga u hovlida o'stirayotgan gullardan birini bir bola uzib olib, chopib shu xonaga kirib ketganini aytdi va shu bolaga nisbatan jazo qo'llanilishini o'qituvchidan so'radi.

**Savol:**

1. Bu vaziyatda o'qituvchi qanday yo'l tutishi lozim?
2. Tarbiya usullari va vositalaridan qay birini qo'llash bu jarayonda samaraliroq natija beradi deb hisoblaysiz?

### "MEHR MAKTUBI" trening mashg'uloti

Mashg'ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lib shaxslar aro munosabatlarni, oilaviy munosabatlar va farzand hamda ota-ona munosabatlarida yuzaga kelgan buzilishlarni korreksiya qilish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda.

Farzand va ota-ona munosabatlarini korreksiya qilishda qo'llanilishi. Korreksiya obektlari o'quvchi va ota yoki onasi bo'lib, ular alohida-alohida xonalarda o'tirishlari, verbal muloqot uchun sharoit bo'lmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularning har biriga A4 qog'oz va ruchka beriladi, Varoq tepasiga "(Farzandimga / Onamga tarzida) Mehr xati" deb sarlavha qo'yib shu sarlavha asosida ular bir-birlariga maktub yozishlari kerak. Maktublar yozib bo'lingach, psixolog maktublarni ularga eltib beradi. Maktub kamida 3 marta almashinishi kerak, toki tomonlarda insayt yuzaga kelmaguncha. Maktub mazmuni pozitiv va o'zaro tushunish ko'nikmalari asosida yozilganligini ko'rsatsa, psixolog tomonlarni bir xonada uchrashtirishi mumkin. Eslatma: psixolog muntazam tomonlarning destruktiv bildirgilarini, so'zlarini va bir-biriga qo'yadigan shart hamda ultimatumlarini adekvat talqin qilib turishi lozim. Psixolog o'rtada 100% betaraf inson sifatida qatnashishga harakat qilishi hamda har bir xulq-atvorni psixologik tahlil va talqin qilishga yordam berishi kerak. Shuningdek, vaziyatga qarab shaxsga o'z xulq-atvori motivlari va oqibatlarini anglashga yordam berishi ham maqsadga muvofiqdir.

Guruhda o'quvchilar orasidagi destruktiv munosabatlarda qo'llanilishi. Bunda o'zaro urushib qolgan, kelishmaydigan yoki ajralib qolgan o'quvchilar o'rtasida yuqoridagi jarayon guruh va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi tarzida ham o'tkazish mumkin.

Oila ichida destruktiv shaxslararo munosabatlarda qo'llanilishi. Endigi holatda yuqoridagi jarayon oila a'zolari va o'quvchi yoki bitta oila a'zosi va o'quvchi tarzida ham o'tkazilishi mumkin.

#### Mustaqil ta'lim topshirig'i

**Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. - T.: Hilol nashr, 2013.**

**"Mom - a mother, missing home" nomli qisqa metrajli videorolik.**



## 14-SEMINAR MASHG'ULOTI.
## MAVZU: PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA.

### "Pedagogik psixologiya" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik modeli

| | |
|---|---|
| **Seminarga ajratilgan vaqt** – 2 s. | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | O'rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg'ulot rejasi** | 1. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablar. Pedagoglarning ijtimoiy-maxsus sifatlarini aniqlash metodi.<br>2. Pedagogning umumiy va maxsus xususiyatlari.<br>3. Pedagogik muloqot.<br>4. Pedagog faoliyatining individual uslubi. |
| **Mashg'ulotning maqsadi** | Talabalarning pedagogik psixologiya bo'yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Pedagog shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablarni o'rganish;<br>2) Pedagogning umumiy va maxsus xususiyatlari mazmunini tahlil etish;<br>3) Pedagogik muloqotni o'rganish;<br>4) Pedagog faoliyatining individual uslubi jarayonlarini o'rganish. | **O'quv faoliyati natijalari:**<br>1) Pedagog shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablarga doir bilimlarni o'zlashtiradilar;<br>2) Pedagogning umumiy va maxsus xususiyatlari mazmunini va ahamiyatini tahlil qiladilar;<br>3) Pedagogik muloqotni o'rganilib tahlil etiladi;<br>4) Pedagog faoliyatining individual uslubi jarayonlarini o'zlashtiradilar. |
| **Ta'lim metod va usullari** | Blits-so'rov, "Keys" metodi, test, krossvord, anagramma, tushunchalar tahlili, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta'limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O'quv qo'llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta'limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og'zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |

## "Pedagogik psixologiya" mavzusidagi seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | Talabalar |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg'uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O'qituvchi mavzu bo'yicha blits-so'rov o'tkazib, talabalarni mashg'ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo'linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mashg'ulotning asosiy bosqichiga o'tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berishlari uchun "Keys" metodi qo'llaniladi (5-ilova). | Berilgan keyslarni muhokama asosida ishlab chiqadilar. |
| | 2.2. Mavzuga oid topshiriqlarni bajarishda tushunchalar tahlili metodi bilan ishlanadi, bunda topshiriqni bajarish tartibi tanishtiriladi (6-ilova). | Mavzuga oid jadvallar asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.3. Mavzuga oid krossvord, test topshirig'i beriladi (8-7-ilova). | Anagramma, krossvord va testlarni bajarishadi. |
| | 2.4. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (9-ilova). | Psixologik trening o'tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg'ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg'ulotdagi ishtiroki bo'yicha natijalarini e'lon qiladi. | O'z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun Z.T.Nishanova va boshqalar hammuallifligidagi "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" darsligidan 535-564-betlarni o'qib kelish. "Scarlett" nomli qisqa metrajli videorolikni tomosha qilib, mulohaza yuritish. | Talabalar mustaqil ta'lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |



*1-ilova*

### Mavzu: Pedagogik psixologiya

**Reja:**

1. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablar. Pedagoglarning ijtimoiy-maxsus sifatlarini aniqlash metodi.
2. Pedagogning umumiy va maxsus xususiyatlari.
3. Pedagogik muloqot.
4. Pedagog faoliyatining individual uslubi.

**Adabiyotlar:**

1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
2. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. - СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. - T.: O'zFMJ., 2008.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. - T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. - T.: 2009.
6. www.ziyocom.uz - ta'lim portali.

*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**Pedagogik psixologiya mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. O'quv faoliyati va uning elementlari nimalardan iborat?
2. Ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish nimaga bog'liq?
3. O'qish motivlari va motivatsiyaga izoh bering.
4. O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalariga nimalar kiradi?
5. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari.
6. Pedagogik baho turlarini izohlang.

*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – "Ma'rifat" guruhi.
2-guruh – "Ziyo" guruhi.
3-guruh – "Taraqqiy" guruhi.

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

## Kasbiy pedagogik qobiliyatlarni aniqlovchi keyslar

Quyida turli xildagi kasbiy pedagogik qobiliyatlarni aniqlovchi 14 xildagi pedagogik vaziyatlar berilmoqda. Ularni hal etish bir muncha vaqt talab etadi. O'qituvchi dars jarayonida har bitta vaziyatdan unumli foydalanishi mumkin. Bu muammolarni hal etishda quyidagi topshiriqlarni belgilab olish maqsadga muvofiq:

### I bosqich

Bu bosqich 3 ta topshiriqdan iborat.

***1-topshiriq.*** Har bir pedagogik vaziyatni bittadan talabaga bo'lib bering.

***2-topshiriq.*** Har bir talaba berilgan pedagogik vaziyatlarni mazmun mohiyatini aniqlab olsin.

***3-topshiriq.*** Bo'lib olingan vaziyatlar mazmuniy izohini talalabalardan og'zaki so'rang va ular javobini tinglang.

### II bosqich

Bu bosqichda talabalarning har biriga barcha pedagogik vaziyatlar tegishli javoblari bilan tarqatiladi. Tarqatilgan har bir vaziyatlarni talabalar o'zlari hech kimning yordamisiz bajarishi lozim. Oldingizda noqulay pedagogik vaziyatlar qatori berilgan. Ularning har biri bilan tanishib chiqib, berilgan vaziyatga ta'sir javob variantlardan fikringizga ko'ra to'g'risini tanlang.

### 1-VAZIYAT

Darsni boshladingiz, auditoriyada tinchlik hukm surmoqda. Birdan kimdir kulib yubordi. Siz kulib turgan talabaga savol va hayrat nazari bilan qaradingizda, u sizga tik qarab gapirdi: "Men uchun sizga qarash doim kulgili va kulgim keladi". Bunda siz qanday ta'sirlanasiz?

1. "Mana senga!"
2. "Senga nimasi kulgili?"
3. "Bilganingni qil".
4. "Sen, nima jinnimisan?"
5. "Xushchaqchaq odamlarni yoqtiraman".
6. "Senda xush kayfiyatni uyg'otganimdan xursandman".

### 2-VAZIYAT

Bu auditoriyada bir necha dars o'tganimizdan so'ng, talaba sizga yuzlanib, "Men o'ylamaymanki, siz pedagog sifatida bizlarga biror narsani o'rgatasiz" Sizning ta'siringiz:

1. "Sening ishing o'qish, o'qituvchiga o'rgatish emas!"
2. "Sendaylarga men, albatta, hech narsaga o'rgatolmayman".
3. "Balki, senga boshqa guruhga o'tish yoki boshqa o'qituvchida o'qish ma'qulroqdir?"
4. "Shunchaki, sen o'qishni xohlamaysan".
5. "Qiziq, nimaga sen bunday deb, o'ylaysan?"
6. "Kel, bu to'g'rida ochiqroq gaplashamiz. Balki, o'zimni tutishimda biror-bir narsa bordirki, seni shunday fikrga olib keladi".



### 3-VAZIYAT

Talaba o'qituvchiga qarab, berilgan vazifani bajarishni xohlamagan holda gapiryapti. "Men bu vazifani bajarishni xohlamayman!" O'qituvchining ta'siri qanday bo'lishi kerak?

1. "Xohlamaysanmi? Majburlaymiz"
2. "Unda nima uchun o'qishga kelding?"
3. "Senga shuncha yomonroq bo'ladi, o'qimay qolaver. Sening xulqing bir odamni eslatadiki, u o'zining yuziga achchiq qilib, burnini kesib olishni xohlardi".
4. "Sen o'zingga bu to'g'rida hisob berasanmi, bu sen uchun nima bilan tugashi mumkin?"
5. "Tushuntirib berolmaysanmi, nimaga?"

### 4-VAZIYAT

Talaba o'zining o'zlashtiridan norozi, mavzuni qanday tushunishi, o'zlashtirish kerakligi va o'zining qobiliyatlaridan shubhalangan holda o'qituvchiga dedi: "Nima deb o'ylaysiz, qachondir men ham "a'lo" bahoga o'qir olarmikanman va guruhdagi boshqalardan orqada qolib ketmasmikanman?" O'qituvchining javobi qanday bo'lishi kerak?

1. "To'g'risini aytganda-shubhalanaman"
2. "Ha, albatta, bundan shubhalanmasliging mumkin".
3. "Senda ajayib qobiliyatlar bor va men senga katta umidlar bog'layman".
4. "Nima uchun o'zingdan shubhalanasan?"
5. "Kel gaplashamiz va muammolaringni aniqlab olamiz".
6. "Ko'p narsa bir-birimiz bilan qanday ishlashimizga bog'liq".

### 5-VAZIYAT

Talaba o'qituvchiga qarab: "Sizning kelgusi ikki darsingizga qatnasha olmayman, chunki yoshlar ijrosidagi konsertga bormoqchiman". O'qituvchining munosabati qanday bo'lishi kerak?

1. "Qani, borib ko'rchi?!"
2. "Keyingi safar darsga ota-onang bilan kelishingga to'g'ri keladi".
3. "Bu sening ishing, imtihon topshiradigan sen. Shundoq ham qoldirilgan darslaring uchun javob berishinggga to'g'ri keladi, men seni keyin albatta so'roq qilaman".
4. "Balki, o'qishni tashlaganing ma'quldir?"
5. "Keyin nima qilmoqchisan?"
6. "Qiziq, nimaga senga konsertga borish darslardan ko'ra qiziqroq?"

### 6-VAZIYAT

Talaba auditoriyaga kirib kelgan o'qituvchiga qarab dedi: "Siz juda ham charchagan va horg'in ko'rinasiz". O'qituvchining ta'siri qanday bo'lishi kerak?

1. "Menimcha, sen tomondan menga bunday tanbehlar berish odobdan emas".
2. "Ha, men o'zimni yomon his qilyapman".
3. "Mendan xavotirlanma, yaxshisi o'zingga qara".
4. "Bugun ishim ko'pligidan yomon uxladim".
5. "Xavotirlanma, bu darslarimizga xalaqit bermaydi".
6. "Juda ham e'tiborli ekansan, mehribonliging uchun rahmat!"

## 7-VAZIYAT

"Men sezyapmanki, siz olib borayotgan darslar menga yordam bermayapti, - dedi talaba fan o'qituvchisiga qarab va davom etdi, umuman darslarni tashlash haqida o'ylayapman". O'qituvchining ta'sirlanishi qanday bo'lishi kerak?

1. "Bema'ni gaplarni bas qil!"
2. "Voy bo', juda o'ylavording-ku"
3. "Balki, boshqa o'qituvchini toparsan?"
4. "Men yaxshilab bilmoqchi edim, nima uchun senda bunday istak tug'ildi?"
5. "Nima deysan, sening muammolaring ustida birga ishlaymizmi?"
6. "Balki, muammolaringni boshqacharoq hal qilish mumkindir".

## 8-VAZIYAT

Talaba o'ziga ishonishini ko'z-ko'z qilib, o'qituvchiga dedi: "Agar xohlaganimda, men qila olmaydigan hech narsa yo'q. Shu bilan birga sizning faningizni o'zlashtirish men uchun hech narsa emas". O'qituvchining munosabati qanday bo'lishi kerak?

1. "O'zing to'g'ringda juda to'g'ri o'ylayapsan".
2. "Qobiliyatlaring bilan-a? Ishonmayman".
3. "Agar shunday gapirayotgan bo'lsang, balki o'zingni yetarli darajada ishonchli his qilyapsan".
4. "Bunga shubham yo'q, chunki ishonaman, agar istasang, qo'lingdan hamma narsa keladi"
5. "Balki, bu narsa sendan katta mehnatni talab qilar?"
6. "Haddan tashqari o'ziga ishonish ishga zarardir".

## 9-VAZIYAT

O'qituvchining tanbehlariga javoban, talaba dedi: "O'quv predmetini o'zlashtirish uchun, ko'p ishlash kerak emas, meni yetarli darajada qobiliyatli deyishadi". Bunga o'qituvchining ta'siri qanday bo'lishi kerak?

1. "Nahotki, sening bu fikrga ishonching bor?"
2. "Sen haligacha boshingdan o'tkazgan qiyinchiliklardan dars olmayapsan va sening bilimlaring hech bu isbotini bermaydi"
3. "Ko'pchilik o'zlarini yetarli darajada qobiliyatli hisoblaydilar, lekin ko'pchilik bunday emas".
4. "Xursandman, o'zing haqingda yuqori fikrdasan".
5. "Aynan shu narsa seni o'qishda ko'p kuch sarflashga majbur qilishi kerak!"
6. "Bu shunday eshitilyaptiki, go'yoki sen qobiliyatlaringga ishonmaysan".

## 10-VAZIYAT

Talaba fan o'qituvchisiga qarab: "Men yana daftar olib kelishni unutdim", - dedi. O'qituvchining munosabati qanday bo'lishi zarur?

1. "Yana - ya?"
2. "Seningcha, bu mas'uliyatsizlikning yaqqol namoyon bo'lishi emasmi?"
3. "Menimcha, ishga jiddiyroq yondashishingni ayni vaqti".
4. "Bilishni istardim, nimaga?
5. "Senda, ehtimol, bunga imkoniyat bo'lmagandir?"
6. "Nima deb o'ylaysan, men nima uchun doim senga bu to'g'rida eslataman"



## 11-VAZIYAT

Talaba o'qituvchi bilan suhbatda, unga murojaat qilib: "Boshqa talabalarga qaraganda menga yaxshiroq munosabatda bo'lishingizni xohlardim". Talabaning iltimosiga o'qituvchining javobi qanday bo'lishi kerak?

1. "Nimaga men boshqalarga nisbatan senga yaxshiroq munosabatda bo'lishim kerak?"
2. "Men erkatoylarni o'ylamoqchimasman".
3. "Menga senday fikrlaydiganlar yoqmaydi".
4. "Aytchi, nimaga boshqa talabalar o'rtasida seni alohida ajratishim kerak?"
5. "Agar men senga aytsam, seni boshqa talabalardan ko'proq yaxshi ko'raman, desam, o'zingni bundan yaxshiroq sezarmiding?"
6. "Nima deb o'ylaysan, o'zi senga qanday munosabatdaman?"

## 12-VAZIYAT

Talaba o'qituvchiga unga o'qitiladigan predmet haqida yaxshi o'zlashtirish imkoniyatlari bo'yicha o'zining shubhalarini aytdi: "Men sizga meni xavotirga olib kelayotgan narsalarni aytdim. Endi aytingchi, buning sababi nima va men nima qilishim kerak?" Bunga o'qituvchining javobi qanday bo'lishi kerak?

1. "Menimcha, senda to'laqonlilik yetishmaydi".
2. "Senda tashvishlanishlarga hech qanday asoslar yo'q".
3. "Asoslangan fikrni aytishdan oldin, men muammoni yaxshiroq tushunib olishim kerak".
4. "Kel, kutamiz, ishlaymiz, bir oz vaqtdan so'ng bu muammoning hal qilinishiga qaytamiz. O'ylaymanki, buni hal qila olamiz".
5. "Men senga aniq javobni aytishga tayyormasman, o'ylab ko'rishim kerak".
6. "Tashvishlanma, o'z vaqtida menda ham hech narsa o'xshamagan".

## 13-VAZIYAT

Talaba o'qituvchiga qarab: "Menga sizning darslarda gapirishingiz va tushuntirishingiz yoqmaydi". O'qituvchining ta'sirlanishi qanday bo'lishi kerak?

1. "Bu yomon".
2. "Ehtimol, sen buni tushunmassan?"
3. "Umid qilamanki, keyinchalik darslarimiz davomida fikring o'zgarar..."
4. "Nimaga?"
5. "O'zing nimani yoqtirasan va tushunasan?"
6. "Did va rang bo'yicha do'st yo'q".
7. "Nima deb o'ylaysan, qanday gapiramay va tushuntiray?"

## 14-VAZIYAT

Talaba guruhidagi o'rtoqlaridan biriga salbiy munosabatini ochiqchasiga bildirib, shunday gapirdi: "Men u bilan birga o'qishni istamayman!" O'qituvchining javobi qanday bo'lishi kerak?

1. "Nima qilibdi?"
2. "Hech qocholmaysan, baribir majbursan!"
3. "Sen tarafdan bildirilgan bu fikr - axmoqlik".
4. "Balki u ham bundan so'ng sen bilan o'qishni xohlamas?"
5. "Nimaga?"
6. "O'ylashimcha, sen nohaqsan".

## JAVOBLAR VARAQASI

| *Vaziyatlar №* | *Javob variantlari (ballar)* | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| *1* | 4 | 3 | 4 | 2 | 5 | 5 | - |
| *2* | 2 | 2 | 3 | 3 | 5 | 5 | - |
| *3* | 2 | 3 | 4 | 4 | 5 | 5 | - |
| *4* | 2 | 3 | 3 | 4 | 5 | 5 | - |
| *5* | 2 | 2 | 3 | 3 | 2 | 4 | 5 |
| *6* | 2 | 3 | 2 | 4 | 5 | 5 | - |
| *7* | 2 | 2 | 3 | 4 | 5 | 5 | - |
| *8* | 2 | 2 | 4 | 5 | 4 | 3 | - |
| *9* | 2 | 4 | 3 | 4 | 5 | 4 | - |
| *10* | 2 | 3 | 4 | 4 | 5 | 5 | - |
| *11* | 2 | 2 | 3 | 4 | 5 | 5 | - |
| *12* | 2 | 3 | 4 | 5 | 4 | 5 | - |
| *13* | 3 | 2 | 4 | 4 | 5 | 4 | 5 |
| *14* | 2 | 2 | 3 | 4 | 4 | 5 | - |
| *Jami (hammasi)q* | | | | | | | |

*6-ilova*

### Pedagogik qobiliyatlarni guruhlarga ajratishda "Tushunchalar tahlili" jadvalidan foydalanamiz

Pedagogik qobiliyatlarning turli xil namunalari ularning qanday nisbatan umumiy guruhlariga oid ekanini ko'rsating. Bunda quyidagi jadvalning alohida qobiliyat namunalari keltirib o'tilgan satrlari bilan qobiliyatlarning umumiy guruhlari ko'rsatilgan ustunlari o'zaro kesishgan joyga har qaysi qobiliyatning qaysi guruhga mansubligini bildirish ma'nosida biror belgi qo'yish talab qilinadi.

| № | Pedagogik qobiliyatlarning alohida namunalari | Pedagogik qobiliyatlarning guruhlari | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Shaxs bilan bog'liq qobiliyatlar | Didaktik qobiliyatlar | Tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar |
| 1 | Bolalarga nisbatan muhabbat | | | |
| 2 | Tushuntira olish qobiliyati | | | |
| 3 | Tashkilotchilik qobiliyati | | | |
| 4 | Sabr-toqat, chidam, matonat | | | |
| 5 | Muloqotchanlik qobiliyati | | | |
| 6 | Pedagogik xayol | | | |
| 7 | Akademik qobiliyat | | | |
| 8 | Pedagogik kuzatuvchanlik | | | |
| 9 | O'zini-o'zi boshqara olish | | | |
| 10 | Pedagogik takt | | | |
| 11 | Suggestiv qobiliyat | | | |
| 12 | Nutqiy qobiliyat | | | |
| 13 | Diqqatning taqsimlanishi | | | |



*7-ilova*

### Mavzu yuzasidan krossvord topshirig'i




### SAVOLLAR:

**Eniga:**

**4.** Insoniyat tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq deb hisoblanib e'zozlanib keladigan kasb qaysi?

**5.** Psixologiya fanlar tizimida ta'lim va tarbiya muomolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasini nomini toping?

**6.** Qanday malaka bolaning asab psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilish hisoblanadi?

**Bo'yiga:**

**1.** Qaysi olim tadqiqotlarida o'qituvchilarning yosh xususiyatiga bog'liq holda o'qituvchilarning mashhurlik va mashhur emaslik motivlari o'rganilgan?

**2.** Bolaga uquv materialini aniq va ravshan tushuntirib oson qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib ularda mustaqil faol fikrlashni rivojlantira oladigan qobiliyat qaysi?

**3.** O'qituvchining o'zi o'qitadigan fanni shuningdek, boshqa fanlar sohasiga xos bo'lgan chuqur va keng bilimlarga ega bo'lish qobiliyati nima deb ataladi?

*8-ilova*

### Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. O'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi o'quv faoliyatidan iborat bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish jarayoni nima deb ataladi?**

a) Ta'lim  b) Tarbiya
c) Ko'nikma  d) O'zlashtirish

**2. Ko'proq o'quv faoliyatida o'quvchiga tegishli faoliyat nazarda tutiladigan jarayon qaysi?**

a) Takrorlash  b) Uyga vazifa
c) O'qish  d) Konspekt

**3. Insoning o'quv faoliyati natijasida yangi psixologik sifat va xususiyatlarni o'zlashtirganligini bildiradigan jarayon ko'rsatilgan javobni belgilang.**

a) Kuzatish  b) Eshitish
c) O'rganish  d) Takrorlash

**4. Imprinting mexanizmi bo'yicha o'rganish deb nimaga aytiladi?**

a) Sekin, kuzatib o'rganish
b) Tez, avtomatik ravishda o'rganish
c) Mustaqil o'rganish
d) Tajriba orqali o'rganish

**5. O'rganishning qaysi turi dastlabki neytral qo'zg'atuvchiga shartli reaksiyalar sifatida xulq-atvorning yangi shakllari vujudga kelishini nazarda tutadi?**

a) Operant o'rganish  b) Shartli reflekator o'rganish
c) Mustaqil o'rganish  d) Avtomatik o'rganish

**6. P.Ya.Galperin nazariyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni nechta bosqichni boshidan kechiradi?**

a) 2 ta  b) 3 ta
c) 6 ta  d) 5 ta

**7. P.Ya.Galperin nazariyasi bo'yicha materialni nisbatan dadil va to'la tushunilishi va material bilan bog'liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadigan o'rganish jarayoni nima deb ataladi?**

a) Moddiy formadagi xatti-harakatlarni bajarish
b) Motivatsiya
c) Tushuntirish
d) Faoliyatni fikran bajarish

**8. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni muammosi qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?**

a) P.Ya.Galperin va N.F.Talizina
b) M.G.Davletshin va F.I.Haydarov
c) V.A.Krutetskiy va I.P.Pavlov
d) F.I.Haydarov va N.S.Jo'rayev

**9. Qaysi metod reproduktiv metod bo'lib, unda faoliyat o'qituvchi tomonidan olib boriladi, o'quvchilar ta'lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar?**

a) Reproduktiv metod
b) Tushuntiruv-ko'rsatmalilik metod
c) Muammoli ta'lim metodi
d) Qisman izlanish metodi



**10. Yangi o'quv ma'lumotlarini o'qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish deb nimaga aytiladi?**

a) Vizual ma'ruza
b) Muammoli ma'ruza
c) Sharhlovchi ma'ruza
d) Ma'ruza axborot

*9-ilova*

### "JOY ALMASHISH" treningi

Ishtirokchilar doira atrofida o'tiradilar, trener esa doira o'rtasida turadi.

**Yo'riqnoma:** "Hozir bizda tanishuvni davom ettirish imkoniyati bo'ladi. Buni shunday qilamiz: doiraning markazida turgan kishi (boshida bu men bo'laman) biror umumiy belgiga ega bo'lgan narsani hammaga taklif etadi va kimda shu belgi bo'lsa, u joyini almashadi. Masalan, men shunday deyman: "Singlisi borlar joyingizni almashtiring" va hamma singlisi borlar joylarini almashtirishlari kerak. Bunda doiraning markazida turgan kishi bo'shagan joyni egallashga ulgurishi kerak. Markazda joysiz qolgan ishtirokchi esa o'yinni davom ettirishi kerak. Mashq tugaganidan so'ng trener guruhga quyidagi savollar bilan murojaat etishi mumkin: "Siz o'zingizni qanday sezayapsiz?", "Hozir sizning kayfiyatingiz qanday?" Qoidaga muvofiq, mashqlar qizishganlikni pasaytiradi, kayfiyatini ko'taradi, diqqat va fikrlarni faollashtiradi.

### Mustaqil ta'lim topshirig'i

Z.T.Nishanova va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Darslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 600 b.

"Scarlett" nomli qisqa metrajli videorolik.

## 15-SEMINAR MASHG‘ULOTI.
## MAVZU: TA’LIM JARAYONIGA TEXNOLOGIK YONDASHUV.

**“Ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv” mavzusidagi seminar mashg‘ulotining texnologik modeli**

| **Seminarga ajratilgan vaqt** – 2 s. | **Talabalar soni** – 25-30 nafar |
|---|---|
| **O‘quv mashg‘ulotining shakli** | O‘rganilganlarini mustahkamlashga doir dialogli seminar |
| **Mashg‘ulot rejasi** | 1. “Pedagogik texnologiya”, “metodika”, “metod” tushunchalari. Pedagogik texnologiya mezonlari.<br>2. Pedagogik texnologiyaga ilmiy-nazariy yondashuvlar. Pedagogik texnologiya rivojlanish bosqichlari.<br>3. Pedagogik texnologiyaning tuzilishi. Ta’lim texnologiyasi maqsadi, vazifalari, metodologik asoslari. Ta’lim texnologiyasining darajalari. Umumiy, xususiy va modul texnologiyalari.<br>4. Ta’limda texnologik yondashuv variantlari. Ta’lim texnologiyasini turkumlanishi. Ta’lim texnologiyalariga aksematik yondashuv. Taksanomiya tushunchasi. B.Blum taksonomiyasi - o‘quv maqsadlari taksanomiyasi. |
| **Mashg‘ulotning maqsadi** | Talabalarning ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>1) Pedagogik texnologiya mezonlari haqida o‘rganish;<br>2) Pedagogik texnologiyaning rivojlanish bosqichlari mazmunini tahlil etish;<br>3) Pedagogik texnologiyaning tuzilishini o‘rganish va tahlil etish;<br>4) Taksanomiya tushunchasi. B.Blum taksonomiyasi. O‘quv maqsadlari taksanomiyasi jarayonlarini o‘rganish. | **O‘quv faoliyati natijalari:**<br>1) Pedagogik texnologiya mezonlarga doir bilimlarni o‘zlashtiradilar;<br>2) Pedagogik texnologiyaning rivojlanish bosqichlari mazmunini tahlil qiladilar;<br>3) Pedagogik texnologiyaning tuzilishi o‘rganilib tahlil etiladi;<br>4) Taksanomiya tushunchasi. B.Blum taksonomiyasi - o‘quv maqsadlari taksanomiyasi jarayonlarini o‘zlashtiradilar. |
| **Ta’lim metod va usullari** | Blits-so‘rov, “Mantiqiy ketma-ketlik” metodi, test, Charxpalak, juftlash, grafikli diktant, kichik guruhlarda ishlashga doir topshiriqlar |
| **Ta’limni tashkil etish shakli** | Individual va kichik guruhlarda ishlash |
| **Didaktik vositalar** | O‘quv qo‘llanma, proyektor, markerlar, tarqatma materiallar |
| **Ta’limni tashkil etish sharoiti** | Texnik vositalar bilan jihozlangan xona |
| **Nazorat va baholash** | Yozma (konspekt) va og‘zaki (izohlash, bayon etish va tushuntirish) nazorat |



**“Ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv” mavzusidagi seminar mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O‘qituvchi** | **Talabalar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Seminar mashg‘uloti mavzusi va rejalari bilan tanishtiradi. Seminar rejasidagi masalalarni o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlarni taqdim etadi (1-ilova). | Daftarlariga yozib olishadi. Mavzu yuzasidan savollarga javob olishadi. |
| **1. O‘quv mashg‘ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar va baholash mezoni bilan tanishtiradi (2-ilova). | Baholash tartibi haqida bilib olishadi. |
| | 1.2. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha blits-so‘rov o‘tkazib, talabalarni mashg‘ulotga chorlab oladi (3-ilova). | Savollarga javob beradilar. |
| | 1.3. Talabalarni uchta kichik guruhlarga taqsimlaydi va kichik guruhlarda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (4-ilova). | Guruhlarga bo‘linishadi va qoidalar bilan tanishishadi. |
| **2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)** | 2.1. Mavzuga oid topshiriqlarni bajarishda jadvallar bilan ishlanadi, bunda topshiriqni bajarish tartibi tanishtiriladi (5-ilova). | Mavzuga oid jadvallar asosida topshiriqni bajaradilar |
| | 2.2. Mashg‘ulotning asosiy bosqichiga o‘tish, rejadagi masalalarni mazmunli yoritib berishi uchun “Mantiqiy ketma-ketlik” metodi qo‘llaniladi (6-ilova). | Belgilangan tushunchalarni to‘ldirib, mazmunini izohlashadi. |
| | 2.4. Mavzuga oid test topshirig‘i beriladi, talabalarni diqqatini taqsimlash uchun grafikli diktant interaktiv metodi o‘tkaziladi (7-8-ilova). | Testlarni bajarishadi. |
| | 2.5. Talabalar ishtirokida psixologik trening tashkil etilib, mavzu mohiyati mustahkamlab olinadi (9-ilova). | Psixologik trening o‘tkaziladi, vazifa bajarishadi. |
| **3. Yakuniy bosqich (20 daqiqa)** | 3.1. Mashg‘ulotga doir umumiy xulosalar bayon etiladi. | Tinglaydilar va fikr bildirishadi. |
| | 3.2. Talabalarni mashg‘ulotdagi ishtiroki bo‘yicha natijalarini e’lon qiladi. | O‘z natijalarini bilib olishadi. |
| | 3.3. Mustaqil ish uchun “Loving heart” nomli qisqa metrajli videorolik tomosha qilib, mulohazalarni yuritish. | Talabalar mustaqil ta’lim mazmunini va topshiriqlarni yozib oladilar. |

**Mavzu: Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv.**
**Reja:**




**Adabiyotlar:**


1. Muxamedova D.G'., Mullaboeva N.M., Rasulov A.I. Umumiy psixologiya. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
2. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. - СПб.: Питер, 2016.
3. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. - T.: O'zFMJ., 2008.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. - T.: Fan, 2002.
5. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. -T.: 2009.
6. www.ziyocom.uz - ta'lim portali.


*2-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,4 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,5 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,5 ball.

*3-ilova*

**"Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv" mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Pedagogik texnologiya tushunchasini aytib bering?
2. Ta'limning diagnostik maqsadlarini o'rgatish texnologiyalarini ayting.
3. Pedagogik texnologiya turlarini ayting.
4. Umumiy, xususiy hamda modul texnologiyalar haqida ma'lumot bering.
5. Taksonomiya tushunchasi nima?
6. B.Blum taksonomiyasi, o'quv maqsadlari taksanomiyasini tushuntiring.



*4-ilova*

**Kichik guruhlarning nomlanishi**

1-guruh – "Ma'rifat" guruhi.
2-guruh – "Ziyo" guruhi.
3-guruh – "Taraqqiy" guruhi.

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*5-ilova*

**Pedagogik texnologiyaning turlari xususiyatidan kelib chiqib, maqsadi, mohiyati, mexanizmini jadvalni to'ldiring.**

| Pedagogik texnologiya turi | Maqsadi | Mohiyati | Mexanizmi |
|---|---|---|---|
| Muammoli o'qitish | | | |
| Mujassamlashtirilgan ta'lim | | | |
| Modul ta'limi | | | |
| Rivojlantiruvchi ta'lim | | | |
| Differentsiallashgan ta'lim | | | |
| Faol o'qitish (majmuaviy ta'lim) | | | |
| O'yin texnologiyalari | | | |

**Quyidagi ma'lumotlarning mantiqiy ketma-ketligini davom ettiring.**

| Texnologiyalarni joriy etilishi va tadbiq etilgan davlatga tegishli rasmlar | Texnologiyalar joriy etilgan va tadbiq etiladigan davlatning rasmiy nomi | Texnologiyalarni joriy etilishi va tadbiqi hadiqagi faktlar |
|---|---|---|
|  | O'zbekiston | 1967-yil – Pedagogik texnologiya bo'yicha Milliy kengash, 1964-yildan boshlab "Pedagogik texnologiya va o'qitishni dasturlashtirish" jurnali, 1971-yilda "Pedagogik texnologiya" jurnali nashr eta boshladi |
|  | Rossiya | 1971-yil – "Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo'yicha Davlat Assotsiatsiyasi" tuzildi |
|  | AQSh | 1967-yilda "Pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy kengash" tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan |
|  | Vengriya | 1971-yili "Pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy markaz" tashkil etildi va "Pedagogik texnologiyalar" jurnali nashr etiladi |
|  | Angliya | 1999-yilda Respublika ta'lim markazi qoshida pedagogik texnologiyalar bo'yicha Markaz tashkil etildi. "Ta'lim texnologiyalari", "Ta'lim muammolari" kabi jurnallar nashr etila boshlandi |
|  | Italiya | XX asrning 90-yillarida pedagogik texnologiyalar bo'yicha Markaz tashkil etildi, "Maktab texnologiyasi", "Ta'limda innovatsiyalar" jurnallari nashr etiladi |
|  | Yaponiya | 1973-yili o'qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi |





**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

**1. Texnologiya atamasi nechanchi yilda fanga kiradi?**
A) 1856-yil B) 1878-yil C) 1854-yil D) 1872-yil

**2. Mehnat qurollari bilan mehnat obektlariga bosqichma bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchining faoliyati bu - ......?**
A) Pedagogik texnologiya B) Texnologik jarayon
C) Texnologik metodlar D) Ma'lumot texnologiyasi

**3. Pedagogik adabiyotlarda ta'lim texnalogiyasiga oid qancha ta'riflar bor?**
A) 3000 dan ortiq B) 300 ga yaqin
C) 300 dan ortiq D) 250 ga yaqin

**4. Pedagogik texnologiyani "amaliyotga tadbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi" deb kim ta'rif bergan?**
A) N.F.Talzina B) V.P.Bespalko
C) B.S.Farberman D) I.P.Volkov

**5. N.F.Talzina pedagogik texnologiyaga oid qanday fikrlarni olg'a surgan?**
A) Ta'limning rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayoni tafsiloti
B) Fan va amaliyot oralig'idagi muayyan tamoyillarnin olg'a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi ularni izchil qo'llash kabi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan mustaqil fan
C) Biror ishda mahoratda san'atda qo'llaniladigan usullar va yo'llar yig'indisi
D) Barkamol insonni shakllantirish faoliyati

**6. Qachon mamlakatimizda pedagogik texnologiyalar markazi ochildi?**
A) 1994-yil B) 1998-yil
C) 1999-yil D) 1995-yil

**7. O'qitish metodi necha xil va ular qaysi?**
A) 2 xil an'anaviy va noan'anaviy metod
B) 4 xil an'anaviy, noan'anaviy, umumiy, sinf-dars o'qitish metodi
C) 3 xil an'anaviy, noan'anaviy, umumiy o'qitish metodi
D) 3 xil an'anaviy, noan'anaviy, sinf-dars o'qitish metodi

**8. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo'nalishlari ham bor ulardan asosiylari qaysilar xatosiz berilgan qatorni toping?**
A) Empirik, kognitiv, differensiyalashgan ta'lim, o'yin texnologiyasi
B) Rivojlantiruvchi ta'lim, o'yin texnologiyasi, differensiyalashgan ta'lim
C) Empirik, kognitiv, everestik, interaktiv
D) Inklyuziv, noan'anaviy, rivojlantiruvchi ta'lim

**9. O'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim jarayonini tashkil etish qaysi texnologiya mazmuni hisoblanadi?**
A) Interaktiv
B) Inklyuziv
C) Everestik
D) Kognitiv

**10. "O'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi". Ushbu qoida qaysi atamaga taalluqli?**

A) Metod B) Ta'lim

C) Texnologiya D) Tarbiya

*8-ilova*

**Seminar mashg'ulotida talabalarning faolligini oshirish uchun quyidagi grafikli diktantdan foydalanamiz.**




*9-ilova*

**«Botqoqlik» trening mashg'uloti**

Buning uchun kartondan yasalgan o'rtacha kattalikda «likopchalar» kerak bo'ladi. Ularning soni 9 ta bo'lishi kerak. Guruh a'zolari ...tor bo'lib, birin-ketin tarelkalarga oyoq qo'yib botqoqlikdan o'ta boshlaydilar, at... ...a esa (ikkinchi guruh a'zolari) qaroqchi timsohlar yuradi. Timsohlar tarelkalar... olib qo'yishga shay turadilar, maqsad har bir guruh a'zosi tarelkalardan ...oq uzmasligi, hech bo'lmaganda bir oyoqning uchi bilan ularni bosib turishi kerak. Agar guruh a'zolari ittifoq bo'lib harakat qilsalar, mag'lubiyatsiz botqoqlikdan o'tadilar, bironta likopchani timsohga bermaydilar.

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

**"Loving heart" nomli qisqa metrajli videorolik.**



**MUNDARIJA**


**KIRISH** ........ 3

1-mavzu: Umumiy psixologiya fani predmeti, ilmiy tadqiqot metodlari ........ 4

2-mavzu: Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi ........ 12

3-mavzu: Sezgi va idrokning psixologik mohiyati, fiziologiyasi ........ 20

4-mavzu: Diqqat va xotira – psixik jarayon sifatida ........ 29

5-mavzu: Tafakkur va nutqning psixologik tavsifi ........ 39

6-mavzu: Motiv va motivasiya va hissiyotning namoyon bo'lishi ........ 50

7-mavzu: Temperament - shaxs tuzulmasi sifatida ........ 60

8-mavzu: Xarakter, qobiliyat va harakat inson faoliyatning birligi sifatida ........ 71

9-mavzu: Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muommolari ........ 81

10-mavzu: Pedagoik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi ........ 88

11-mavzu: Pedagogik psixologiyaning metodlari ........ 94

12-mavzu: Turliy yosh davrlarida shzlashtirish xususiyatlari ........ 101

13-mavzu: Tarbiya psixologiyasi: maqsadi, vositalari va metodlari ........ 112

14-mavzu: Pedagogik psixologiya ........ 119

15-mavzu: Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv ........ 130

Suyunov Sherzodbek Jamolovich
Donayeva Nozima Norbo‘tayevna

# UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

(seminar mashg‘ulotlari)

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: M.Bozorova
Musahhih: Sh.Suyunov
Badiiy muharrir: N.Donayeva
Texnik muharrir: A.To‘raqulov
Sahifalovchi: B.Soyibova

Terishga 25.09.2023-yilda berildi.
Bosishga 10.10.2023 da ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 8,75 bosma taboq.
Buyurtma №156. Times New Roman garniturasi.
Ofset usulida chop etildi. 300 nusxada. 138 bet.

"IRFON-PRINT" nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
Manzil: Termiz shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 40-uy

ISBN:978-9910-9954-8-4
9 789910 995484
3358